JOURNALS & BOOKS
ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

# O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA INNOVATSION TARAQQIYOT: FANLARARO TADQIQOTLAR, AMALIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

28-sentabr 2026-yil



Google Scholar | zenodo | OpenAIRE

academscience.com
TOSHKENT — 2026

**Academic Sciense Puplishing,**

**Academic Research Publisher hamda**

**UniScience Journali hamkorligida**

**********

# «O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA INNOVATSION TARAQQIYOT: FANLARARO TADQIQOTLAR, AMALIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR»

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.**

**Toshkent**

**28-sentabr, 2026-yil**

**********

**O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsion taraqqiyot: fanlararo tadqiqotlar, amaliy yechimlar va istiqbollar** // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 28-sentabr, 2026.

## Konferensiya tahririyat a’zolari

**Temnova L.V.** - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N.** - PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D.** - DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V.** - PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A.** - PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M.** - DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo‘shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

**„O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsion taraqqiyot: fanlararo tadqiqotlar, amaliy yechimlar va istiqbollar“** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi — O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim sohalarida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarni bir ilmiy makonda birlashtirish, dolzarb muammolarni aniqlash va ularning ilmiy-amaliy yechimlarini muhokama qilish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

**Maqolalarning mazmuni, undagi ma’lumotlar, faktlar va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (27.09.2026, Protocol No. 37).

# MUNDARIJA

**1. FUNDAMENTAL VA TABIIY FANLAR** ..... 11

UYQU FIZIOLOGIYASI: UYQU FAZALARI VA ULARNING ORGANIZM FUNKSIYALARINI BOSHQARISHDAGI AHAMIYATI ..... 12

**2. MUHANDISLIK, TEXNOLOGIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR** ..... 18

TAVSIYA KONVEYERLARINI O‘RQ-547-SON QONUN TALABLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA OPTIMAL JOYLASHTIRISH ..... 19

REAL VAQT REJIMIDAGI VIDEOANIQLASH TIZIMLARIDA YOLG‘ON SIGNALLARNI KAMAYTIRISHDA KO‘P MODALLI VA VAQT BO‘YICHA XATTI-HARAKATLAR TAHLILIDAN FOYDALANISH ..... 24

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI QURILMALARINI XARID QILISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH ..... 30

AMFIFIL OLIGOMERLAR VA KENGAYTIRILGAN VERMIKULIT ASOSIDA GIBRID OLEOGEL-SORBENTLAR SINTEZI VA XOSSALARI ... 42

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI ARXITEKTURASIDA BOLALARNING PSIXOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH ASOSIDA FAZOVIY-KOMPOZITSION YECHIMLARNI SHAKLLANTIRISH ..... 47

PROSPECTS FOR APPLICATION OF DNA COMPUTING IN ROBOTIC TECHNOLOGIES IN MEDICINE ..... 58

TOG‘ OLDI HUDUDLARIDA TOMCHILATIB SUG‘ORISH SUVLARIDAGI MUALLAQ ZARRACHALARNING MORFOLOGIK VA O‘LCHAM XUSUSIYATLARI ASOSIDA FILTR TURINI TANLASHGA MUHANDISLIK YONDASHUVI ..... 63

ГРУНТЛИ ТЎҒОНЛАР ҲОЛАТИГА ҲАРОРАТ-ФИЛЬТРАЦИЯ ОМИЛЛАРИНИНГ ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ ..... 74

**3. GEOGRAFIYA, EKOLOGIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH** .. 78

OPTIMIZATION OF IRRIGATION SYSTEMS AND ECOLOGICAL ASSESSMENT: A CASE STUDY OF ANDIJAN REGION, WITH A FORECAST TO 2032 ..... 79

LAND DEGRADATION IN UZBEKISTAN, CENTRAL ASIA ..... 94

SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARI IQTISODIY SALOHIYATINI KO‘P O‘LCHAMLI STATISTIK BAHOLASH VA TIPOLOGIYALASH ..... 98

TERRITORIAL POTENTIAL AND ORGANIZATION OF GASTRONOMIC TOURISM DEVELOPMENT IN THE FERGANA TOURIST REGION ..... 104

**4. QISHLOQ XO‘JALIGI, VETERINARIYA VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLI** ..... 111

OPTIMIZATION OF IRRIGATION REGIMES AND ECOLOGICAL ASSESSMENT OF RICE (ORYZA SATIVA L.) CULTIVATION BASED ON WATER CONSUMPTION MEASUREMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN, CENTRAL ASIA, CHINA AND INDONESIA ..... 112

SURINAM UNXO‘RI (*ORYZAEPHILUS SURINAMENSIS* L.) ZARARKUNANDASINING ENTOMOFAGLARI ..... 131

BUXORO VOHASI SUG‘ORILADIGAN VA SHO‘RLANGAN TUPROQLARI SHAROITIDA KUZGI BUG‘DOY NAVLARI KO‘CHAT QALINLIGINING O‘SISH, RIVOJLANISH HAMDA MAHSULDORLIK DARAJASIGA TA’SIRI ..... 135

TURLI TUPROQ NAMLIGI ShAROITIDA QATTIQ BUG‘DOY NAVLARI BARGLARIDAGI UMUMIY SUV MIQDORI DINAMIKASI VA UNING ChIDAMLILIKKA TA’SIRI ..... 144

QATTIQ BUG‘DOY NAVLARINING TAJRIBALAR O‘TKAZISH SHAROITLARI, TUPROQ VA IQLIM XUSUSIYATLARI..... 152

TRICHODERMA AVLODLARINI LABORATORIYA SHAROITIDA KO‘PAYTIRISH VA QISHLOQ XO‘JALIGIDA BIOLOGIK VOSITA SIFATIDA QO‘LLASHNING BIOTEXNOLOGIK ASOSLARI ..... 158

ANOR (*PUNICA GRANATUM* L.) NING SOVUQ STRESSIGA FIZIOLOGIK VA BIOKIMYOVIY MOSLASHUVI ..... 165

KICHIK RYASKA (LEMNA MINOR L.) BIOMASSASINI BEDANALAR RATSIONIDA BIOQO‘SHIMCHA SIFATIDA QO‘LLASHNING O‘SISH-RIVOJLANISHI VA TUXUM MAHSULDORLIGIGA TA’SIRI ..... 170

TEXNIK PISHISH BOSQICHIDAGI ODDIY NA’MATAK (*ROSA CANINA L.*) MEVASIDAN KOMPOT TAYYORLASHNING TURLI TEXNOLOGIK USULLARINI TADQIQ ETISH ..... 178

**5. TIBBIYOT, FARMATSEVTIKA VA JAMOAT SALOMATLIGI** ... 183

RELATIONSHIP BETWEEN SYSTEMIC INFLAMMATORY RESPONSE AND HEMODYNAMIC DISTURBANCES IN CHILDREN WITH SEVERE BURN TOXEMIA ..... 184

SPORTCHI AYOLLARDA MENSTRUAL SIKL FAZALARINING FIZIOLOGIK KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRI ..... 189

EFFECT OF INTENSIFIED STRESS-PROTECTIVE THERAPY ON THE CIRCADIAN RHYTHM OF MEAN ARTERIAL PRESSURE IN CHILDREN OVER 7 YEARS OF AGE WITH SEVERE COMBINED TRAUMATIC BRAIN INJURY ..... 195

SURUNKALI BRUTSELLYOZ BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA YURAK-QON TOMIR TIZIMINING KLINIK VA FUNKSIONAL O‘ZGARISHLARI ..... 199

ТАШҚИ МУҲИТ ОМИЛЛАРИНИНГ ОШҚОЗОН МОРФОЛОГИЯСИГА ТАЪСИРИ ..... 205

МЕЖДУНАРОДНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ДВУСТОРОННЯЯ АКАДЕМИЧЕСКАЯ МОБИЛЬНОСТЬ В КЛИНИЧЕСКОЙ МЕДИЦИНЕ ..... 208

**6. IQTISODIYOT, MENEJMENT, HUQUQ VA TURIZM** ..... 213

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY TAFOVUTLAR VA AGLOMERATSIYA SIYOSATI *(2020–2025 YILLAR BO‘YICHA STATISTIK DIAGNOSTIKA VA HUDUDLARARO INTEGRATSIYA YONDASHUVI)* ..... 214

SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENTGA TAYYORLIKNING TASHKILIY, MADANIY VA BOSHQARUV KO‘RSATKICHLARI TAHLILI ..... 224

HUDUDIY SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINI BAHOLASH: STATISTIK METODIKA VA SSENARIY TAHLILI ..... 238

TEMIR YO‘L SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA’MINLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI ..... 255

TIJORAT BANKLARIDA ANNUITET USULIDA KREDIT TO’LOVLARINI HISOBLASH ALGORITMI VA UNING MATEMATIK TAHLILI ..... 262

OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA IJRO HOKIMIYATI APPARATI TRANSFORMATSIYASI VA MA’MURIY NAZORAT STRUKTURASINING MA’MURIY-HUQUQIY ASOSLARI ..... 268

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI MILLIY REYTINGIDA NATIJALARNI BOSHQARUV QARORLARIGA TRANSFORMATSIYA QILISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH ..... 276

O‘ZBEKISTONDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVI INSTITUTINI JORIY ETISH: DASTLABKI NATIJALAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 284

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNCHILIK HUJJATLARIDA MUALLIFLIK SHARTNOMASI TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN FUQAROVIY-HUQUQIY JAVOBGARLIK MASALASI ..... 295

NODAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARINING ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI ..... 301

TADBIRKORLIK STRUKTURASIDA HUQUQIY NIGILIZMNI BARTARAF ETISH VA IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING MA’MURIY-HUQUQIY DETERMINIZMI ..... 307

KONSTITUTSIYAVIY IJTIMOIY DAVLAT PRINSIPLARI DOIRASIDA UY-JOY DAXLSIZLIGI KAFOLATLARI VA MULKDOR HUQUQLARINI SUD ORQALI PROTEKSIYA QILISH ..... 314

KRIPTO-AKTIVLAR BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI ..... 321

СУДЬЯЛИК КОРПУСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ИНСТИТУЦИОНАЛ МЕХАНИЗМЛАРИ ..... 327

ПОЧТА ХИЗМАТИ СОҲАСИДА МАРКАЗЛАШГАН СОЛИҚ ҲИСОБИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ ВА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ..... 337

**7. TA’LIM, PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA FILOLOGIYA** ..... 345

TALABALARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI ..... 346

IJTIMOIY TARMOQ FOYDALANUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKT KOMPONENTLARINING NAMOYON BO‘LISH DARAJASI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI ..... 353

A2 DARAJADAGI O‘QUVCHILARNINNG LEKSIK KOMPETENSIYASINI INGLIZ TILIDA RIVOJLANTIRISH ILMIY-METODIK MUAMMO SIFATIDA ..... 356

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY FAOLIYAT TURLARINING NAZARIY ASOSLARI ..... 361

THE ROLE OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN FOSTERING PATRIOTIC VALUES AND CIVIC RESPONSIBILITY AMONG STUDENTS ..... 368

THE CONCEPT DEATH IN THE ENGLISH LINGUISTIC WORLD PICTURE: THE APHORISTIC LEVEL ..... 378

A LINGUOCULTUROLOGICAL AND LINGUOPRAGMATIC STUDY OF THE TRANSLATION OF ARTHUR CONAN DOYLE’S WORKS ..... 384

INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI ..... 390

KLINIK LINGVISTIKA TERMINOLOGIYASINING LISONIY XUSUSIYATLARI ..... 395

IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN QULAY MUHIT YARATISHDA FOYDALANILAYOTGAN INKLYUZIVLIK VA INNOVATSION VOSITALAR ..... 401

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUVCHILARNING ILMIY-TEXNIK STARTAP LOYIHALARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 407

TALABALARDA MAS’ULIYAT HISSINING SHAKLLANISHIDA TA’LIM MUHITINING PSIXOLOGIK OMILLARI ..... 413

O‘ZBEK TILINI RAQAMLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI: FILOLOGIK MUAMMOLAR VA AMALIY YECHIMLAR ..... 418

O‘ZBEK TILINI RAQAMLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI: FILOLOGIK MUAMMOLAR VA AMALIY YECHIMLAR ..... 424

SUN’IY INTELLEKT VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TIL RIVOJIDAGI O‘RNI ..... 430

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBAGA ASOSLANGAN METODIK IMKONIYATLARI ..... 432

SAİD AHMED’İN “UFUK” ÜÇLEMESİNDE KULLANILAN DEYİMLERİN SEMANTİĞİ ..... 435

O‘ZBEK NUTQIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ..... 439

SCALAR STRUCTURE AND VERBAL GRADABILITY IN KATHERINE MANSFIELD'S *THE GARDEN PARTY* ..... 444

ЭҲТИМОЛЛАР НАЗАРИЯСИНИ ЎҚИТИШДА ИНФОРМАТИКА АСОСЛАРИ ВА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ ..... 457

ОБРАЗОВАНИЕ ГЛАГОЛОВ С СУФФИКСОМ -ОВА- В РУССКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ СОПОСТАВЛЕНИЕ С КАРАКАЛПАКСКИМ ЯЗЫКОМ ..... 461

**8. IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR, TARIX, FALSAFA VA MADANIYAT** ..... 466

O‘ZBEK YOZUVINING ALIFBO ALMASHINUVLARI VA AVLODLARARO SAVODXONLIK: XX–XXI ASRLARDA YOZUV SIYOSATI, MADANIY XOTIRA VA DIGRAFIYA MUAMMOSI ..... 467

SOVET O‘ZBEKISTONIDA MAKTAB TA’LIMI ORQALI O‘ZBEK–RUS BILINGVIZMINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI: TIL KAPITALI VA IJTIMOIY MOBILLIK MUAMMOSI ..... 477

O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA JANUBIY KAVKAZ YO‘NALISHINING GEOSTRATEGIK AHAMIYATI ..... 485

OILA, TA’LIM TIZIMI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ADOLATPARVAR YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI ROLI ..... 494

FARG‘ONA VILOYATIDA MAHBUSLAR KONTINGENTI VA QAMOQXONA TIZIMI BOSHQARUVI (1867–1917-YILLAR) ..... 501

HAYOT SIKLI (OILAVIY-MAISHIY) MAROSIMLARINING MAZMUNIY XUSUSIYATLARI ..... 506

RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA TALABA-YOSHLARNING SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR ..... 513

NOSIRIDDIN TUSIY ASARLARIDA MIQDOR VA TENGLIK TUSHUNCHASI ..... 521

TURKISTON HUDUDI STATISTIK MANBALARDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH VA TASHIB KETISHGA IXTISOSLASHGAN SANOAT KORXONALAR FAOLIYATI (1880-1917) .. 527

TRANSMILLIY OILALARDA MASOFAVIY MULOQOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING OILA BARQARORLIGIGA TA’SIRI ..... 532

ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ И ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ СОПОСТАВЛЕНИЯ «КУТАДГУ БИЛИГ» И «ПОВЕСТИ ВРЕМЕННЫХ ЛЕТ» ..... 536

ТИПОЛОГИЧЕСКОЕ СХОДСТВО МОТИВОВ МУДРОСТИ И СПРАВЕДЛИВОСТИ В «КУТАДГУ БИЛИГ» И «ПОВЕСТИ ВРЕМЕННЫХ ЛЕТ» ..... 541

# 1. FUNDAMENTAL VA TABIIY FANLAR

# UYQU FIZIOLOGIYASI: UYQU FAZALARI VA ULARNING ORGANIZM FUNKSIYALARINI BOSHQARISHDAGI AHAMIYATI

Jaqsimuratova Gulnura Perdebaevna
*Berdaq Nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu tezisda uyquning inson organizmi hayot faoliyatidagi fiziologik ahamiyati, uyqu va uyg‘oqlik holatlarining boshqarilish mexanizmlari hamda uyquning asosiy fazalari — NREM va REM uyquning fiziologik xususiyatlari yoritiladi. Uyqu vaqtida markaziy nerv tizimi faoliyati, vegetativ funksiyalar, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarida yuz beradigan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, uyquning xotira, o‘rganish, nerv tizimining funksional tiklanishi va organizmning ichki muvozanatini saqlashdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida uyqu fazalarining almashinuvi hamda uyqu yetishmovchiligining organizm funksiyalariga ta’siri tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *uyqu, uyqu fiziologiyasi, NREM uyqu, REM uyqu, uyqu fazalari, sirkadiyalik ritm, uyqu-uyg‘oqlik sikli, markaziy nerv tizimi, xotira, fiziologik jarayonlar.*

***Аннотация:*** *В данной тезисной работе рассматриваются физиологическое значение сна в жизнедеятельности человека, механизмы регуляции сна и бодрствования, а также основные фазы сна — NREM и REM. Анализируются физиологические изменения, происходящие во время сна в центральной нервной системе, вегетативных функциях, сердечно-сосудистой и дыхательной системах. Рассматривается значение сна для процессов памяти и обучения, функционального восстановления нервной системы и поддержания внутреннего равновесия организма.*

*На основе современных научных источников анализируются особенности чередования фаз сна и физиологические последствия недостатка сна.*

***Ключевые слова:*** *сон, физиология сна, NREM-сон, REM-сон, фазы сна, циркадный ритм, цикл сон–бодрствование, центральная нервная система, память, физиологические процессы.*

***Annotation:*** *This thesis examines the physiological significance of sleep in human life, the mechanisms regulating sleep and wakefulness, and the main stages of sleep, including NREM and REM sleep. Physiological changes occurring in the central nervous system, autonomic functions, cardiovascular and respiratory systems during sleep are discussed. Particular attention is given to the role of sleep in memory and learning, functional recovery of the nervous system, and maintenance of the internal balance of the organism. Based on contemporary scientific literature, the alternation of sleep stages and the physiological consequences of insufficient sleep are analyzed.*

***Keywords:*** *sleep, sleep physiology, NREM sleep, REM sleep, sleep stages, circadian rhythm, sleep-wake cycle, central nervous system, memory, physiological processes.*

**Kirish**

Uyqu inson hayotida organizmning foalyati uchun zarur bo‘lgan fiziologik holatlardan biridir. Fiziologiya nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak,uyqu organizmning tashqi muhit bilan foal munosabatlari vaqtincha o‘zgaradigan, biroq markaziy nerv sistemasi va boshqa funktsional sistemalarning foalyati davom etadigan murakkab jarayon hisoblanadi. O.T.Alyaviyaning “ Normal fiziologiya” darsligida inson organizmida kechuvchi funktsiyalarning nerv va gumoral boshqarilishi, fiziologik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan.[1]

So‘ngi yillar mobaynida uyqu fiziologiyasini o‘rganish neyrofiziologiya va tibbiyotning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Uyquning  vaqtini va davomiyligini boshqarishda ikki asosiy mexanizm katta ahamiyatga egadir. Ular;

- Gomeostatsik mexanizm
- Sirkadiyalik tizim

Gomeostatik mexanizm insonning uyg‘oqlik paytida uyquga bo’lgan ehtiyojining ortishini va uyqu vaqtida uning kamayishini taminlaydi.

Sirkadiyalik tizim esa organizmning taxminan 24 soatlik biologik ritmlarini, jumladan uyqu va uyg‘oqlik vaqtlarini muvofiqlashtiradi [2].

Bugungi kuning taqdiqotlari shuni ko‘rsatadi ki,bu ikki jarayon bir -biridan mutloqo mustaqil emasligi,ularning o‘zaro ta’siri uyquning vaqt va tuzilishini shakillantirishi ko‘rsatilgan.

**Uyqu fazalarining fiziologik xususiyatlari**

Zamonaviy polisomnografik fikirlarga ko‘ra, uyqu asosan **NREM** va **REM** bosqichlariga ajratiladi. NREM uyqu o‘z navbatida **N1, N2** va **N3** bosqichlaridan tashkil topadi. Amerika Uyqu Tibbiyoti Akademiyasining uyquni baholash bo‘yicha amaldagi qo‘llanmasida uyqu bosqichlarini standartlashtirilgan mezonlar asosida aniqlash uchun elektroensefalografiya (EEG), elektrookulografiya (EOG) va elektromiografiya (EMG) kabi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi [3].

-N1 bosqichi uyquning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, uyg‘oqlikdan uyquga o‘tish davrini ifodalaydi. Bu bosqichda mushak faoliyati pasaya boshlaydi, ko‘z harakatlari sekinlashadi va elektromiografiya (EEG) faoliyatida o‘zgarishlar kuzatiladi.

-N2 bosqichi nisbatan barqaror uyqu holati hisoblanadi. Unda uyqu shpindellari va K-komplekslar kabi EEG belgilarining paydo bo‘lishi ushbu bosqichni aniqlashda muhim ahamiyatga ega [3]. N2 bosqichida tashqi ta’sirlarga javob berish darajasi pasayadi.

-N3 bosqichi chuqur, sekin to‘lqinli uyqu bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda EEGda sekin to‘lqinli faollik ustun bo‘ladi. N3 uyqu organizmning funksional tiklanish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

**REM uyqu** esa tez ko‘z harakatlari, nisbatan past mushak tonusi va o‘ziga xos EEG faolligi bilan tavsiflanadi. REM davrida miya faoliyati ayrim jihatlari bo‘yicha uyg‘oqlik holatiga yaqinlashishi mumkin. AASM tasnifida REM uyqu alohida “R” bosqichi sifatida baholanadi [3].

**Uyqu va organizm funktsiyalarining boshqarilishi**

Uyqu vaqtida organizmning ko‘plab fiziologik funksiyalarida bosqichga bog‘liq o‘zgarishlar yuz beradi. Yurak urish chastotasi, arterial bosim, nafas olish faoliyati va vegetativ nerv tizimi faolligi uyquning turli bosqichlarida bir xil bo‘lmaydi. Shu sababli uyquni oddiy dam olish holati sifatida baholash yetarli emas; u organizmning ichki muvozanatini saqlashda faol ishtirok etuvchi fiziologik jarayondir.

Uyqu vaqtida markaziy nerv tizimining faoliyati ham o‘zgaradi. Miya faoliyatidagi ushbu o‘zgarishlar EEG orqali qayd etilishi mumkin.

NREM uyquning chuqurlashishi bilan sekin to‘lqinli faollik kuchayadi.

REM davrida esa EEG faoliyati boshqa xususiyatni aks etadi[3]. Uyqu va sirkadiyalik ritmlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ham muhimdir. Sirkadiyalik tizim nafaqat uyqu vaqtini, balki organizmdagi boshqa biologik ritmlarni ham muvofiqlashtiradi. Zamonaviy sharhlarda uyquning buzilishi periferik

to‘qimalardagi ayrim sirkadiyalik jarayonlarning ritmiga ham ta’sir qilishi mumkinligi ko‘rsatilgan [2].

**UYQUNING XOTIRA VA O‘RGANISHDAGI AHAMIYATI**

Uyquning muhim funksiyalaridan biri kognitiv jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashdir. Xususan, uyqu xotira jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq.

Uyqu vaqtida o‘rganilgan ma’lumotlarning qayta ishlanishi va xotirada mustahkamlanishiga yordam beruvchi neyrofiziologik jarayonlar yuz beradi. NREM va REM uyquning xotira jarayonlariga qo‘shadigan hissasi bir xil emas. NREM uyqu, ayniqsa sekin to‘lqinli uyqu, deklarativ xotiraning mustahkamlanishi bilan bog‘liq jarayonlarda muhim rol o‘ynashi mumkin.

REM uyqu esa xotiralarning qayta ishlanishi va turli ma’lumotlarning integratsiyasi bilan bog‘liq jarayonlarda ishtirok etadi [4]. Shu sababli yetarli va sifatli uyqu o‘quv faoliyati, diqqat, xotira va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish uchun muhim fiziologik shartlardan biri hisoblanadi.

**UYQU YETISHMOVCHILIGINING FIZIOLOGIK AHAMIYATI**

Uyquning davomiyligi yoki sifatining muntazam buzilishi markaziy nerv tizimi va boshqa fiziologik tizimlarning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Uyqu yetishmovchiligi diqqat va kognitiv faoliyatning pasayishi, kunduzgi uyquchanlik, kayfiyat o‘zgarishlari va fiziologik ritmlarning buzilishi bilan bog‘lanadi.

Uyquning qisqarishi kunduzgi uyquchanlikni oshirishi, diqqatni uzoq vaqt saqlash qobiliyatini pasaytirishi va reaksiya vaqtini uzaytirishi mumkin. 2024-yilda o‘tkazilgan tizimli ko‘rib chiqish va meta-tahlilda bir kecha davomida uyquni 2–6 soatgacha cheklash uyquchanlikning ortishi, davomli diqqatning pasayishi, reaksiya vaqtining uzayishi va diqqatdagi uzilishlarning ko‘payishi bilan bog‘langan[6].

Shuningdek, uyquning sirkadiyalik ritmlar bilan chambarchas bog‘liqligi sababli uyqu vaqtining muntazam o‘zgarib turishi organizmning biologik ritmlariga ta’sir qilishi mumkin [2].

Bundan tashqari uyqu davomiyligining kamayishi ovqatlanish xulq-atvori va energiya balansiga ta’sir qilishi mumkin. Biroq bu jarayon faqat ishtahani boshqaruvchi gormonlar bilan izohlanmaydi. 2026-yildagi tadqiqotlar shunday sharhlarni beradi ki, uyqu qisqarishi natijasida energiya iste’moli ko‘payishi mumkinligi, ammo ishtaha va ovqatlanish xohishidagi o‘zgarishlar turli tadqiqotlarda bir xil emasligi qayd etilgan. Shuning uchun uyqu yetishmovchiligi va

ovqatlanish o‘rtasidagi mexanizmni kompleks fiziologik jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. [5]

Demak, uyquning yetarli davomiyligi bilan bir qatorda uning muntazamligi va fiziologik tuzilishi ham muhimdir.

**XULOSA**

Uyqu inson organizmining normal faoliyati uchun zarur bo‘lgan murakkab fiziologik jarayondir. Uning tuzilishi NREM va REM fazalarining muntazam almashinuvi bilan tavsiflanadi. NREM uyqu N1, N2 va N3 bosqichlarini o‘z ichiga olib, har bir bosqich o‘ziga xos neyrofiziologik belgilar bilan farqlanadi.

REM uyqu esa tez ko‘z harakatlari, mushak tonusining pasayishi va o‘ziga xos miya faoliyati bilan ajralib turadi. Uyquning asosiy vazifalaridan biri organizmning funksional muvozanatini saqlash, markaziy nerv tizimi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xotira va o‘rganish jarayonlarida ishtirok etishdan iborat. Uyqu gomeostatik va sirkadiyalik mexanizmlarning o‘zaro ta’siri asosida boshqariladi. Shuning uchun uyqu fiziologiyasini o‘rganish insonning normal hayot faoliyati, ta’lim jarayoni va sog‘lom turmush tarzining fiziologik asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alyaviya O. T., Qodirov Sh. Q. va boshq. Normal fiziologiya. — Toshkent, 2007. — 382 b.
2. Hall J. E., Hall M. E. Guyton and Hall Textbook of Medical Physiology. — Elsevier.
3. American Academy of Sleep Medicine. The AASM Manual for the Scoring of Sleep and Associated Events. — Version 3.0. — 2023.
4. Meng W. W., Shao Q., Shao W. W., Li X. H. Research progress on the relationship between neural synchronization activity and memory consolidation during non-rapid eye movement sleep // Acta Physiologica Sinica. — 2024. — Vol. 76, № 1. — P. 119–127.
5. Tan S. Y., Tjahjono I. E., Feyesa I., Hettiarachchi J., Kim N., Pennycuff R., Qawasmeh A., Tucker R. M. Does Sleep Curtailment Stimulate Appetite, Motivation to Eat and Dietary Intake in Humans? A Narrative Synthesis of Evidence and Considerations for Future Studies // Journal of Sleep Research. — 2026. — e70358. DOI: 10.1111/jsr.70358.
6. Wüst L. N., Capdevila N. C., Lane L. T., Reichert C. F., Lasauskaite R. Impact of one night of sleep restriction on sleepiness and cognitive function: A

systematic review and meta-analysis // Sleep Medicine Reviews. — 2024. — Vol. 76. — 101940. DOI: 10.1016/j.smrv.2024.101940.

# 2. MUHANDISLIK, TEXNOLOGIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR

# TAVSIYA KONVEYERLARINI O‘RQ-547-SON QONUN TALABLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA OPTIMAL JOYLASHTIRISH

Abdullaev Suxrobjon
*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti*
sukhrobabdullaevweb@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Ushbu tezisda O‘zbekistonda shaxsga doir ma’lumotlarni mahalliylashtirish talablarini hisobga olgan holda elektron tijorat tavsiya konveyeri bosqichlarini o‘z data-markazi, milliy va xorijiy bulutlar o‘rtasida optimal joylashtirish usuli taklif etiladi. Ma’lumotlarning huquqiy toifasi ikkilik qonuniylik maskasi orqali cheklov sifatida ifodalanadi. Chiziqli konveyer uchun masala cheklovli eng qisqa yo‘l ko‘rinishida tuzilib, dinamik dasturlash bilan aniq yechiladi. Sakkiz bosqichli, uch qatlamli misolda qat’iy lokalizatsiya xarajatni 87,3 foizga, 2026-yilgi shartli uzatish rejimi 70,6 foizga oshirdi. Barcha bosqichlarni mahalliy serverlarda bajarish optimallashtirilgan rejadan 18,6 foiz qimmat bo‘ldi. Model qonunchilik o‘zgarganda faqat maskani yangilab, joylashtirish rejasini qayta hisoblash imkonini beradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *tavsiya tizimlari, ma’lumotlarni mahalliylashtirish, shaxsga doir ma’lumotlar, huquqiy muvofiqlik, bulutli hisoblash, dinamik dasturlash, optimal joylashtirish.*

***Abstract.*** *This paper proposes a method for optimally placing the stages of an e-commerce recommendation pipeline across an on-premises data center, a national cloud, and a foreign cloud under Uzbekistan's personal-data localization requirements. Data categories are represented as constraints through a binary legality mask. For a linear pipeline, the placement problem is formulated as a constrained shortest-path problem and solved exactly by dynamic programming. In an eight-stage, three-layer case study, strict localization increased cost by 87.3%, while the 2026 conditional-transfer regime increased it by 70.6%. An all-local deployment was 18.6% more expensive than the optimized compliant plan. When legislation changes, the mask can be updated and the placement plan recomputed.*

***Keywords:*** *recommendation systems, data localization, personal data, legal compliance, cloud computing, dynamic programming, optimal placement.*

**Dolzarbligi.** Elektron tijorat platformasining tavsiya tizimi bir necha bosqichdan iborat konveyer: ma’lumotlarni qabul qilish, belgilarni hisoblash, nomzodlarni tanlash, dastlabki va asosiy reyting, qayta reyting, jurnallash va tahlil. Har bir bosqich qayerdadir bajarilishi kerak - o‘z data-markazida, milliy bulutda yoki xorijiy bulutda. Muhandislik adabiyotida bu tanlov faqat xarajat masalasi sifatida ko‘riladi. O‘zbekistonda esa 2021-yildan beri u huquqiy masala hamdir.

“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonunning $27^1$-moddasi 2021-yil 14-yanvardagi O‘RQ-666-son Qonun bilan kiritilgan va fuqarolarning shaxsga doir ma’lumotlarini respublika hududida joylashgan texnik vositalarda saqlashni talab qilgan [1; 2]. 2026-yil 26-martdagi O‘RQ-1125-son Qonun bu moddani qayta tahrir qildi: so‘zsiz lokalizatsiya endi faqat biometrik, genetik ma’lumotlar va telekommunikatsiya operatorlari foydalanuvchilarining ma’lumotlariga tatbiq etiladi, qolgan toifalar esa adekvat himoya, standart shartnoma bandlari yoki xalqaro standartlarga rioya qilish sharti bilan chet elga uzatilishi mumkin [3]. Adekvat davlatlar ro‘yxati Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-iyuldagi 415-son qarori bilan tasdiqlandi [4]. Demak, besh yil ichida bitta platforma uch xil rejimda ishladi: cheklovsiz, qat’iy lokalizatsiya va shartli uzatish.

Muammo shundaki, federativ tavsiya tizimlari bo‘yicha ilmiy ishlarda [5; 6] “maxfiylik” faqat texnik mexanizm - shifrlash yoki differensial maxfiylik - ma’nosida qo‘llaniladi. Ma’lumotning huquqiy toifasi birorta formal modelda kirish parametri sifatida qatnashmaydi. Natijada qonun o‘zgargan har safar platforma arxitekturasi qo‘lda, tig‘iz muddatda qayta loyihalanadi.

**Tadqiqot maqsadi** - qayta ishlanayotgan ma’lumotning huquqiy toifasini joylashtirish masalasining tipli cheklovi sifatida formallashtirish, shunda huquqiy rejim o‘zgarishi qayta loyihalash emas, oddiy qayta hisoblash bilan hal bo‘ladi.

**Taklif etilayotgan model.** Konveyer $\Pi = (\pi_1, \dots, \pi_N)$ bosqichlardan, infratuzilma esa $L = \{\ell_1, \dots, \ell_{|L|}\}$ qatlamlardan iborat bo‘lsin. Har bir bosqichga huquqiy sinf beriladi:

$$\rho(\pi_i) \in \{\text{OPEN},\ \text{CONDITIONAL},\ \text{LOCAL}\}. \quad (1)$$

LOCAL - so‘zsiz mamlakatda qolishi shart bo‘lgan ma’lumotlar, CONDITIONAL - kafolatlar bilan uzatilishi mumkin bo‘lganlari, OPEN - shaxsga

doir ma’lumotlar rejimidan tashqaridagi agregat va anonimlashtirilgan ma’lumotlar. Amaldagi qonun qonuniylik maskasi $F \in \{0,1\}^{N\times|L|}$ ko‘rinishida yoziladi: $F_{i\ell} = 1$ faqat $i$-bosqichni $\ell$-qatlamda bajarish qonuniy bo‘lganda. Maska - kod emas, ma’lumot; qonun o‘zgarsa, faqat maska yangilanadi va reja qayta hisoblanadi. Har bir maska elementi aniq qonun normasiga bog‘langani uchun muvofiqlik auditi qarorlarni tiklash emas, yozuvlarni tekshirishga aylanadi.

$c_{i\ell}$ - $i$-bosqichni $\ell$-qatlamda bajarish narxi, $m_{\ell\ell'}$ - oqimni $\ell$-qatlamdan $\ell'$-qatlamga uzatish narxi bo‘lsin. Masala quyidagicha qo‘yiladi:

$$C(\sigma) = \sum_{i=1}^{N} c_{i\,\sigma(i)} + \sum_{i=1}^{N-1} m_{\sigma(i)\,\sigma(i+1)} \to \min, \qquad F_{i\,\sigma(i)} = 1 \ \ \forall i. \tag{2}$$

Konveyer chiziqli bo‘lgani uchun bu cheklovli eng qisqa yo‘l masalasi bo‘lib, Bellman rekursiyasi orqali dinamik dasturlash bilan aniq yechiladi:

$$D_{i\ell} = c_{i\ell} + \min_{\ell'}\left(D_{i-1,\ell'} + m_{\ell',\ell}\right), \qquad F_{i\ell} = 1. \tag{3}$$

Algoritm murakkabligi $O(N|L|^2)$ vaqt va $O(N|L|)$ xotira [7].

**Natijalar.** Model sakkiz bosqich va uch qatlamli (L1 - o‘z data-markazi, L2 - milliy bulut, L3 - xorijiy bulut) to‘liq berilgan misolda sinovdan o‘tkazildi. Hisoblash birligi narxlari mos ravishda 1,00; 0,68 va 0,45, qatlamlararo uzatish narxlari 0,20–0,45 oralig‘ida olindi. Dinamik dasturlash natijasi $3^8 = 6\,561$ ta taqsimotni to‘liq saralash bilan tekshirildi va har uchala rejimda bir xil optimum olindi; bunda ko‘pi bilan 63 ta taqqoslash yetarli bo‘ldi.

**1-jadval.** Huquqiy rejimlar bo‘yicha optimal joylashtirish narxi (nisbiy birliklarda)

| Rejim | Umumiy narx | Bazaga nisbatan qo‘shimcha xarajat |
|---|---|---|
| Cheklovsiz (bazaviy) | 3,780 | - |
| Qat’iy lokalizatsiya (2021) | 7,080 | +87,3% |
| Shartli rejim (2026) | 6,450 | +70,6% |
| “Hammasi o‘z serverimizda” (optimallashtirilmagan) | 8,400 | +122,2% |

Olingan natijalardan uchta xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, muvofiqlik narxini aniq son bilan ifodalash mumkin: qat’iy lokalizatsiya oqim tannarxini 87,3% ga, 2026-yilgi shartli rejim esa 70,6% ga oshiradi. Ikkinchidan, “hammasini o‘z serverimizga ko‘chiramiz” degan odatiy javob optimal muvofiq rejadan 18,6% qimmat: optimallashtiruvchi hisoblashga og‘ir o‘rta bosqichlarni milliy bulutga chiqarib, qonun doirasida qolgan holda tejaydi. Uchinchidan, sezgirlik tahlili chegaraviy nuqtani ko‘rsatdi: uzatish narxi bazaviydan 2,25 barobar oshganda xorijiy bulutdan foydalanish o‘zini oqlamay qo‘yadi va qonuniy eksport ruxsati amalda qiymatini yo‘qotadi.

**Xulosa.** Ma’lumotlarni lokalizatsiya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik tizim arxitekturasiga masshtab yoki kechikish kabi kuchli ta’sir qiladi. Taklif etilgan yondashuvda asosiy to‘siq algoritmik emas, balki ifodalash bilan bog‘liq: yetishmayotgan narsa - hal qiluvchi emas, maska. Platformalarga qonuniylik maskasini yuristlar va arxitektorlar birgalikda yuritadigan versiyalangan konfiguratsiya sifatida saqlash tavsiya etiladi; shunda navbatdagi qonun o‘zgarishi loyiha emas, qayta hisoblash bo‘ladi. Tartibga soluvchi organlar esa qonun loyihasiga 1-jadvaldagi kabi xarajat bahosini ilova qilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlar tarmoqlanuvchi oqimlarga, rejalar orasidagi migratsiya xarajatiga va federativ yangilanish oqimiga bag‘ishlanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonuni, 02.07.2019. - URL: https://lex.uz/docs/4396419

2. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-666-son Qonuni, 14.01.2021. - URL: https://lex.uz/docs/5220725

3. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartish va qo‘shimcha kiritish haqida”gi O‘RQ-1125-son Qonuni, 26.03.2026. - URL: https://lex.uz/docs/8104580

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 415-son qarori, 29.07.2026. - URL: https://lex.uz/uz/docs/8371371

5. Chai D., Wang L., Chen K., Yang Q. Secure federated matrix factorization // IEEE Intelligent Systems. - 2021. - Vol. 36, No. 5. - P. 11–20. - DOI: 10.1109/MIS.2020.3014880

6. Zhang C., Long G., Zhou T. et al. Dual personalization on federated recommendation // Proceedings of IJCAI-23. - 2023. - P. 4558–4566. - DOI: 10.24963/ijcai.2023/507

7. Bellman R. Dynamic Programming. - Princeton: Princeton University Press, 1957.

# REAL VAQT REJIMIDAGI VIDEOANIQLASH TIZIMLARIDA YOLG‘ON SIGNALLARNI KAMAYTIRISHDA KO‘P MODALLI VA VAQT BO‘YICHA XATTI-HARAKATLAR TAHLILIDAN FOYDALANISH

Mingto‘rayeva Dildora Hayitali qizi

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada real vaqt rejimidagi videoaniqlash tizimlarida inson xatti-harakatlarini tahlil qilish va yolg‘on signallarni kamaytirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda yuz ifodasi, tana holati va harakat kabi belgilarni vaqt bo‘yicha modellashtirish hamda ko‘p modalli birlashtirishga asoslangan yondashuv taklif etiladi. Bazaviy, vaqt bo‘yicha, ko‘p modalli va birlashtirilgan variantlarni taqqoslash uchun tajriba sxemasi ishlab chiqiladi. Baholashda aniqlik, to‘liqlik, F1-mezon va yolg‘on ijobiy aniqlash darajasidan foydalanish nazarda tutiladi. Yondashuvning samaradorligi oldindan emas, tajriba natijalari asosida baholanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *sun’iy intellekt, real vaqt rejimidagi videoaniqlash, xatti-harakatlar tahlili, vaqt bo‘yicha tahlil, ko‘p modalli tahlil, kompyuter ko‘rishi, inson harakatlarini tanib olish, yolg‘on signallar.*

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются анализ поведения человека и снижение ложных срабатываний в системах видеоаналитики реального времени. Предлагается подход, основанный на временном моделировании и мультимодальном объединении выражения лица, положения тела и движения. Разрабатывается схема сравнения базового, временного, мультимодального и объединённого подходов. Для оценки используются точность, полнота, F1-мера и уровень ложных положительных срабатываний. Эффективность подхода определяется по результатам эксперимента.*

***Ключевые слова:*** *искусственный интеллект, видеоаналитика в реальном времени, анализ поведения, временной анализ, мультимодальный анализ, компьютерное зрение, распознавание действий человека, ложные срабатывания.*

***Abstract.*** *This article examines human behavior analysis and false-alarm reduction in real-time video detection systems. The study proposes temporal modeling and multimodal integration of facial expression, body posture, and movement. Baseline, temporal, multimodal, and combined approaches are compared in the planned experiment using accuracy, recall, F1-score, and false-positive rate. The effect on false alarms is treated as a testable hypothesis and should be established through experiments.*

***Keywords:*** *artificial intelligence, real-time video detection, behavioral analysis, temporal analysis, multimodal analysis, computer vision, human action recognition, false alarms.*

## 1. KIRISH

Sun’iy intellekt va kompyuter ko‘rishi (Computer Vision) texnologiyalarining rivojlanishi real vaqt rejimida videoma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Videoaniqlash tizimlari xavfsizlik va inson xatti-harakatlarini tahlil qilish kabi vazifalarda qo‘llanilmoqda [1–4].

Inson xatti-harakatini aniqlashda yuz ifodasi, tana holati va harakat dinamikasi muhim belgilar hisoblanadi. Shu bilan birga, bir xil holat turli vaziyatlarda turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Bitta kadr xatti-harakatning ayni paytdagi ko‘rinishini beradi, lekin uning oldingi va keyingi rivojlanishini aks ettirmaydi. Shu sababli vaqt bo‘yicha modellashtirish va ketma-ket kadrlar orasidagi bog‘liqlikni hisobga olish muhimdir [2,5].

Bundan tashqar turli xatti-harakat belgilarining o‘zaro to‘ldiruvchanligidir. Yuz ifodasi, tana holati va harakatni birgalikda tahlil qilish kuzatilayotgan holatning kengroq ifodasini berishi mumkin. Biroq ko‘p modalli ma’lumotlar individual farqlar, shovqin, tasvir sifati va modalitetlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik sababli qo‘shimcha murakkablik ham keltirib chiqaradi [3].

Real vaqt tizimida ayniqsa yolg‘on signallar muammosi muhim hisoblandi. Muhim bo‘lmagan holatni muhim signal deb noto‘g‘ri aniqlash ortiqcha ogohlantirishlarni va xulosalarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun tadqiqotning maqsadi vaqt bo‘yicha va ko‘p modalli xatti-harakat belgilaridan foydalanishning yolg‘on signallarni kamaytirishga ta’sirini o‘rganish va uni tajriba orqali baholashdan iborat.

## 2. MAVZUGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

2.1. Xatti-harakat va video tahlili

Mavjud tadqiqotlarda inson holatini aniqlash uchun yuz ifodasi, tana holati, harakat, audio, video va boshqa xulq-atvor ma’lumotlaridan foydalanilgan. Chuqur o‘rganish (Deep learning) modellari vizual belgilarni avtomatik ajratish imkonini beradi. Kompyuter ko‘rishiga asoslangan sharhlarda o‘raluvchi neyron tarmoqlar, hududga asoslangan tarmoqlar (Region-based Networks - R-CNN), e’tibor mexanizmlari (Attention Mechanisms) va Vision Transformerlar kabi usullar qo‘llangani ko‘rsatilgan [2].

2.2. Vaqt va ko‘p modallilik

Video ma’lumotining ketma-ket kelishi sababli xatti-harakatni tasniflash bilan birga uning vaqt bo‘yicha boshlanishi, davomiyligi va rivojlanishini ifodalash zarur. Temporal Action Detection bo‘yicha sharhlar videodagi harakatning vaqt chegaralarini aniqlash va chuqur o‘rganish modellaridan foydalanish masalasini alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi [5]. Ko‘p modalli yondashuv esa yuz, tana va harakat kabi o‘zaro to‘ldiruvchi belgilarni birlashtirishga imkon beradi. Multimodal ruhiy holatni aniqlash bo‘yicha sistematik sharh turli modalitetlar o‘rtasidagi munosabatlar individual xususiyatlarga qarab o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatgan [3].

2.3. Ilmiy bo‘shliq

Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar individual belgilar va alohida modalitetlarni tahlil qilish bo‘yicha ko‘plab yondashuvlarni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, real vaqt sharoitida vaqt bo‘yicha va ko‘p modalli axborotni birlashtirish, tabiiy muhitdagi o‘zgarishlar va noto‘g‘ri ijobiy natijalarni nazorat qilish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda [1–4]. Shuning uchun ushbu maqolada temporal va multimodal belgilarni birgalikda qo‘llashning yolg‘on signallarga ta’siri asosiy tekshiriladigan masala sifatida belgilanadi.

## 3. TAKLIF ETILAYOTGAN YONDASHUV

Taklif etilayotgan yondashuvning asosiy g‘oyasi alohida kadr yoki yagona belgi bilan cheklanmasdan, yuz ifodasi, tana holati va harakatni vaqt davomida kuzatish va ularni yagona qaror jarayonida birlashtirishdan iborat. Tizimning umumiy ketma-ketligi: videokirish → insonni aniqlash → xatti-harakat belgilarini ajratish → vaqt bo‘yicha modellashtirish → ko‘p modalli birlashtirish → xatti-harakatni aniqlash → ishonchlilikni baholash → yakuniy qaror.

3.1. Belgilarni ajratish va vaqt bo‘yicha ifodalash

Yuz ifodasi, tana holati va harakat dinamikasi turli, ammo o‘zaro to‘ldiruvchi axborotni beradi. Ushbu belgilar ketma-ket kadrlar bo‘yicha yig‘ilib, xatti-harakatning vaqt davomida qanday o‘zgarayotganini ifodalovchi ketma-ketlikka aylantiriladi. Shunday qilib, tizim insonning faqat joriy holatini emas, balki harakatlar dinamikasini ham baholaydi [5].

3.2. Ko‘p modalli birlashtirish va qaror

Vaqt bo‘yicha shakllantirilgan yuz, tana va harakat belgilarini birgalikda tahlil qilish bitta modalitetdagi noaniqlikni boshqa modalitetdagi axborot bilan to‘ldirish imkonini beradi. Biroq ko‘p modalli birlashtirishda ma’lumotlar sifati, shovqin va individual farqlar hisobga olinishi kerak [3]. Yakuniy qarordan oldin xatti-harakatning vaqt bo‘yicha izchilligi va aniqlash ishonchliligi baholanadi. Yolg‘on signalni kamaytirish mexanizmi aynan shu bosqichda tekshiriladi; qaysi chegara yoki birlashtirish strategiyasi samaraliroq ekanligi tajribada aniqlanadi.

## 4. TAJRIBA DIZAYNI VA BAHOLASH

Taklif etilayotgan yondashuvni tekshirish uchun bir xil ma’lumotlar va sharoitlarda to‘rtta konfiguratsiyani taqqoslash nazarda tutiladi. Birinchi variant bazaviy, bitta kadr yoki bitta asosiy belgiga tayangan yondashuvni; ikkinchi variant vaqt bo‘yicha axborotni; uchinchi variant ko‘p modalli axborotni; to‘rtinchi variant esa vaqt bo‘yicha va ko‘p modalli axborotning birlashtirilgan shaklini ifodalaydi.

| Model | Foydalaniladigan axborot |
|---|---|
| Bazaviy | Bitta kadr yoki bitta asosiy belgi |
| Vaqt bo‘yicha | Ketma-ket kadrlar va vaqt o‘zgarishi |
| Ko‘p modalli | Yuz + tana holati + harakat |
| Taklif etilayotgan | Vaqt bo‘yicha + ko‘p modalli |

Ma’lumotlar to‘plami ketma-ket videokadrlardan tashkil topgan, inson xatti-harakatlarini aks ettiradigan va real vaqt tahliliga yaqin vaziyatlarni ifodalaydigan manbalardan tanlanadi. Yakuniy tanlov belgilash sifati, tadqiqot savoliga moslik va foydalanish imkoniyatlari asosida amalga oshiriladi. Dataset nomi tajriba uchun aniq manba tasdiqlangandan keyin kiritiladi.

4.1. Baholash ko‘rsatkichlari

Asosiy ko‘rsatkichlar aniqlik, to‘liqlik, F1-mezon va yolg‘on ijobiy aniqlash darajasidan iborat. Aniqlik model signal deb belgilagan holatlarning qanchasi to‘g‘ri ekanini, to‘liqlik esa mavjud haqiqiy signallarning qanchasi aniqlanganini

ko‘rsatadi. F1-mezon ularni yagona ko‘rsatkichda birlashtiradi: F1 = 2 × Precision × Recall / (Precision + Recall). Yolg‘on ijobiy aniqlash darajasi esa aslida signal bo‘lmagan holatlarning qanchasi signal sifatida noto‘g‘ri qayd etilganini ko‘rsatadi. Real vaqt uchun qayta ishlash tezligi va soniyasiga qayta ishlanadigan kadrlar soni ham qo‘shimcha baholanadi.

## 5. MUHOKAMA

Bundan tashqari, tizim tabiiy muhitda yoritish, kamera holati, to‘silishlar, individual farqlar va tasvir sifati kabi omillar ta’sirida ishlaydi. Avvalgi sistematik sharhlar real vaqt sharoitlari, individual farqlar va metodologik standartlashtirish muammolarini ham qayd etgan [1–4]. Shu sababli baholashda faqat F1-mezon emas, balki yolg‘on ijobiy natijalar va hisoblash samaradorligi ham birgalikda ko‘rib chiqilishi zarur.

## 6. XULOSA

Mazkur maqolada real vaqt rejimidagi videoaniqlash tizimlarida yolg‘on signallarni kamaytirish uchun vaqt bo‘yicha va ko‘p modalli xatti-harakatlar tahliliga asoslangan yondashuv taklif etildi. Yondashuv yuz ifodasi, tana holati va harakat belgilarini vaqt davomida modellashtirish va birlashtirishni nazarda tutadi. Bazaviy, vaqt bo‘yicha, ko‘p modalli va birlashtirilgan konfiguratsiyalarni taqqoslash uchun tajriba dizayni ishlab chiqildi. Natijalar tajriba orqali aniqlanadi va ushbu yo‘nalish kelgusida sun’iy intellekt asosidagi real vaqt videoaniqlash algoritmlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Razavi M., Ziyadegan S., Mahmoudzadeh A. et al. Machine Learning, Deep Learning, and Data Preprocessing Techniques for Detecting, Predicting, and Monitoring Stress and Stress-Related Mental Disorders: Scoping Review // JMIR Mental Health. — 2024. — Vol. 11. — e53714.

2. Pereira R., Mendes C., Ribeiro J. et al. Systematic Review of Emotion Detection with Computer Vision and Deep Learning // Sensors. — 2024. — Vol. 24, № 11. — 3484.

3. Khoo L. S., Lim M. K., Chong C. Y., McNaney R. Machine Learning for Multimodal Mental Health Detection: A Systematic Review of Passive Sensing Approaches // Sensors. — 2024. — Vol. 24, № 2. — 348.

4. Chiharova M., Amarti K., van Breda W. et al. Use of Machine Learning Algorithms Based on Text, Audio, and Video Data in the Prediction of Anxiety and

Posttraumatic Stress in General and Clinical Populations: A Systematic Review // Biological Psychiatry. — 2024. — Vol. 96, № 7. — P. 519–531.

5. Hu K., Shen C., Wang T. et al. Overview of Temporal Action Detection Based on Deep Learning // Artificial Intelligence Review. — 2024. — Vol. 57. — 26.

# QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI QURILMALARINI XARID QILISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH

Ochilov Abdujabbor Akramovich
*Energetika vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti*
abdujabborochilov1973@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan, quyosh fotoelektrik panellari, shamol generatorlari, invertorlar, akkumulyator tizimlari va boshqa energetik qurilmalarni xarid qilish jarayonlarini raqamlashtirishning nazariy va amaliy masalalari tadqiq etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *qayta tiklanuvchi energiya, yashil energiya, quyosh paneli, shamol energetikasi, yashil xarid, elektron davlat xaridlari, elektron katalog, sun’iy intellekt.*

***Аннотация.*** *В данной статье исследуются теоретические и практические вопросы цифровизации процессов закупки оборудования на основе возобновляемых источников энергии в Узбекистане, в частности солнечных фотоэлектрических панелей, ветрогенераторов, инверторов, аккумуляторных систем и других энергетических установок. Рассматриваются существующие подходы к цифровой трансформации механизмов закупок, интеграции электронных платформ, а также роль современных цифровых технологий в повышении прозрачности, эффективности и доступности закупок оборудования возобновляемой энергетики.*

***Ключевые слова:*** *возобновляемая энергетика, зелёная энергия, солнечная фотоэлектрическая панель, ветроэнергетика, зелёные закупки, электронные государственные закупки, электронный каталог, искусственный интеллект.*

***Abstract.*** *This article examines the theoretical and practical aspects of digitalizing the procurement processes of renewable energy technologies in Uzbekistan, particularly solar photovoltaic panels, wind generators, inverters, battery storage systems, and other energy equipment. The study analyzes existing approaches to the digital transformation of procurement mechanisms, the*

*integration of electronic platforms, and the role of modern digital technologies in improving transparency, efficiency, and accessibility of renewable energy equipment procurement.*

***Keywords:*** *renewable energy, green energy, solar photovoltaic panel, wind energy, green procurement, electronic public procurement, electronic catalog, artificial intelligence.*

**Kirish**

O‘zbekistonda quyosh energetikasi salohiyati juda yuqori bo‘lib, Xalqaro energetika agentligi baholashiga ko‘ra, quyosh energetikasining texnik salohiyati **7 411 Petajoulni** tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich mamlakatning joriy birlamchi energiya iste’molidan bir necha baravar yuqori hisoblanadi.

Jahonda energiya resurslariga bo‘lgan talabning o‘sishi, iqlim o‘zgarishi va uglerod chiqindilarini qisqartirish zarurati qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni energetika siyosatidagi asosiy yo‘nalishlardan biriga aylantirmoqda. **2025 yil**da dunyoda qayta tiklanuvchi elektr energetikasi quvvatlarining yillik qo‘shimchasi **800 GVt**ga yetgan, quyosh fotoelektrik energetikasi yangi qayta tiklanuvchi quvvatlarning **75 foiz**dan ortig‘ini tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmonida umumiy quvvati **4,5 GVt** bo‘lgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyasini ishga tushirish, quvvati **785 megavatt** bo‘lgan quyosh panellarini o‘rnatish, quvvati **225 megavatt** bo‘lgan gidroelektr stansiyalarini barpo etish orqali jami qayta tiklanuvi energiya manbalari ulushi elektr energiyasi ishlab chiqarishda **26 foiz**ga va jami generatsiya quvvatlari tarkibidagi ulushi **40 foiz**ga yetkazish maqsadi belgilangan.

Bu maqsadga erishish faqat yangi elektr stansiyalarini qurish bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayonda quyosh panellari, invertorlar, akkumulyator batareyalari, kontrollerlar, shamol turbinalari, transformatorlar va boshqa qurilmalarni xarid qilish hajmi ham keskin oshadi. Bu jarayonda xaridlarning shaffofligi, texnik talablarning standartlashtirilishi, mahsulot sifatini baholash, yetkazib beruvchilarni tanlash, kafolat va servis xizmatlarini monitoring qilish hamda energetika qurilmalarini xarid qilish jarayonini raqamlashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism**

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning maqsadi qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari xaridiga kompensatsiya va subsidiyalar ajratish jarayonlarini raqamlashtirishning ahamiyatini baholash hamda ushbu mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil ob’ekti sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini davlat va korporativ xarid qilish jarayonlari hamda Janubiy Koreya, Estoniya va O‘zbekiston davlatlarining qayta tiklanuvchi energiya sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tanlandi.

Tadqiqot predmeti – mazkur jarayonlarni raqamlashtirish mexanizmlari, axborot tizimlari integratsiyasi, elektron katalog, texnik spesifikatsiya, “yashil energetika”
va raqamli monitoring mexanizmlaridir.

Tadqiqotning axborot manbalari sifatida IEA (International Energy Agency), IRENA (International Renewable Energy Agency), World Bank, OECD, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi rasmiy manbalar, Energetika vazirligi, Davlat statistika va Davlat soliq qo‘mitalari ma’lumotlari, ilmiy jurnallar va konferensiya materiallari foydalanildi.

**Natijalar va muhokama:** O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida asosiy e’tibor gidroenergetikaga qaratilgan bo‘lsa, keyingi yillarda quyosh va shamol energetikasi jadal rivojlanmoqda.

IEA ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekiston elektr energiyasining taxminan **90 foizi** asosan tabiiy gazga asoslangan issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan, quyosh va shamolning birgalikdagi ulushi esa **1 foiz**dan kam bo‘lgan.

Shu bilan birga, mamlakatda yirik quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirish sur’ati sezilarli darajada oshdi. Masalan, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi umumiy **1 GVt** quvvatli ikki quyosh elektr stansiyasi 2023–2024 yillarda bosqichma-bosqich ishga tushirildi. IEA baholashiga ko‘ra, ular yiliga taxminan **2 400 GVt soat** elektr energiyasi ishlab chiqarishi va yiliga **2,4 mln tonna $CO_2$** chiqindisining oldini olishi mumkin.

5. Dobson G.P., Morris J.L., Letson H.L. Pathophysiology of Severe Burn Injuries: New Therapeutic Opportunities From a Systems Perspective // Journal of Burn Care & Research. – 2024. – Vol. 45, No. 4. – P. 1041–1050. – DOI: 10.1093/jbcr/irae049.

6. Halgas B.J., Britton G.W., Cancio L.C. Hemodynamic Monitoring in Burn Resuscitation: Current Status // Annals of Burns and Fire Disasters. – 2025. – Vol. 38, No. 2. – P. 91–99.

# SPORTCHI AYOLLARDA MENSTRUAL SIKL FAZALARINING FIZIOLOGIK KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRI

Jaqsimuratova Gulnura Perdebaevna
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada sportchi ayollarda menstrual sikl davomida turli fazalarda yuz beradigan fiziologik o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Menstrual sikl davrida ayollar organizmida estrogen va progesteron gormonlari konsentratsiyasi o‘zgarib turadi. Ushbu gormonal o‘zgarishlar organizmning qator fiziologik funksiyalariga, jumladan, termoregulyatsiya, yurak-qon tomir tizimi faoliyati hamda jismoniy mashqlarga bo‘lgan javob reaksiyalariga ta’sir qilishi mumkin.*

*Ayniqsa, ovulyatsiyadan keyingi luteal fazada progesteron gormoni ishlab chiqarilishining ortishi natijasida tana haroratining ko‘tarilishi kuzatiladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu farq taxminan 0,3–0,7 °C oralig‘ida bo‘lishi ko‘rsatilgan.*

*Biroq ushbu o‘zgarishlar barcha sportchi ayollarda bir xil darajada kuzatiladi, deb bo‘lmaydi. Ya’ni, hayz davrida jismoniy ish qobiliyatining pasayishi menstrual sikl fazalariga bog‘liq bo‘lishi mumkin, ammo kuzatiladigan o‘zgarishlarda individual farqlar mavjud bolganligi sababli barcha sportchi ayollar uchun bir xil tavsiyalar ishlab chiqish qiyin [3,4].*

*Shu sababli sportchi ayollarda menstrual sikl davomida organizmda yuz beradigan o‘zgarishlarni baholashda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:*** *sportchi ayollar, menstrual sikl, estrogen, progesteron, termoregulyatsiya, tana harorati, jismoniy yuklama, jismoniy faollik, sport fiziologiyasi.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются физиологические изменения, происходящие у женщин-спортсменок в различные фазы менструального цикла. В течение менструального цикла концентрации гормонов эстрогена и прогестерона в организме женщины изменяются.*

*Эти гормональные колебания могут влиять на ряд физиологических функций организма, включая терморегуляцию, деятельность сердечно-сосудистой системы и реакции организма на физическую нагрузку. Особенно в лютеиновой фазе, наступающей после овуляции, вследствие*

*повышения выработки гормона прогестерона наблюдается повышение температуры тела. Согласно данным научной литературы, разница температуры тела между фазами менструального цикла может составлять примерно 0,3–0,7 °C. Однако нельзя утверждать, что данные изменения наблюдаются у всех женщин-спортсменок в одинаковой степени.*

*Снижение физической работоспособности в определённые периоды менструального цикла может быть связано с фазами цикла, однако выраженность наблюдаемых изменений характеризуется значительными индивидуальными различиями.*

*В связи с этим разработка единых рекомендаций для всех женщин-спортсменок представляет определённые трудности [3,4].Поэтому при оценке изменений, происходящих в организме женщин-спортсменок в течение менструального цикла, важное значение имеет индивидуальный подход.*

***Ключевые слова:*** *женщины-спортсменки, менструальный цикл, эстроген, прогестерон, терморегуляция, температура тела, физическая нагрузка, физическая активность, спортивная физиология.*

***Abstract:*** *This article analyzes the physiological changes that occur in female athletes during different phases of th menstrual cycle. Throughout the menstrual cycle, the concentrations of estrogen and progesterone in the female body fluctuate. These hormonal changes may affect a number of physiological functions, including thermoregulation, cardiovascular function, and the body’s responses to physical exercise.*

*In particular, during the luteal phase following ovulation, an increase in body temperature may occur as a result of increased progesterone production. According to the scientific literature, the difference in body temperature between menstrual cycle phases is approximately 0.3–0.7 °C.*

*However, these changes cannot be considered to occur to the same extent in all female athletes. Although changes in physical performance during the menstrual cycle may be associated with different phases of the cycle, the magnitude of these changes varies considerably between individuals. Therefore, it is difficult to develop uniform recommendations that are applicable to all female athletes [3,4].*

*For this reason, an individualized approach is important when assessing physiological changes occurring in female athletes throughout the menstrual cycle.*

***Keywords:*** *female athletes, menstrual cycle, estrogen, progesterone, thermoregulation, body temperature, physical exercise, physical activity, sports physiology.*

**Kirish**

Ayol organizmida hayz ko‘rish reproduktiv tizim faoliyatining muhim fiziologik ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Menstrual sikl davomida tuxumdonlarda gormonlar, jumladan, estrogen va progesteron konsentratsiyasining o‘zgarishi kuzatiladi. Ushbu gormonal o‘zgarishlar reproduktiv salomatlik bilan bir qatorda organizmning boshqa funksional faoliyatlariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin [1,2]. Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanuvchi sportchi ayollarda menstrual siklning fiziologik xususiyatlarini o‘rganish sport fiziologiyasining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Chunki yuqori darajadagi jismoniy faollik organizmning yurak-qon tomir tizimi, nafas olish, termoregulyatsiya va metabolik jarayonlariga katta talab qo‘yadi. Hozirgi ilmiy adabiyotlarda menstrual sikl fazalarining sportchi ayollarning jismoniy ish qobiliyatiga ta’siri bo‘yicha yagona xulosa mavjud emas.

McNulty va hammualliflar 78 ta tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharh va meta-tahlilda menstrual sikl fazalarining jismoniy ish qobiliyatiga umumiy ta’siri juda kichik ekanligini, shu bilan birga tadqiqotlar o‘rtasida sezilarli o‘zgaruvchanlik mavjudligini ko‘rsatgan[2].Shuning uchun menstrual sikl bo‘yicha barcha sportchilar uchun bir xil universal tavsiyalar berish o‘rniga, individual fiziologik xususiyatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

**Tadqiqot usullari**

Ushbu maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega. Tadqiqotda menstrual sikl fiziologiyasi, termoregulyatsiya va sportchi ayollarning jismoniy ish qobiliyatiga oid ilmiy maqolalar, tizimli sharhlar hamda sport fiziologiyasiga tegishli o‘quv adabiyotlari o‘rganildi. Adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar qiyosiy tarzda tahlil qilinib, menstrual sikl fazalarining gormonal o‘zgarishlar, tana harorati, fiziologik javoblar va jismoniy ish qobiliyati bilan bog‘liqligi umumlashtirildi.

**Menstrual sikl fazalari**

Menstrual sik bir qancha fiziologik fazalardan iborat. Ayollar organizmida gormonal muhit doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Follikulyar fazaning dastlabki bosqichlarida estrogen va progesteron miqdori nisbatan past bo‘ladi. Keyinchalik estrogen miqdori ortadi [5].

Ovulyatsiyadan so‘ng progesteron konsentratsiyasi oshib,luteal faza shakllanadi[1].

Estrogen va progesteron faqat reproduktiv funksiyalarni boshqarish bilan cheklanib

qolmay, termoregulyatsiya hamda organizmning jismoniy yuklamalarga javob reaksiyalarida ham ma’lum rol o‘ynashi mumkin [1].

Shu sababli menstrual siklning fazaviy o‘zgarishlarini sport fiziologiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganish organizmning individual javob reaksiyalarini tushunish imkoniyatini beradi.

**Menstrual sikl va termoregulyatsiya**

Menstrual sikl davomida tana haroratida ham o‘zgarishlar yuz beradi.

Baker, Siboza va Fullerning sharhlariga ko‘ra, ovulyatsiyadan keyingi luteal fazada progesteron darajasi yuqori bo‘lgan davrda tana harorati preovulyatsion follikulyar fazaga nisbatan taxminan 0,3–0,7 °C yuqoriroq bo‘lishi mumkin[1]. Ushbu o‘zgarish, ayniqsa, uyqu vaqtida yoki ertalab, jismoniy faollik boshlanishidan oldin aniqroq kuzatilishi mumkin [1].Progesteron gormoni tana haroratining ko‘tarilishiga hissa qo‘shuvchi gormonlardan biri sifatida qaraladi. Yuqori harorat sharoitida jismoniy yuklama vaqtida menstrual siklning termoregulyatsion javoblarga ta’siri bo‘yicha ham tadqiqotlar o‘tkazilgan. Giersch va hammualliflar menstrual sikl hamda issiq sharoitdagi termoregulyatsiya bo‘yicha tizimli sharh va meta-tahlil o‘tkazib, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar orasida metodologik farqlar mavjudligini ko‘rsatgan[4].
Demak, luteal fazadagi tana haroratining ko‘tarilishi menstrual sikl davomida izchil kuzatiladigan fiziologik belgilardan biri bo‘lsa-da, uni sportchining individual jismoniy ish qobiliyati bilan avtomatik ravishda tenglashtirib bo‘lmaydi.

**Yurak-qon tomir tizimi va jismoniy foallik**

Organizmning yurak-qon tomir tizimida ham ayrim funksional ko‘rsatkichlarda o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Gormonal muhitning o‘zgarishi qon tomirlari faoliyati hamda jismoniy yuklamaga yurak-qon tomir tizimining javob reaksiyasining ayrim komponentlariga ta’sir qilishi ehtimoli mavjud. Sportchi ayollarda yurak urish chastotasi, arterial bosim va boshqa funksional ko‘rsatkichlarni menstrual siklning turli fazalarida kuzatish organizmning individual reaksiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Ayol sportchilarda jismoniy faollikning menstrual sikl davomida o‘zgarishi ularning shug‘ullanadigan sport turiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

**Menstrual sikl va gidratatsiya**

Menstrual sikl, termoregulyatsiya va suyuqlik almashinuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik sport fiziologiyasi uchun qiziqish uyg‘otadigan yo‘nalishlardan biridir. Jismoniy mashqlar vaqtida organizmda metabolik jarayonlarning kuchayishi suyuqlik yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yuqori harorat va issiq

muhitdagi jismoniy mashqlar vaqtida termoregulyatsion yuklama ortadi [4]. Biroq menstrual siklning o‘zi barcha sportchilarda dehidratatsiyaga olib keladi, degan xulosani tasdiqlash uchun yetarli dalillar mavjud emas. Shu sababli kelajakdagi tadqiqotlarda menstrual sikl fazalari bilan bir qatorda tana massasi, suyuqlikni qabul qilish miqdori, siydik rangi kabi amaliy gidratatsiya ko‘rsatkichlarini kuzatish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lishi mumkin.

**MUHOKAMA**

Menstrual sikl davomida yuz beradigan o‘zgarishlar haqida adabiyotlardan olingan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, menstrual sikl davomidagi gormonal o‘zgarishlar organizmning qator fiziologik funksiyalariga ta’sir qilishi mumkin va ushbu holat individual xususiyatga ega. Eng izchil kuzatiladigan o‘zgarishlardan biri bu ovulyatsiyadan keyingi luteal fazada tana haroratining ma’lum darajada ko‘tarilishidir [1].

Biroq jismoniy ish qobiliyati va sport natijalariga ta’siri masalasida ilmiy dalillar bir xil emas. Tizimli sharhlar menstrual sikl fazalari o‘rtasidagi umumiy jismoniy natija o‘zgarishi kichik ekanligini va individual farqlar katta ekanligini ko‘rsatadi [2,3].

**XULOSA**

Umumlashtirib aytganda, adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, menstrual sikl davomida yuz beradigan gormonal o‘zgarishlar ayol organizmining fiziologik faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Ayniqsa, ovulyatsiyadan keyingi luteal fazada progesteron darajasining ortishi bilan tana yadrosi harorati follikulyar fazaga nisbatan taxminan 0,3–0,7 °C yuqori bo‘lishi mumkin [1].

Eng aniq qayd etilgan o‘zgarishlardan biri sifatida luteal fazada tana haroratining ko‘tarilishi hisoblanadi. Biroq ushbu davrda sport natijalarining o‘zgarishi har bir sportchi uchun individual bo‘ladi. Shuning uchun sportchi ayollarda menstrual siklning fiziologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Kelajakdagi tadqiqotlarda menstrual siklning turli fazalarida yuz beradigan o‘zgarishlarni o‘rganishda organizmning individual ko‘rsatkichlari — yurak urish chastotasi, arterial bosim, tana haroratining o‘zgarishi, jismoniy ish qobiliyati va gidratatsiya ko‘rsatkichlarini kompleks tarzda baholash sport fiziologiyasi uchun muhim yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Baker F. C., Siboza F., Fuller A. Temperature regulation in women: Effects of the menstrual cycle // Temperature. — 2020. — Vol. 7, № 3. — P. 226–262. DOI: 10.1080/23328940.2020.1735927.

2. McNulty K. L., Elliott-Sale K. J., Dolan E., Swinton P. A., Ansdell P., Goodall S., Thomas K., Hicks K. M. The Effects of Menstrual Cycle Phase on Exercise Performance in Eumenorrheic Women: A Systematic Review and Meta-Analysis // Sports Medicine. — 2020. — Vol. 50, № 10. — P. 1813–1827. DOI: 10.1007/s40279-020-01319-3.

3. Meignié A., Duclos M., Carling C., Orhant E., Provost P., Toussaint J. F., Antero J. The Effects of Menstrual Cycle Phase on Elite Athlete Performance: A Critical and Systematic Review // Frontiers in Physiology. — 2021. — Vol. 12. — 654585. DOI: 10.3389/fphys.2021.654585.

4. Giersch G. E. W., Morrissey M. C., Katch R. K., Colburn A. T., Sims S. T., Stachenfeld N. S., Casa D. J. Menstrual cycle and thermoregulation during exercise in the heat: A systematic review and meta-analysis // Journal of Science and Medicine in Sport. — 2020. — Vol. 23, № 12. — P. 1134–1140. DOI: 10.1016/j.jsams.2020.05.014.

5. Paludo A. C., Paravlic A., Dvořáková K., Gimunová M. The Effect of Menstrual Cycle on Perceptual Responses in Athletes: A Systematic Review With Meta-Analysis // Frontiers in Psychology. — 2022. — Vol. 13. — 926854. DOI: 10.3389/fpsyg.2022.926854.

# EFFECT OF INTENSIFIED STRESS-PROTECTIVE THERAPY ON THE CIRCADIAN RHYTHM OF MEAN ARTERIAL PRESSURE IN CHILDREN OVER 7 YEARS OF AGE WITH SEVERE COMBINED TRAUMATIC BRAIN INJURY

Mukhitdinova Kh.N.
Shomurodov A.Ya.
*Center for the Development of Professional Skills of Medical Workers*

***Abstract.*** *This study evaluated the effect of intensified stress-protective therapy on the circadian rhythm of mean arterial pressure (MAP) in 20 children aged 7–18 years with severe combined traumatic brain injury. Group 1 included 10 patients treated during 2018–2022, and Group 2 included 10 patients treated during 2023–2024. MAP circadian rhythm was assessed by mesor, acrophase, bathyphase, amplitude, and daily fluctuation range. The mesor was 84±1 mmHg in Group 1 and 80±2 mmHg in Group 2; amplitude was 7±2 and 10±4 mmHg, respectively, while the daily fluctuation range was 14±4 and 20±8 mmHg. No significant intergroup differences were found in the main phase characteristics. Circadian rhythm inversion persisted for 35% and 42% of the intensive care period, respectively. MAP showed strong positive correlations with both systolic and diastolic blood pressure. Despite greater injury severity in Group 2, MAP remained predominantly within the physiological range, suggesting preservation of compensatory-adaptive hemodynamic mechanisms during intensified stress-protective therapy.*

***Keywords:*** *severe combined traumatic brain injury, children, mean arterial pressure, circadian rhythm, stress-protective therapy, mesor, acrophase, bathyphase, circadian rhythm inversion, hemodynamics, intensive care.*

**Relevance.** Severe combined traumatic brain injury (SCTBI) in children is associated with impaired cerebral perfusion, systemic hemodynamic disturbances, autonomic dysfunction, and a high risk of secondary brain injury. Current guidelines emphasize maintaining adequate arterial pressure and cerebral perfusion, preventing hypotension, and using continuous physiological monitoring [1, 2]. Brain–heart interactions may additionally affect heart rate, arterial pressure, autonomic

regulation, and myocardial function [3]. Therefore, hemodynamic assessment should include not only isolated blood pressure values but also their dynamic changes over time. Individualized hemodynamic management is especially important because mean daily arterial pressure may not fully reflect time-dependent cardiovascular disturbances [4]. Circadian rhythms are often disrupted in critically ill patients [5], and circadian characteristics may have clinical and prognostic significance in traumatic brain injury [6]. In addition, sedative and stress-protective therapy can modify systemic hemodynamic and metabolic responses [7].

Therefore, evaluation of mean arterial pressure (MAP) in children with SCTBI should include not only its absolute values but also its circadian organization, including the mesor, acrophase, bathyphase, amplitude, and daily range of fluctuations. The present study compares children aged 7–18 years treated during 2018–2022 with those treated during 2023–2024 under an intensified stress-protective regimen, thereby allowing assessment of the relationship between treatment strategy and circadian hemodynamic adaptation.

**Objective.** To investigate and comparatively assess the effect of intensified stress-protective pharmacological therapy on the circadian rhythm of mean arterial pressure (MAP) during the acute period of severe combined traumatic brain injury in children older than 7 years.

**Materials and Methods.** The study included 20 children aged 7–18 years who were treated for severe combined traumatic brain injury. Group 1 comprised 10 patients treated during 2018–2022, while Group 2 included 10 patients treated during 2023–2024. The groups were comparable in terms of diagnosis, age, and overall clinical condition. Injury severity was assessed using the Injury Severity Score (ISS) and the Glasgow Coma Scale. The mean ISS score was 23,1±5,72 points in Group 1 and 29,8±4,0 points in Group 2, indicating a tendency toward more severe injury in Group 2. All patients received comprehensive treatment in the intensive care unit. During the first 10 days after injury, central venous pressure, peripheral oxygen saturation ($SpO_2$), heart rate, and MAP were recorded hourly. Central and peripheral hemodynamic parameters were also assessed. The circadian rhythm of MAP was evaluated according to its mesor, acrophase, bathyphase, amplitude, and daily range of fluctuations. Statistical analysis was performed using methods of variation statistics. Mean values and standard errors were calculated, intergroup differences were assessed using Student’s t-test, and relationships between variables were evaluated using paired correlation analysis. A p-value of $<0.05$ was considered statistically significant.

**Results.** The mean phase characteristics of the circadian rhythm of MAP did not differ significantly between the two groups. The mesor was 84±1 mmHg in Group 1 and 80±2 mmHg in Group 2. Acrophase values were 90±4 and 91±7 mmHg, respectively, while bathyphase values were 77±5 and 71±5 mmHg. The circadian rhythm amplitude was 7±2 mmHg in Group 1 and 10±4 mmHg in Group 2, while the daily fluctuation range was 14±4 and 20±8 mmHg, respectively. On the first day of observation, the MAP circadian mesor remained within the age-appropriate physiological range in both groups, measuring 83±4 mmHg in Group 1 and 73±7 mmHg in Group 2. During subsequent observation, the mesor remained relatively stable in Group 1, whereas a slight upward trend was noted in Group 2 after day 20. The mean circadian rhythm of MAP in both groups was characterized by wave-like, nearly synchronous fluctuations. The acrophase occurred at approximately 20:00 in Group 1 and 18:00 in Group 2. The amplitude and daily range of MAP fluctuations tended to be greater in Group 2 than in Group 1 on days 1, 10, 21, and 24. Circadian rhythm inversion of MAP persisted for 35% of the intensive care period in Group 1 and 42% in Group 2. Correlation analysis demonstrated a strong positive relationship between MAP and diastolic blood pressure in both groups, with correlation coefficients of r=0.71 in Group 1 and r=0.92 in Group 2. The association between MAP and systolic blood pressure was even stronger, reaching r=0.94 and r=0.96, respectively. These findings suggest that sedative and stress-protective intensive therapy did not substantially alter the functional relationship between the major hemodynamic parameters. The MAP response to hyperthermia was weaker in Group 2 than in Group 1, with correlation coefficients of r=0.15 and r=0.51, respectively. A negative correlation trend between anti-inflammatory therapy and MAP was observed in both groups: r=−0.55 in Group 1 and r=−0.43 in Group 2. In Group 2, positive correlations were also identified between MAP and the administration of vasodilators, nootropic agents, and vitamins, with correlation coefficients of r=0.54, r=0.63, and r=0.64, respectively. The identified correlations suggest comparatively more active compensatory mechanisms in Group 2. Despite a tendency toward more severe injury, these patients demonstrated preserved adaptive reserves and a more pronounced compensatory hemodynamic response during intensified stress-protective therapy.

**Conclusion.** In children older than 7 years with severe combined traumatic brain injury, the circadian mesor of MAP remained predominantly within the physiological range during both the initial and subsequent days of observation. No significant intergroup differences were identified in the main phase characteristics

of the MAP circadian rhythm. However, Group 2 demonstrated a tendency toward greater circadian amplitude and daily fluctuations, as well as a slightly longer duration of circadian rhythm inversion. The strong correlations of MAP with systolic and diastolic blood pressure, together with the specific responses to hyperthermia and pharmacological therapy, indicate comparatively active compensatory-adaptive mechanisms in Group 2. These findings suggest that intensified stress-protective therapy may contribute to maintaining hemodynamic stability and adaptive responses in children with severe combined traumatic brain injury.

## REFERENCES

1. Kochanek P.M., Tasker R.C., Carney N., et al. Guidelines for the management of pediatric severe traumatic brain injury: update of the Brain Trauma Foundation guidelines // Pediatric Critical Care Medicine. – 2019. – Vol. 20, No. 3S. – P. 71–82. – DOI: 10.1097/PCC.0000000000001735.

2. Kochanek P.M., Tasker R.C., Bell M.J., et al. Management of pediatric severe traumatic brain injury: 2019 consensus and guidelines-based algorithm for first and second tier therapies // Pediatric Critical Care Medicine. – 2019. – Vol. 20, No. 3. – P. 269–279.

3. El-Menyar A., Goyal A., Latifi R., et al. Brain-heart interactions in traumatic brain injury // Cardiology in Review. – 2017. – Vol. 25, No. 6. – P.

4. Di Filippo S., Messina A., Pelosi P., et al. Eight rules for the haemodynamic management of traumatic brain-injured patients // European Journal of Anaesthesiology and Intensive Care. – 2023. – Vol. 2, No. 4. – P. 29–35. – DOI: 10.1097/EA9.0000000000000029.

5. Felten M., Dame C., Lachmann G., et al. Circadian rhythm disruption in critically ill patients // Acta Physiologica. – 2023. – Vol. 238, No. 1. – DOI: 10.1111/apha.13962.

6. Kuo L.-T., Lu H.-Y., Huang A.P.-H. Prognostic Value of Circadian Rhythm of Brain Temperature in Traumatic Brain Injury // Journal of Personalized Medicine. – 2021. – Vol. 11, No. 7. – Article 620. – DOI: 10.3390/jpm11070620.

7. Kurni M., Kaloria N., Hazarika A., et al. Comparison of Midazolam and Propofol Infusion to Suppress Stress Response in Patients With Severe Traumatic Brain Injury: A Prospective, Randomized Controlled Trial // Korean Journal of Neurotrauma. – 2023. – Vol. 19, No. 1. – P. 70–81. – DOI: 10.13004/kjnt.2023.19.e4.

# SURUNKALI BRUTSELLYOZ BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA YURAK-QON TOMIR TIZIMINING KLINIK VA FUNKSIONAL O‘ZGARISHLARI

Saidov Xusniddin Shamsiddin o‘g‘li
*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*
xusniddin_saidov@tues.uz

***Annotatsiya.*** *Tadqiqotda Samarqand viloyati yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasida kuzatilgan surunkali brutsellyozli bemorlarda yurak-qon tomir tizimining klinik va funksional o‘zgarishlari tahlil qilindi. Retrospektiv material 2008–2018-yillar davomida tibbiy yordamga murojaat qilgan 225 nafar bemorning kasallik tarixlari, klinik-laborator, serologik hamda instrumental tekshiruv natijalariga asoslandi. Brutsellyoz tashxisi klinik-epidemiologik ma’lumotlar, Rayt va Heddelson agglutinatsiya reaksiyalari, bakteriologik tekshiruv, elektrokardiografiya va exokardiografiya asosida baholandi. Surunkali brutsellyozda yurak-qon tomir tizimi tomonidan o‘zgarishlar 24,7% holatda qayd etilgan. Bemorlar orasida arterial gipertenziya 32,8%, anemiya 47,4%, yurak ishemik kasalligi 8,2% va ateroskleroz 4,1% holatda uchragan. EKG tekshiruvlarida sinus taxikardiyasi, sinus bradikardiyasi, sinus aritmiyasi, o‘tkazuvchanlik va repolyarizatsiya buzilishlari aniqlangan. Olingan ma’lumotlar surunkali brutsellyozli bemorlarni kuzatishda yurak-qon tomir tizimini klinik va instrumental baholash muhimligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *surunkali brutsellyoz, yurak-qon tomir tizimi, elektrokardiografiya, aritmiya, arterial gipertenziya, serodiagnostika.*

## KIRISH

Brutsellyoz zoonozlar guruhiga mansub yuqumli kasallik bo‘lib, uzoq davom etuvchi va qaytalanuvchi kechishga moyilligi, turli a’zo va tizimlarning zararlanishi hamda mehnatga layoqatning pasayishiga olib kelishi bilan katta tibbiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Kasallikning klinik polimorfizmi, ayniqsa surunkali shakllarda, tashxis qo‘yish va bemorni kuzatishda kompleks yondashuvni talab etadi. Brutsellyoz jarayonida tayanch-harakat, asab, siydik-jinsiy tizimlari bilan bir qatorda yurak-qon tomir tizimi ham zararlanishi mumkin.

O‘zbekistonning chorvachilik rivojlangan hududlarida brutsellyoz epidemiologik jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda. Samarqand viloyatida ham chorvachilik bilan faol shug‘ullanuvchi tumanlardan murojaatlar ulushi yuqori bo‘lgan. Kasallikning odamga yuqishida kasal hayvonlar bilan bevosita aloqa, shuningdek, zararlangan hayvon mahsulotlari va pasterizatsiya qilinmagan sut mahsulotlarini iste’mol qilish muhim o‘rin tutadi. Mazkur holat klinik shubha tug‘ilganda epidemiologik anamnezni batafsil yig‘ish zarurligini ko‘rsatadi.

Brutsellyozda yurak-qon tomir tizimidagi o‘zgarishlar intoksikatsiya, vegetativ asab tizimi disfunksiyasi, yallig‘lanish jarayoni va miokardning bevosita shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Klinik jihatdan kardialgiya, arterial bosimning o‘zgarishi, taxikardiya, yurak chegaralarining kengayishi, sistolik shovqin, ritm va o‘tkazuvchanlik buzilishlari uchrashi mumkin. Shu sababli surunkali brutsellyozli bemorlarda yurak-qon tomir tizimining funksional holatini baholash kasallikning kechishini to‘liq tavsiflash va davolash taktikasini belgilashda muhim hisoblanadi.

**TADQIQOT MAQSADI**

Samarqand viloyatida surunkali brutsellyoz bilan kasallangan bemorlarda yurak-qon tomir tizimining klinik va funksional o‘zgarishlarini baholash, ularning asosiy ko‘rinishlari va hamroh patologiyalar bilan bog‘liqligini tavsiflash.

**MATERIAL VA USULLAR**

Tadqiqot materiali sifatida Samarqand viloyati yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasiga so‘nggi o‘n yil davomida murojaat qilgan va surunkali brutsellyoz tashxisi qo‘yilgan bemorlarning kasallik tarixlari retrospektiv o‘rganildi. Tahlil 2008–2018-yillar oralig‘ini qamrab oldi. Umumiy hisobda 225 nafar bemorning klinik-laborator va instrumental ma’lumotlari ko‘rib chiqildi. Bemorlarning epidemiologik anamnezi, yashash hududi, yosh tarkibi, klinik simptomlari, laborator natijalari va yurak-qon tomir tizimiga oid ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Brutsellyoz tashxisi klinik-epidemiologik ma’lumotlar bilan bir qatorda serologik va bakteriologik tekshiruvlar asosida tasdiqlandi. Serodiagnostikada Rayt va Heddelson agglutinatsiya reaksiyalaridan foydalanilgan. Rayt reaksiyasida 1:200 dan 1:800 gacha bo‘lgan titrlarda ijobiy natijalar qayd etilgan. Bakteriologik tekshiruvlarda qon ekmasi natijalari ham baholangan. Umumiy qon tahlili, eritrotsitlar cho‘kish tezligi, biokimyoviy ko‘rsatkichlar, C-reaktiv oqsil va revmatoid omil singari laborator belgilar hisobga olindi.

Yurak-qon tomir tizimining funksional holatini baholash uchun barcha bemorlarga elektrokardiografiya va exokardiografiya tekshiruvlari o‘tkazilgan.

EKGda yurak ritmi, o‘tkazuvchanlik, qo‘zg‘aluvchanlik va repolyarizatsiya jarayonlaridagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Klinik ko‘rikda kardialgiya, yurak urish tezligi, arterial bosim, yurak chegaralari va auskultativ belgilar baholangan.

## TADQIQOT NATIJALARI

Bemorlarning yashash joyi bo‘yicha tahlili murojaatlarning 87,3% qismi Samarqand viloyati tumanlaridan, 12,7% qismi esa Samarqand shahridan bo‘lganini ko‘rsatdi. Tumanlar kesimida eng katta ulush Nurobod (19,5%), Qo‘shrabot (14,2%), Bulung‘ur (12,3%), Urgut (11,3%) va Pastdarg‘om (10,4%) hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ushbu hududlarda chorvachilik bilan shug‘ullanishning keng tarqalganligi epidemiologik omillardan biri sifatida qayd etilgan. Murojaatlar sonining mavsumiy oshishi bahor oylarida ko‘proq kuzatilgan.

2008-yildan 2018-yilgacha tibbiy muassasaga murojaat qilish ko‘rsatkichi 5,5% dan 13,8% gacha ko‘tarilgan. Yosh tarkibini tahlil qilishda 25–40 yoshli bemorlar 43,5% bilan eng katta guruhni tashkil etgan. 14–25 yoshdagilar 25,4%, 40–50 yoshdagilar 11,3%, 50 yoshdan kattalar esa 10,1% bo‘lgan. Demak, kasallikning asosiy og‘irligi mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga to‘g‘ri kelgan.

Surunkali brutsellyozli bemorlarda a’zo va tizimlarning zararlanishi turli chastotada qayd etilgan. Yurak-qon tomir tizimi tomonidan o‘zgarishlar 24,7% holatda aniqlangan. Tayanch-harakat tizimi 76,7%, asab tizimi 13,3%, siydik-jinsiy tizimi 4,6% holatda zararlangan. Organ va tizimlarning birgalikdagi, ya’ni kombinatsiyalashgan shikastlanishi 28,6% bemorda kuzatilgan. Bu ma’lumotlar surunkali brutsellyozning ko‘p tizimli kasallik ekanini ko‘rsatadi.

Hamroh kasalliklar orasida anemiya 47,4% bilan eng yuqori ulushni egallagan. Arterial gipertenziya 32,8% bemorda uchragan; uning I darajasi 15,2%, II darajasi 12,4%, III darajasi 5,2% holatda qayd etilgan. Bundan tashqari, piyelonefrit 7,5%, ateroskleroz 4,1% va yurak ishemik kasalligi 8,2% bemorda aniqlangan. Ushbu hamroh patologiyalar yurak-qon tomir tizimining klinik bahosini murakkablashtirishi va kuzatuvda ularni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

| Ko‘rsatkich | Ulushi, % | Izoh |
|---|---|---|
| Yurak-qon tomir tizimi o‘zgarishlari | 24,7 | Surunkali brutsellyozda |
| Arterial gipertenziya | 32,8 | Hamroh kasallik |
| Anemiya | 47,4 | Hamroh kasallik |
| Yurak ishemik kasalligi | 8,2 | Hamroh kasallik |
| Ateroskleroz | 4,1 | Hamroh kasallik |
| C-reaktiv oqsil oshishi | 27,0 | Laborator ko‘rsatkich |

| | | |
|---|---|---|
| EChT 60 mm/soatgacha oshishi | 57,8 | Umumiy qon tahlili |

*1-jadval. Surunkali brutsellyozli bemorlarda ayrim klinik-laborator ko‘rsatkichlar*

Laborator tekshiruvlarda limfositoz va eritrotsitlar cho‘kish tezligining 60 mm/soatgacha oshishi 57,8% bemorda kuzatilgan. Biokimyoviy ko‘rsatkichlardan 11,5% bemorda ALT miqdori 1,5 barobargacha ortgan, 27,0% bemorda C-reaktiv oqsil oshgan, 7,7% holatda revmatoid omil ijobiy bo‘lgan. Heddelson agglutinatsiya reaksiyasi 47,7% holatda ijobiy qayd etilgan, Rayt agglutinatsiya reaksiyasi esa 86,6% holatda 1:200–1:800 titrlarda ijobiy natija bergan. Bakteriologik qon ekmasida 57,3% bemorda ijobiy natijalar aniqlangan.

Yurak-qon tomir tizimini instrumental baholashda EKG o‘zgarishlari 24,7% bemorda qayd etilgan. Aniqlangan o‘zgarishlar orasida sinus taxikardiyasi, sinus bradikardiyasi va sinus aritmiyasi kabi ritm buzilishlari, shuningdek, atrioventrikulyar o‘tkazuvchanlik va Giss tutami oyoqchalariga oid blokadalar tavsiflangan. Repolyarizatsiya jarayonlaridagi buzilishlar diffuz miokardial o‘zgarishlar ko‘rinishida ham kuzatilgan. Manba materialida ayrim ritm buzilishlarining mutlaq soni va foiz ko‘rsatkichlari o‘zaro mos kelmaydigan joylar mavjudligi sababli mazkur maqolada ular alohida foizlar ko‘rinishida qayta hisoblanmadi.

Klinik kuzatuvlarda yurak-qon tomir tizimi tomonidan kardialgiya, yurak chegaralarining chapga kengayishi, sistolik shovqin, gipotenziya va taxikardiya kabi belgilar qayd etilgan. Ritm buzilishlarining bir qismi o‘tkinchi xarakterga ega bo‘lib, etiotrop va yallig‘lanishga qarshi davolash boshlanganidan keyin qisqa muddatda me’yorlashgani kuzatilgan. Shu bilan birga, miokard repolyarizatsiyasi bilan bog‘liq diffuz o‘zgarishlar ayrim holatlarda yaqqol va barqaror bo‘lgan.

**MUHOKAMA**

Olingan natijalar surunkali brutsellyozda yurak-qon tomir tizimi zararlanishi kasallikning klinik manzarasida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Biroq bu o‘zgarishlarning hammasi bevosita miokard zararlanishi bilan izohlanmaydi. Manba materialida yurak-qon tomir simptomlarining katta qismi intoksikatsion sindrom va vegetativ asab tizimi disfunksiyasining ekstrakardial ifodasi sifatida baholangan. Bevosita kardial shikastlanish, jumladan o‘choqli miokarditga xos o‘tkazuvchanlik buzilishlari esa nisbatan kamroq uchragan.

Surunkali brutsellyozning ko‘p tizimli xususiyati bemorni faqat bitta simptom yoki bitta a’zo tizimi asosida baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Yurak-qon

tomir o‘zgarishlari tayanch-harakat, asab va boshqa tizimlar patologiyasi bilan birga kechishi mumkin. Shuningdek, arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, ateroskleroz va anemiya kabi hamroh holatlar klinik belgilarni kuchaytirishi yoki EKGdagi o‘zgarishlarni talqin qilishni murakkablashtirishi mumkin.

Tashxisda epidemiologik anamnez, klinik belgilar, serologik va bakteriologik tekshiruvlarni birgalikda baholash muhim. Surunkali shakllarda simptomlarning polimorfizmi va qaytalanuvchanligi diagnostik xatolarga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun brutsellyoz endemik hududida yashovchi, chorvachilik bilan bog‘liq epidemiologik anamnezga ega bemorlarda yurak-qon tomir shikoyatlari kuzatilganda brutsellyozni differensial diagnostika doirasida hisobga olish maqsadga muvofiq.

Instrumental tekshiruvlar, ayniqsa EKG va ExoKG, yurak ritmi, o‘tkazuvchanlik va miokard holatini baholashda amaliy ahamiyatga ega. Bu usullar klinik belgilar kam ifodalangan holatlarda ham funksional o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning retrospektiv xarakteri va ma’lumotlarning ilgari yig‘ilgan tibbiy hujjatlarga asoslanganligi natijalarni talqin qilishda hisobga olinishi kerak.

**XULOSA**

1. Brutsellyoz bilan kasallangan bemorlarning asosiy qismi mehnatga layoqatli yoshga to‘g‘ri kelgan; 25–40 yoshli bemorlar 43,5% ni tashkil etgan.

2. Surunkali brutsellyozda yurak-qon tomir tizimi tomonidan o‘zgarishlar 24,7% holatda aniqlangan va ular ritm, o‘tkazuvchanlik hamda repolyarizatsiya buzilishlari bilan namoyon bo‘lgan.

3. Hamroh kasalliklardan arterial gipertenziya 32,8%, anemiya 47,4%, yurak ishemik kasalligi 8,2% va ateroskleroz 4,1% holatda qayd etilgan.

4. Brutsellyozning yurak-qon tomir ko‘rinishlarini baholashda klinik tekshiruvni EKG, ExoKG, serologik va laborator usullar bilan birgalikda olib borish zarur.

5. Surunkali brutsellyozning klinik polimorfizmi sababli epidemiologik anamnezni to‘liq yig‘ish va yurak-qon tomir tizimidagi o‘zgarishlarni differensial baholash diagnostik xatolarni kamaytirishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abuova G.N., Karymsakova M.O., Nasyrova G.K. Sostoyanie zabolevaemosti zoonoznymi infektsiyami v Yuzhno-Kazakhstanskoy oblasti na

sovremennom etape // Tsentralno-Aziatskiy nauchno-prakticheskiy zhurnal po obshchestvennomu zdravookhraneniyu. 2011. №4. S. 36–40.

2. Akkazieva B.A. Stranovoe issledovanie po Tadzhikistanu: sistemy zdravookhraneniya v otslezhivanii NIZ. VOZ. Dushanbe, 2013.

3. Anashchenko A.B., Evdokimov A.B., Lyapina E.P. i dr. Sostoyanie reproduktivnykh organov u bolnykh s khronicheskim brutsellezom // Materialy II ezhegodnogo Vserossiyskogo kongressa po infektsionnym boleznyam. Infektsionnye bolezni. 2010. T. 8. Prilozhenie №1.

4. Beklemishev N.D., Tsoy I.G. Immunopatogenez infektsionnogo protsessa. Alma-Ata: Gylym, 1992. 335 s.

5. Belozerov E.S., Mukovozova L.A. Klinicheskie osobennosti sovremennogo brutselleza i vozmozhnye diagnosticheskie oshibki // Materialy tretego sovmestnogo kongressa gigienistov, epidemiologov, mikrobiologov i infektsionistov Kazakhstana. Alma-Ata, 1980. T. 4. S. 116–118.

6. Zheludkov M.M., Tsirelson A.E., Khodartsev O.S. Sostoyanie epidemiologicheskoy situatsii po brutsellezu v Rossii // Materialy III Ezhegodnogo Vserossiyskogo kongressa po infektsionnym boleznyam. Infektsionnye bolezni. 2011. T. 9. Prilozhenie №1. S. 129.

7. Xolmuratov U.K., Rustamova Sh.A., Yarmuxammedova N.A. Samarqand viloyatida keyingi yillarda brutsellyozning kechishining klinik-epidemiologik jihatlari // Fan va ta’lim muammolari. 2019. 33(83).

8. Yarmuxamedova N.A., Yakubova N.S., Tirkashev O.S., Uzoqova G.Z., Achilova M.M. Brutsellyozning surunkali shakllari bilan og‘rigan bemorlarda yurak-qon tomir tizimidagi funksional o‘zgarishlar // Fan va ta’lim yutuqlari. 2020. №4(58).

9. Earhart K. et al. Risk factors for brucellosis in Samarqand Oblast, Uzbekistan // International Journal of Infectious Diseases. 2009. Vol. 13, No. 6. P. 749–753.

# ТАШҚИ МУҲИТ ОМИЛЛАРИНИНГ ОШҚОЗОН МОРФОЛОГИЯСИГА ТАЪСИРИ

Гиёсова С.Н.
*Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институти*

***Аннотация.*** *Ушбу тезисда ташқи муҳит омилларининг ошқозон шиллиқ қавати морфологик ҳолатига таъсири таҳлил қилинган. Ташқи муҳитнинг ноқулай омиллари, жумладан, психоэмоционал стресс, тамаки тутуни, овқатланиш хусусиятлари ва юқори ҳарорат-намлик шароитлари ошқозон шиллиқ қаватининг ҳимоя механизмларига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Экспериментал тадқиқотларда стресс таъсирида юза эпителийсининг дегенерацияси ва десквамацияси, қон томирларида димланиш, геморрагия ҳамда яллиғланиш ҳужайраларининг инфильтрацияси кузатилган. Никотин ва тамаки тутуни эса шиллиқ қаватнинг қон билан таъминланиши ва ҳимоя омилларини сусайтириб, морфологик шикастланиш хавфини ошириши мумкин.*

**Долзарблиги.** Ошқозон шиллиқ қавати организмнинг ташқи муҳит билан доимий алоқада бўладиган тўқима тизимларидан бири бўлиб, унинг морфологик бутунлиги агрессив ва ҳимоя омиллари ўртасидаги мувозанатга боғлиқ. Ошқозон шиллиқ қавати кислотали муҳит, пепсин, овқат таркиби, айрим кимёвий моддалар ва бошқа таъсирларга мунтазам дуч келади. Ҳимоя механизмлари бузилганда эпителий шикастланиши, яллиғланиш, қон томирларида димланиш ва эрозив ўзгаришлар ривожланиши мумкин.

Ташқи муҳит омиллари орасида стресс алоҳида аҳамиятга эга. Экспериментал тадқиқотларда стресс таъсирида ошқозон шиллиқ қаватида эпителий ҳужайраларининг дегенерацияси ва десквамацияси, гиперемия, қон қуйилиши ва яллиғланиш ҳужайраларининг инфильтрацияси аниқланган. Шунингдек, юқори ҳарорат ва намлик шароитларининг овқатланиш хусусиятлари билан биргаликда таъсири ошқозон шиллиқ қавати шикастланишини кучайтириши мумкинлиги кўрсатилган.

**Тадқиқот мақсади.** Ташқи муҳитнинг асосий ноқулай омиллари таъсирида ошқозон шиллиқ қаватида юзага келадиган морфологик

ўзгаришларни таҳлил қилиш ва уларнинг морфофункционал аҳамиятини баҳолаш.

**Материал ва усуллар.** Тадқиқотда ташқи муҳит омилларининг ошқозон тўқимасига таъсири бўйича экспериментал ва морфологик тадқиқотлар натижалари таҳлил қилинди. Ошқозон тўқимасининг морфологик ҳолатини баҳолашда гистологик усуллар, жумладан, гематоксилин-эозин билан бўяш, ёруғлик микроскопияси ва морфометрик баҳолаш усулларидан фойдаланиш мумкин. Экспериментал тадқиқотларда ошқозон шиллиқ қаватининг эпителий ҳолати, безлар тузилиши, қон томирларидаги ўзгаришлар, яллиғланиш ҳужайралари инфильтрацияси ва шиллиқ қават шикастланиш даражаси асосий морфологик мезонлар сифатида баҳоланган.

**Натижалар.** Адабиётлар таҳлили ташқи муҳит омиллари таъсирида ошқозон шиллиқ қаватида бир қатор морфологик ўзгаришлар ривожланишини кўрсатди. Стресс таъсирида юза эпителийсининг дегенерацияси ва десквамацияси, шиллиқ қаватда гиперемия, қон қуйилиши ва яллиғланиш ҳужайралари инфильтрацияси кузатилган. Айрим экспериментал моделларда шиллиқ қават безларининг сийраклашиши, юза эпителийсининг некрози ва кўчиши, тўқима шиши ҳамда қон томирларининг димланиши қайд этилган.

Тамаки тутуни ва никотин таъсирида ҳам ошқозон шиллиқ қаватининг гистологик тузилишида салбий ўзгаришлар аниқланган. Хусусан, никотин ошқозоннинг ҳимоя механизмларини сусайтириши, шиллиқ қават қон оқимини камайтириши ва кислота ҳамда пепсин секрециясини кучайтириши мумкин. Сурункали никотин таъсири бўйича экспериментал тадқиқотда оғиз орқали ва ингаляцион таъсир гистологик тузилмага сезиларли салбий таъсир кўрсатган.

Шунингдек, иссиқ ва нам муҳитнинг юқори шакарли ва ёғли рацион билан биргаликда таъсирида ошқозон шиллиқ қаватида эпителий десквамацияси, қон қуйилиши, яллиғланиш ҳужайралари инфильтрацияси ва шишнинг кучайиши кузатилган.

**Хулоса.** Ташқи муҳитнинг ноқулай омиллари ошқозон шиллиқ қаватининг морфологик тузилишига таъсир қилиб, эпителийнинг дегенерацияси ва десквамацияси, қон томирларида димланиш, геморрагик ўзгаришлар, шиш ва яллиғланиш инфильтрацияси каби морфологик ўзгаришларни келтириб чиқариши мумкин. Стресс, тамаки тутуни ва ноқулай ҳарорат-намлик шароитлари ошқозон шиллиқ қаватининг ҳимоя

қобилиятини пасайтирувчи муҳим омиллар сифатида қаралади. Ошқозон морфологиясини комплекс морфологик ва морфометрик баҳолаш ташқи муҳит омилларининг тўқимага таъсирини эрта аниқлашда муҳим аҳамиятга эга.

***Калит сўзлар:*** *ошқозон, шиллиқ қават, ташқи муҳит омиллари, стресс, никотин, морфология, гистология, эпителий, морфометрия.*

# МЕЖДУНАРОДНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ДВУСТОРОННЯЯ АКАДЕМИЧЕСКАЯ МОБИЛЬНОСТЬ В КЛИНИЧЕСКОЙ МЕДИЦИНЕ

Жайбергенова Жамила Бахытовна
*Медицинский институт Каракалпакстана*
jaybergenovajamila@gmail.com

***Аннотация.*** *В статье проанализирована двусторонняя академическая мобильность между Медицинским институтом Каракалпакстана (МИК) и Казахским национальным медицинским университетом (КазНМУ) им. С. Д. Асфендиярова. Рассмотрены итоги апрельского визита преподавателей кафедры Семейная медицина и внутренние болезни МИК на кафедру Внутренние болезни (КазНМУ), расположенную на базе Городской поликлиники №29 (г. Алматы) и майского курса ассоциированного профессора, к.м.н. М. Токбулатовой по внутренним болезням для студентов 3 курса (г. Нукус). Отражены результаты обучения 12 казахстанских студентов во фтизиатрическом центре им. С. Султанова. Анкетирование показало высокую удовлетворенность качеством программ и клинической практикой, подтверждая эффективность межвузовской интеграции.*

***Ключевые слова:*** *академическая мобильность, медицинское образование, семейная медицина, фтизиатрия, внутренние болезни.*

***Annotatsiya.*** *Maqolada Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti (QTI) va S.D. Asfendiyorov nomidagi Qozog‘iston Milliy tibbiyot universiteti (QozMTU) o‘rtasidagi ikki tomonlama akademik mobillik tahlil qilingan. Aprel oyida QTI «Oilaviy tibbiyot va ichki kasalliklar» kafedrasi o‘qituvchilarining Olmaota shahridagi 29-sonli shahar poliklinikasi bazasida joylashgan «Ichki kasalliklar» kafedrasiga tashrifi hamda may oyida tibbiyot fanlari nomzodi, assotsiyalangan professor M. Tokbulatova tomonidan Nukusda 3-kurs talabalari uchun o‘tilgan ichki kasalliklar kursi yakunlari ko‘rib chiqilgan. S. Sultonov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya markazida qozog‘istonlik 12 nafar talabaning o‘qish natijalari aks ettirilgan. So‘rovnoma dasturlarning yuqori sifati va klinik amaliyotdan qoniqish hosil qilinganini ko‘rsatib, oliy ta’lim muassasalariaro integratsiya samaradorligini tasdiqlaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *akademik mobillik, tibbiy ta’lim, oilaviy tibbiyot, ftiziatriya, ichki kasalliklar.*

***Abstract.*** *The article analyzes the bilateral academic mobility between the Medical Institute of Karakalpakstan (MIK) and the Asfendiyarov Kazakh National Medical University (KazNMU). The outcomes of the April visit of the lecturers from the Department of Family Medicine and Internal Diseases of MIK to the Department of Internal Diseases based on the City Polyclinic No.29 (Almaty) and the May course on internal diseases by Associate Professor, PhD M. Tokbulatova for 3rd-year students (Nukus) are reviewed. The training results of 12 Kazakhstani students at the S. Sultanov Phthisiology Center are reflected. A questionnaire survey showed high satisfaction with the quality of programs and clinical practice, confirming the effectiveness of interuniversity integration.*

***Keywords:*** *academic mobility, medical education, family medicine, phthisiology, internal diseases.*

**Введение**

Глобализация современного здравоохранения ставит перед высшей медицинской школой задачу непрерывного совершенствования образовательных программ через интеграцию передового опыта различных национальных школ [2]. В системе подготовки врачей общей практики (ВОП) и терапевтов особое значение приобретает междисциплинарное взаимодействие и сквозной обмен опытом [7]. Академическая мобильность профессорско-преподавательского состава (ППС) и студентов позволяет эффективно решать эти задачи, обогащая образовательную среду стран-партнеров [3].

Для стран Центрально-Азиатского региона, и в особенности для зоны экологического неблагополучия Приаралья, ранняя диагностика коморбидной соматической патологии и социально значимых заболеваний, таких как туберкулеза, остается стратегическим приоритетом [6]. Формирование у будущих специалистов первичного звена здравоохранения прочных навыков дифференциальной диагностики и «фтизиатрической настороженности» требует постоянной актуализации учебных подходов [4].

**Цель исследования** — провести комплексный анализ результатов и научно-педагогической эффективности циклического двустороннего академического обмена между Медицинским институтом Каракалпакстана (г.

Нукус) и Казахским национальным медицинским университетом имени С. Д. Асфендиярова (г. Алматы).

**Материалы и методы**

Научно-образовательное интеграционное взаимодействие было успешно реализовано в весеннем семестре текущего года и включало три последовательных этапа:

1. **Педагогическая мобильность (МИК -> КазНМУ):** Двухнедельный визит преподавателей кафедры семейной медицины и внутренних болезней МИК на кафедру внутренних болезней КазНМУ в апреле. Практическая деятельность осуществлялась на базе Городской поликлиники № 29 г. Алматы в условиях амбулаторного приема.
2. **Педагогическая мобильность (КазНМУ -> МИК):** Ответный недельный визит в мае ассоциированного профессора кафедры внутренних болезней КазНМУ, к.м.н. Мейрамгуль Токбулатовой в МИК (г. Нукус). Ею был проведен интенсивный лекционно-практический курс по дисциплине «Внутренние болезни» для студентов 3 курса.
3. **Студенческая мобильность (КазНМУ -> МИК):** Краткосрочное недельное обучение целевой группы из **12 студентов** КазНМУ в апреле. Специализированной клинической базой выступил Республиканский научно-практический центр фтизиатрии и пульмонологии имени С. Султанова. В качестве инструмента оценки качества обмена проведено анонимное анкетирование 12 казахстанских студентов по 5-балльной шкале Ликерта. Статистическая обработка включала расчет средних арифметических величин ($M \pm m$) и относительных показателей удовлетворенности (%).

**Результаты и обсуждение**

Двухнедельная работа преподавателей из Нукуса на базе Городской поликлиники № 29 г. Алматы позволила продемонстрировать студентам КазНМУ особенности каракалпакской школы семейной медицины. В ходе клинических разборов особое внимание уделялось пациентам с полиморбидностью (сочетание артериальной гипертензии, сахарного диабета и ХОБЛ). Студенты освоили алгоритмы ведения диспансерных групп, проживающих в регионах с аридным климатом.

Майский визит ассоциированного профессора, к.м.н. М. Токбулатовой в МИК стал логическим продолжением интеграции. Проведенный ею курс по внутренним болезням для студентов 3 курса был направлен на углубленное изучение семиотики терапевтических заболеваний и освоение навыков

клинического обследования. Использование интерактивных методов визуализации лекционного материала, разбор сложных ЭКГ-кейсов и интеграция современных стандартов оказания кардиологической помощи вызвали высокий интерес у студентов 3 курса, способствуя раннему развитию клинического мышления.

Параллельно в апреле на базе РНПЦ фтизиатрии и пульмонологии им. С. Султанова в г. Нукус был реализован фтизиатрический модуль для 12 студентов КазНМУ. Уникальность курса заключалась в изучении региональных эпидемиологических особенностей мультирезистентного туберкулеза в зоне Приаралья. Студенты обучились алгоритмам дифференциальной диагностики между соматическими заболеваниями легких, а также ознакомились с работой современных экспресс-лабораторий (GeneXpert MTB/RIF). Обратная связь по итогам анкетирования группы из 12 человек продемонстрировала высокие результаты интеграции (Таблица 1).

**Таблица 1. Мониторинг удовлетворенности студентов КазНМУ качеством обучения по циклу «Фтизиатрия» на базе РНПЦФП им. С. Султанова ($n=12$)**

| **Параметр анкеты (критерий оценки)** | **Средний балл ($M \pm m$)** | **Абсолютная удовлетворенность (%)** |
|---|---|---|
| 1. Доступность, логичность и глубина лекционного материала | 4,95 ± 0,02 | 99,0% |
| 2. Практическая ценность разбора клинических кейсов | 4,98 ± 0,01 | 99,6% |
| 3. Демонстрация региональных особенностей патологии | 5,00 ± 0,00 | 100,0% |
| 4. Материально-техническое оснащение базы РНПЦФП | 4,95 ± 0,02 | 99,0% |
| 5. Профессионализм и комплаентность преподавателя | 5,00 ± 0,00 | 100,0% |

Kirish resurslariga asosiy fondlar, mehnat resurslari, moliyaviy kapital, investitsiyalar, energiya va moddiy resurslar, axborot texnologiyalari hamda innovatsion salohiyat kiradi. Ishlab chiqarish jarayoni ushbu resurslardan foydalanish, tashish va xizmat ko‘rsatish, texnik xizmat, ta’mirlash, texnologik modernizatsiya, boshqaruv va innovatsiyalarni joriy etishni qamrab oladi. Natijaviy blok esa ishlab chiqarish va tashish hajmi, daromad, foyda, mehnat unumdorligi, rentabellik, aktivlar va xarajatlar samaradorligi, raqobatbardoshlik hamda innovatsion rivojlanish natijalaridan iborat.

Temir yo‘l sanoatining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning ko‘pligi ularni ilmiy jihatdan tizimlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Omillarni faqat ichki va tashqi guruhlarga ajratish yetarli emas. Ularning kelib chiqishi,

boshqarilish darajasi, ta’sir muddati, iqtisodiy mazmuni va natijaga ta’sir qilish xususiyatini ham hisobga olish lozim.

**1-jadval. Temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar**

| 1 | Asosiy elementlar | Ta’sir obyekti | Kutiladigan iqtisodiy natija |
|---|---|---|---|
| Ishlab chiqarish-texnik | asosiy fondlar, ishlab chiqarish quvvati, texnik jihozlanganlik | ishlab chiqarish jarayoni | unumdorlik va quvvatlardan foydalanishning oshishi |
| Investitsion | kapital qo‘yilmalar, modernizatsiya loyihalari | asosiy fondlar va texnologiyalar | texnologik yangilanish |
| Innovatsion-texnologik | yangi texnologiyalar, avtomatlashtirish, raqamlashtirish | ishlab chiqarish va boshqaruv | xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish |
| Mehnat | malaka, mehnat unumdorligi, qayta tayyorlash | inson kapitali | mehnat natijadorligini oshirish |
| Moliyaviy-iqtisodiy | daromad, xarajat, foyda, rentabellik | moliyaviy barqarorlik | iqtisodiy samaradorlik |
| Institutsional | davlat siyosati, qonunchilik, tarif va raqobat muhiti | korxonaning faoliyat muhiti | investitsion va bozor faolligi |
| Bozor | talab, taklif, xizmat sifati, raqobat | bozor pozitsiyasi | tushum va raqobatbardoshlik |
| Tashqi iqtisodiy | xalqaro savdo, tranzit, geoiqtisodiy sharoit | tashqi talab | tranzit va eksport salohiyati |
| Ekologik | energiya samaradorligi, ekologik talablar, yashil texnologiyalar | barqaror rivojlanish | resurs tejamkorligi va uzoq muddatli barqarorlik |

Keltirilgan klassifikatsiya innovatsion rivojlanishni biror alohida texnologiya yoki investitsiya loyihasining natijasi sifatida emas, balki turli omillarning o‘zaro ta’siridan shakllanuvchi kompleks iqtisodiy jarayon sifatida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, boshqariladigan omillarni tashqi muhit omillaridan ajratish

korxona darajasida boshqaruv qarorlarining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishiga institutsional muhit ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi O‘RQ-1006-son “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonunida qonuniylik, xavfsizlik, ochiqlik va shaffoflik, barqarorlik, ekologik tozalik, xizmatlarning qulayligi va sifati, infratuzilmadan foydalanishdagi tenglik hamda uning uzluksiz ishlashi temir yo‘l transporti faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida belgilangan [2].

Mazkur tamoyillar sanoat iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan korxonalarning innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi institutsional shart-sharoitlarni shakllantiradi. Infratuzilmadan teng foydalanish raqobat muhitini rivojlantirishga, ochiqlik va shaffoflik investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga, xizmat sifati bozor talabini qondirishga, ekologik talablar esa uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu jihatdan temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini faqat korxona ichidagi texnologik o‘zgarishlar bilan bog‘lash metodologik jihatdan yetarli emas. Makroiqtisodiy va institutsional muhit, investitsiya sharoitlari, transport xizmatlari bozori va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari korxona darajasidagi innovatsion jarayonlarning natijadorligini belgilovchi tashqi omillar sifatida hisobga olinishi kerak.

Olib borilgan nazariy umumlashtirish asosida temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini quyidagi konseptual ketma-ketlik orqali ifodalash taklif etiladi:

**INVESTITSIYA: Texnologik yangilanish – Raqamlashtirish va innovatsiya – Resurslardan foydalanish samaradorligi – Mehnat va kapital unumdorligi-Iqtisodiy samaradorlik – Raqobatbardoshlik – Barqaror innovatsion rivojlanish.**




**1-rasm. Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi.**

Mazkur bog‘liqlikning iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, investitsiyalar asosiy fondlarni yangilash, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamli

transformatsiya uchun moddiy-moliyaviy asos yaratadi. Texnologik yangilanish ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Resurs samaradorligining oshishi mehnat va kapital unumdorligida, keyinchalik esa xarajatlarning optimallashuvi, rentabellik va iqtisodiy samaradorlikning yaxshilanishida namoyon bo‘ladi. Ushbu natijalar korxonaning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqot doirasidagi birinchi ilmiy natija sifatida **temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini baholashda alohida texnik yoki moliyaviy ko‘rsatkichlardan kompleks resurs–jarayon–natija yondashuviga o‘tish zarurati metodologik jihatdan asoslanadi**.

Ikkinchi ilmiy natija sifatida esa **innovatsion rivojlanish omillarining korxona ichki resurslari, innovatsion-transformatsion jarayonlari, natijaviy ko‘rsatkichlari va tashqi institutsional muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi tizimlashtiriladi**. Bunday yondashuv keyingi bosqichlarda omillarning natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sirini statistik va ekonometrik usullar yordamida miqdoriy baholash uchun metodologik asos yaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin.

Birinchidan, temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini faqat tashish hajmining o‘sishi yoki yangi texnologiyaning joriy etilishi bilan baholash yetarli emas. Rivojlanish ishlab chiqarish, moliyaviy, investitsion, innovatsion, texnologik va mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liq tizimi asosida baholanishi lozim.

Ikkinchidan, innovatsion rivojlanish metodologiyasida tizimli, kompleks, resurslarga yo‘naltirilgan, investitsion, innovatsion va natijaga yo‘naltirilgan yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda innovatsiyaning mavjudligi emas, uning iqtisodiy natijaga aylanish darajasi asosiy baholash mezonlaridan biri bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni ishlab chiqarish-texnik, investitsion, innovatsion-texnologik, mehnat, moliyaviy, bozor, institutsional, tashqi iqtisodiy va ekologik guruhlar bo‘yicha tizimlashtirish boshqaruv qarorlarini shakllantirish uchun metodologik asos yaratadi.

To‘rtinchidan, investitsiya, texnologik yangilanish, raqamlashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligi, mehnat va kapital unumdorligi, iqtisodiy

samaradorlik hamda raqobatbardoshlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olish temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning konseptual asosi sifatida qo‘llanishi mumkin.

Beshinchidan, keyingi tadqiqot bosqichlarida mazkur metodologik yondashuvni temir yo‘l sanoat korxonalarining real iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida empirik tekshirish, natijaviy ko‘rsatkichlar va ularga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy baholash hamda tegishli ekonometrik modellarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temir yo‘l transporti korxonalarini rivojlantirishga metodologik yondashuvlar bo‘yicha tadqiqot materiallari. 1.1-bo‘lim.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi O‘RQ-1006-son “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi O‘RQ-706-son “Transport to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-329-son “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. Temir yo‘l sanoatidagi korxonalar faoliyatini baholash uslubiy yo‘llari bo‘yicha tadqiqot materiallari. 1.2-bo‘lim.
6. Temir yo‘l transporti sanoatiga ta’sir etuvchi omillar klassifikatsiyasi bo‘yicha tadqiqot materiallari. 1.4-bo‘lim.

# TIJORAT BANKLARIDA ANNUITET USULIDA KREDIT TO’LOVLARINI HISOBLASH ALGORITMI VA UNING MATEMATIK TAHLILI

Ergashov Sultanmurod
*Qo‘qon universeti Andijon filliali*
sultonmurodergashev077@gmail.com
Komiljonov Bobur Komiljon o‘g‘li
*Qo‘qon universeti Andijon filliali*
komiljonovbobur33@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Iqtisodiyot va Moliya yo’nalishi talabalari uchun tijorat banklari kredit amaliyotida keng qo’llaniladigan annuitet to’lov usuli va uning matematik-iqtisodiy modeli tadqiq etilgan. Annuitet to’lovlarini hisoblash algoritmi, oylik o’zgarmas to’lov miqdorining geometrik progressiya va moliyaviy matematika tenglamalari asosida keltirib chiqarilishi batafsil tahlil qilingan.*

***Kalit so’zlar:*** *annuitet to’lov, kredit foizi, moliyaviy matematika, hisoblash algoritmi, kredit muddati, asosiy qarz, oylik to’lov, bank amaliyoti.*

***Аннотация.*** *В данной статье исследуется метод аннуитетных платежей, широко используемый в кредитной практике коммерческих банков, и его математико-экономическая модель для студентов направления “Экономика и финансы”. Подробно анализируется алгоритм расчёта аннуитетных платежей, а также вывод величины фиксированного ежемесячного платежа на основе геометрической прогрессии и уравнений финансовой математики.*

***Ключевые слова:*** *аннуитетный платёж, кредитный процент, финансовая математика, алгоритм расчёта, срок кредита, основной долг, ежемесячный платёж, банковская практика.*

***Abstract.*** *This article examines the annuity payment method widely used in the credit practices of commercial banks and its mathematical-economic model for students majoring in Economics and Finance. The algorithm for calculating annuity payments and the derivation of the fixed monthly payment amount based on geometric progression and financial mathematics equations are analyzed in detail.*

***Keywords:*** *annuity payment, loan interest, financial mathematics, calculation algorithm, loan term, principal debt, monthly payment, monthly payment, banking practice.*

**Kirish**.Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining kreditlash amaliyoti moliya tizimining muhim bo’g’inlaridan biri hisoblanadi. Bank kreditlarini qaytarish va ularga hisoblangan foizlarni undirishda tabaqalashtirilgan (differensial) hamda annuitet to’lov usullaridan keng foydalaniladi. Shular orasida kredit muddati davomida teng miqdordagi to’lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi annuitet usuli amaliyotda keng qo’llaniladi [1, 2].

Annuitet to’lov usulini matematik jihatdan o’rganish Iqtisodiyot va moliya yo’nalishi talabalari uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu mavzu orqali talabalar kredit foizlarini hisoblash, asosiy qarz va foiz to’lovlarining o’zaro bog’liqligini aniqlash hamda moliyaviy hisob-kitoblarni matematik modellar asosida amalga oshirish ko’nikmalarini egallaydilar [3,4,5].

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Iqtisodiyot va moliya yo’nalishi talabalariga annuitet to’lov usulining matematik asoslarini tushuntirish, oylik to’lov miqdorini aniqlash algoritmini keltirib chiqarish hamda asosiy qarz va foiz to’lovlarining o’zgarishini amaliy misollar asosida yoritishdan iborat.

Bank kreditini har oy bir hil summaga bo’lib to’lab boriladigon to’lov tizimiga anuitet to’lov tizimi deyiladi.

**Asosiy qism.** Annuitet to’lov usulida oylik to’lov miqdorini aniqlash va diskontlash munosabatlarini shakllantirish uchun moliyaviy matematikaning va geometrik progressiyaning cheksiz kamayuvchi qonuniyatlaridan foydalaniladi.

Agar yillik foiz to’lovi $24\%$ bo’lsa oylik to’lov foiz $24\% \div 12 = 2\%$ bo’ladi. Bu holda $i = 0{,}02$ deb olinadi $(\frac{2}{100} = 0{,}02)$.

Bu usulda har oyda bir hil $B$ so’mdan $P = 0{,}02$ to’lanib qarz uziladi.

Olingan kredit $P$ mln so’m bo’lib uni qaytarish muddati $n$ oy bo’lsa, oylik to’lov miqdori $B$ quyidagi tahlil asosida aniqlanadi:

birinchi oyda

$$S_1 = B \cdot (1+p)^{-1} = \frac{B}{1+p}$$

ikkinchi oyda

$$S_2 = B \cdot (1+p)^{-1} + B \cdot (1+p)^{-2} = \frac{B}{1+p} + \frac{B}{(1+p)^2}$$

uchinchi oyda

$$S_3 = B\cdot(1+p)^{-1} + B\cdot(1+p)^{-2} + B\cdot(1+p)^{-3} = \frac{B}{1+p} + \frac{B}{(1+p)^2} + \frac{B}{(1+p)^3}$$

va xakazo, $n$ −oyda

$$S_n = B\cdot(1+p)^{-1} + B\cdot(1+p)^{-2} + \ldots + B\cdot(1+p)^{-n} = \frac{B}{1+p} + \frac{B}{(1+p)^2} + \ldots + \frac{B}{(1+p)^n}$$

$n$ −oyda to’lanadigan umumiy to’lov miqdori

$$S_n = \frac{B}{1+p}\left(1 + \frac{1}{1+p} + \left(\frac{1}{1+p}\right)^2 + \ldots + \left(\frac{1}{1+p}\right)^{n-1}\right)$$

ko’rinishda yozish mumkin .

Bundan

$$S_n = \frac{B}{1+p}\left(\frac{1-\left(\frac{1}{1+p}\right)^n}{1-\frac{1}{1+p}}\right) = \frac{B}{1+p}\cdot\frac{\frac{(1+p)^n-1}{(1+p)^n}}{\frac{1+p-1}{1+p}} = \frac{B}{1+p}\cdot\frac{(1+p)[(1+p)^n-1]}{p\cdot(1+p)^n} = B\cdot\frac{(1+p)^n-1}{p\cdot(1+p)^n}$$

ya’ni

$$S_n = B\cdot\frac{(1+p)^n-1}{p\cdot(1+p)^n}.$$

Bu tenglikdan

$$B = S_n\cdot\frac{p\cdot(1+p)^n}{(1+p)^n-1} \qquad (1)$$

tenglik kelib chiqadi.

Bunda

$B$ −oylik to’lov miqdori;

$P$ − kredit summa;

$p$ − oylik to’lov foiz miqdori (yillik me’yor 12 ga bolinadi);

$n$ − jami oylar soni :

Agar firma 600 million so’mni yillik 24% me’yorida 3 yilga ya’ni 36 oyga olgan bo’lsa kredit miqdori

$$S_n = P = 600\,000\,000\ so'm$$

yillik me’yor foizi 24% yoki $\frac{24}{100} = 0{,}24$ to’lov muddat 3 yil ya’ni 36 oy bo’lsa oylik foiz to’lov me’yori $p = \frac{0{,}24}{12} = 0{,}02$ (2%) ga teng bo’ladi. Oylik o’zgarmas to’lov miqdori $B$ (1) formula bo’yicha quyidagicha hisoblanadi:

$$B = 600\,000\,000 \cdot \frac{0{,}02(1+0{,}02)^{36}}{(1+0{,}02)^{36}-1} =$$

$$= 600\,000\,000 \cdot \frac{0{,}02 \cdot 2{,}030377}{2{,}030377-1} = 23\,646\,222{,}693247 \approx 23{,}646\ mln\ so'm.$$

Demak

$$B = 23{,}646\ mln\ so'm.$$

Umumiy ko’rsatkichlar quyidagi jadvalda berilgan

| Ko’rsatkichlar | Ko ‘rsatkichlar qiymatlari |
|---|---|
| Kredit miqdori $(P)$ | $600\,000\,000\ so'm$ |
| Oylik to’lov $(B)$ | $23\,646\,222{,}7\ so'm$ |
| Muddat | $36\ oy$ |
| Ja’mi to’lov | $851\,264\,017{,}2\ so'm$ |
| Ja’mi foiz to’lovi | $851\,264\,017{,}2 - 600\,000\,000 = 251\,264\,017{,}2$ |

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, 600 million so’m kredit olgan firma 3 yil davomida jami 851.26 million so’m to’laydi. Shundan 251.26 million so’m bankning foiz daromadi (kreditdan foydalanganlik uchun to’lov) hisoblanadi.

Annuitet to’lov usulining moliya-matematik tuzilishidagi eng muhim xususiyat shundaki, oylik to’lov summasi B (23 646 222.7 so’m) o’zgarmas bo’lsa-da, uning tarkibidagi asosiy qarz va foiz to’lovi nisbati har oyda o’zgarib boradi:

1. Birinchi oylarda qarzning qoldiq summasi katta bo’lganligi sababli, oylik to’lovning asosiy qismini hisoblangan foiz summasi tashkil etadi, asosiy qarzni uzish ulushi esa kichik bo’ladi.
2. Keyingi oylarda kredit qoldig’i kamayishi bilan hisoblanadigan foiz summasi qisqaradi va oylik to’lov tarkibida asosiy qarzni uzish ulushi mutanosib ravishda ortib boradi.

Tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki, annuitet usuli bank va mijoz uchun o’ziga xos qulayliklar va ma’lum xatarlarga ega. Qarz oluvchi korxona uchun birinchi oylardagi to’lov summasi differensial usulga nisbatan sezilarli darajada past bo’ladi. Masalan, differensial usulda 1-oydagi to’lov 28.6 million so’mni tashkil etgan bo’lsa, annuitetda u 23.64 million so’m bo me’yorida saqlanadi. Bu holat yangi

tashkil etilgan biznes sub’ektlarining dastlabki bosqichdagi likvidligini saqlashga xizmat qiladi.

Biroq, annuitet usulining kamchiligi shundaki, kredit muddatining birinchi yarmida asosiy qarz juda sekin uziladi. Agar mijoz kreditni muddatidan oldin yopmoqchi bo’lsa, u allaqachon foizlarning katta qismini to’lab bo’lgan bo’ladi. Shu sababli, bank va mijozlar uchun quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

1. Tijorat banklari kredit shartnomalarida annuitet va differensial to’lov grafiklarini shaffof taqqoslab ko’rsatishlari va mijozga tanlov imkoniyatini berishlari lozim.

2. Korxonalar uzoq muddatli va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda annuitet usulini, qisqa muddatli aylanma mablag’larni to’ldirishda esa differensial usulni tanlashlari maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi asosiy hulosalarga kelindi:

1. Annuitet to’lov tizimi moliyaviy matematikaning va diskontlash munosabatlarining aniq algoritmlariga tayangan holda shakllantiriladi va oylik teng to’lov (1) formula orqali aniqlanadi.

2. 600 mln so’mlik 3 yillik kredit misolida hisoblangan oylik 23.646 mln so’mlik annuitet to’lovi bank va qarz oluvchi uchun to’lovlarning barqarorligini ta’minlaydi.

3. Annuitet usulida oylik to’lov tarkibida dastlabki oylarda foiz to’lovlari ustunlik qilsa, kredit muddati yakunlanishi bilan asosiy qarz to’lovlari ulushi oshib boradi.

4. Keltirilgan hisoblash algoritmi va matematik-iqtisodiy model tijorat banklarining kredit portfelini optimallashtirish hamda korxonalarning moliyaviy menejmenti samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

5. Bu usulni algaritmini va mohiyatini tushunish Iqtisodiyot va Moliya yo’nalishi talabalari bilishi muhim ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev Yo.A., Qoraliyev T.M. Bank ishi: Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 480 b.

2. Saipnazarov Sh.A., Salimov D.T., Subhonov M.R., Iqisodchilar uchun matematika.-T.: “Iqtisodiyot” nashiryoti,–2022, 328-bet

3. Yo’ldoshev A., Karimov B. Moliyaviy matematika va kredit tahlili asoslari. – Toshkent: “Moliya”, 2021. – 230 b.

4. Xashimov A.R., Xujaniyozova G.S. Iqtisodchilar uchun matematika. Mustaqil ta’lim bo’yicha praktikum. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 400 b.

5. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory & Practice. 16th Edition. – Boston: Cengage Learning, 2019. – 832 p.

# OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA IJRO HOKIMIYATI APPARATI TRANSFORMATSIYASI VA MA’MURIY NAZORAT STRUKTURASINING MA’MURIY-HUQUQIY ASOSLARI

Jo‘rayev O‘zbekxon Dilshodbek o‘g‘li
*Farg‘ona davlat unversiteti*
*jurayevxofiz@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Konstitutsiyaviy normalar va “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun asosida ijro hokimiyati apparati transformatsiyasi va ommaviy boshqaruv shaffofligi tahlil qilingan. Idoraviy o‘zboshimchaliklarni jilovlash, protsessual muddatlarni nazorat qilish hamda arizalar, majlis bayonnomalarini yuritish tizimini to‘liq raqamlashtirish va "aqlli monitoring" modellarini joriy etish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan .*

***Kalit so‘zlar:*** *Ma’muriy huquq, ijro hokimiyati, ommaviy-huquqiy munosabatlar, Lex.uz, Konstitutsiya, diskretsion vakolat, ma’muriy tartib-taomillar, protsessual adolat, raqamlashtirish, bayonnoma.*

***Аннотация:*** *На основе конституционных норм и Закона «Об административных процедурах» проанализированы трансформация аппарата исполнительной власти и прозрачность публичного управления. Выдвинуты практические предложения по ограничению ведомственного произвола, контролю процессуальных сроков, полной цифровизации систем ведения заявлений и протоколов заседаний, а также внедрению моделей «умного мониторинга».*

***Ключевые слова:*** *Административное право, исполнительная власть, публично-правовые отношения, Lex.uz, Конституция, дискреционное полномочие, административные процедуры, процессуальная справедливость, цифровизация, протокол.*

***Abstract:*** *Based on constitutional norms and the Law "On Administrative Procedures", the transformation of the executive power apparatus and the transparency of public management are analyzed . Practical proposals are advanced to curb departmental arbitrariness, control procedural deadlines, fully*

*digitalize application and meeting minutes systems, and implement "smart monitoring" models.*

***Keywords:*** *Administrative law, executive power, public-legal relations, Lex.uz, Constitution, discretionary power, administrative procedures, procedural justice, digitalization, minutes.*

## KIRISH

Ommaviy-huquqiy munosabatlar tizimida ma’muriy huquq predmeti va usullari shunchaki davlat boshqaruvining tarmoq xususiyatlarini ifodalamaydi, balki jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy jarayonlar ustidan universal ijro hamda nazorat funksiyalarini amalga oshiruvchi markaziy institut hisoblanadi.Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida ijro hokimiyati apparati transformatsiyasi va universal ma’muriy nazorat strukturasining huquqiy asoslarini tizimli tadqiq etish strategik dolzarblikka ega. Davlat boshqaruvi subyektlarining imperativ vakolatlari hamda huquqiy munosabatlar muvozanatining qonuniy ta’minlanishi — ommaviy boshqaruvda barqaror makroiqtisodiy o‘sishni, huquqiy asimmetriyaga barham berishni hamda idoraviy sansalorlik inqirozini bartaraf etishni kafolatlovchi bosh omildir. Ushbu jarayonlarning fundamental asosi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XX bobi doirasidagi normalarda o‘zining oliy yuridik aksini topgan.

Konstitutsiyaning 114-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi hamda o‘z faoliyatini Prezident tomonidan belgilanadigan asosiy yo‘nalishlar doirasida yuritadi. Hukumat tarkibiy jihatdan universal boshqaruv apparati maqomiga ega bo‘lib, uning barcha ijtimoiy-iqtisodiy, soliq va budjet siyosati amalga oshirilishi uchun javobgarligi 115-moddada qat’iy belgilangan. Hukumat zimmasiga kambag‘allikni qisqartirish, qulay investitsiyaviy muhit yaratish, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini ta’minlash hamda ijro etuvchi hokimiyat organlari ishini muvofiqlashtirish va yo‘naltirish majburiyatining yuklatilishi ma’muriy huquqning universal tartibga solish kuchidan dalolat beradi. Ayniqsa, ushbu moddaning 10-bandida ijro organlari ishida ochiqlik, shaffoflik va qonuniylikni ta’minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish majburiyatining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi ma’muriy apparat faoliyatini cheklovchi fundamental yuridik filtrdir.

Ma’muriy-huquqiy tartibga solishning imperativ tabiati Konstitutsiyaning 116-moddasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi butun

hududdagi barcha organlar, korxonalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Biroq, ushbu universal vakolatlar doirasi tarqoq idoraviy qonunchilik sharoitida subyektiv diskretsion (ixtiyoriy) vakolatlarning kengayishiga va ma’muriy o‘zboshimchaliklarga yo‘l ochishi mumkin. Shu sababli, Konstitutsiyaning 117, 118 va 119-moddalarida mustahkamlangan Bosh vazir va Hukumat a’zolarining Oliy Majlis oldidagi javobgarligi, parlament so‘rovlariga javob berish majburiyati hamda parlamentar ishonchsizlik votumi (*votum of no confidence*) instituti universal ijro apparati ustidan o‘rnatilgan oliy siyosiy-protsessual to‘siq vazifasini bajaradi.

Qonunchilik loyihalarini ma’qullashda Bosh vazir tomonidan yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturining taqdim etilishi hamda Qonunchilik palatasining Hukumat a’zosini iste’foga chiqarish to‘g‘risida Prezidentga taklif kiritish huquqi ijro hokimiyati transformatsiyasining shaffof mezonlaridan biridir. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi — XX bobdagi konstitutsiyaviy normalar hamda “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun prinsiplari asosida, ma’muriy huquqning barcha sohalar ustidan universal boshqaruv salohiyatini kriminologik va yuridik jihatdan tahlil etish, ijro apparati strukturasini takomillashtirish hamda ommaviy-huquqiy munosabatlarda qonun ustuvorligini kafolatlovchi raqamli va protsessual mexanizmlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Ommaviy-huquqiy munosabatlar doktrinasida ijro hokimiyati apparatining barcha ijtimoiy-iqtisodiy va ma’muriy tarmoqlar ustidan universal nazorat o‘rnatish vakolati davlat boshqaruvining huquqiy barqarorligini ta’minlovchi fundamental drayver hisoblanadi. Konstitutsiyaning 114 va 115-moddalari normalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Vazirlar Mahkamasi nafaqat iqtisodiy, soliq va budjet siyosatining ijrosi, balki soliq-bojxona tizimi, litsenziyalash va ruxsatnomalar, monopol faoliyatni cheklash hamda nazorat inspeksiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha universal huquqiy qurolga ega . Ma’muriy-huquqiy qonuniyatlarga ko‘ra, Hukumatning barcha organlar, korxonalar va mansabdor shaxslar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar chiqarish huquqi (116-modda) davlat apparatining vertikal boshqaruv qudratini mustahkamlaydi. Biroq, amaldagi huquqni qo‘llash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ushbu universal buyruqbozlik (imperativ) tizimi tarqoq idoraviy qonunchilik va aniq chegaralanmagan diskretsion (ixtiyoriy) vakolatlar sharoitida boshqaruv apparatida idoraviy sansalorlik hamda huquqbuzarlik risklarini vujudga keltirishi mumkin.

Xususan, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun prinsiplari ijro hokimiyati subyektlarining jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ta’sir choralarini

qo‘llashda faqat qonuniy mezonlarga tayanishini taqozo etsa-da, amaliyotda nazorat qiluvchi inspeksiyalar (soliq, sanitariya, yong‘in xavfsizligi) tomonidan sanksiya turini tanlashda inson omili hamon saqlanib qolmoqda. Konstitutsiyaning 115-moddasi 10-bandida ijro organlari ishida ochiqlik, shaffoflik va qonuniylikni ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish majburiyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuklatilgan bo‘lsa-da, nazorat tizimining to‘liq kodifikatsiya qilinmaganligi, ya’ni tarqoq huquqiy normalarning ko‘pligi ma’muriy asimmetriyani keltirib chiqarmoqda. Agar universal boshqaruv tizimidagi ushbu diskretsion bo‘shliqlar raqamli va protsessual filtrlar orqali de-yure cheklanmasa, davlat apparatining ommaviy-huquqiy munosabatlardagi samaradorligi deklarativ shaklda qolib ketadi.

Ushbu funksional inqirozni muvozanatlashtirishda Konstitutsiyaning 118 va 119-moddalarida mustahkamlangan parlamentar nazorat va ishonchsizlik votumi (*votum of no confidence*) institutlari oliy protsessual to‘siq vazifasini bajaradi. Qonunchilik palatasi tomonidan Bosh vazir nomzodini ma’qullash jarayonida Hukumat harakat dasturining eshitilishi hamda parlament a’zolarining individual Vazirlar Mahkamasi a’zosini iste’foga chiqarish bo‘yicha Prezidentga taklif kiritish huquqi universal ijro apparatining siyosiy javobgarligini ta’minlaydi. Shuningdek, ma’muriy organlarning ommaviy sohalar ustidan qabul qilgan qonunga xilof qarorlari ustidan Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks normalari asosida sud nazorati filtrlarini proaktiv kuchaytirish ma’muriy o‘zboshimchalik refleksini yo‘qotuvchi oliy kafolatdir. Demak, ma’muriy huquqning universal boshqaruv kuchi jamiyat hayotini qat’iy tartibga solish bilan bir qatorda, raqamlashtirilgan reglamentlar va sud-parlament nazorati muvozanatiga tayangandagina ommaviy-huquqiy munosabatlarda qonun ustuvorligini real ta’minlay oladi.

Ommaviy-huquqiy munosabatlarda ijro hokimiyati apparatining universal boshqaruv kuchi faqatgina imperativ qarorlar qabul qilish vakolati bilan emas, balki ma’muriy organlar tomonidan arizalarni ko‘rib chiqishda qo‘llaniladigan protsessual filtrlarning shaffofligi hamda fuqarolarning huquqiy himoyalanganlik darajasi bilan o‘lchanadi. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun normalariga ko‘ra, ma’muriy ish yuritishning dastlabki bosqichidayoq subyektlarga zarur axborotni taqdim etish (44-modda) davlat organlarining qonuniy majburiyati hisoblanadi. Ma’muriy organ arizaning shakli, mazmuni, zarur hujjatlar ro‘yxati va shikoyat qilish tartibiga oid ma’lumotlarni, shu jumladan rasmiy veb-saytlar orqali taqdim etishi shartligi belgilangan. Siyosiy-huquqiy qonuniyatlarga ko‘ra, ma’muriy apparat tomonidan arizachiga qonunchilikka muvofiq zarur yordam ko‘rsatilishi

*(sabab)* — fuqarolarda davlat idoralariga nisbatan ishonchni mustahkamlab, huquqiy nigilizm unsurlarini yo‘qotishga *(oqibat)* xizmat qiladi.

Biroq, boshqaruv munosabatlari transformatsiyasi sharoitida protsessual adolat prinsiplarining buzilishi va idoraviy o‘zboshimchalik risklari aynan arizalardagi kamchiliklarni bartaraf etish bosqichida ko‘p kuzatiladi. Qonunning 45-moddasida arizada to‘g‘rilash mumkin bo‘lgan xatolar mavjud bo‘lganda yoki yetishmayotgan hujjatlarni taqdim etish zarur bo‘lganda, ma’muriy organ arizachiga besh ish kunidan kam bo‘lmagan muddat berishi va muddat o‘tishini to‘xtatib turishi qat’iy mustahkamlangan. Amaliyotda esa ayrim ma’muriy organlar ushbu muddatlarni asossiz ravishda qisqartirish yoki ariza beruvchining shaxsiy ishtirokini talab qilib, sun’iy byurokratik to‘siqlar yaratish orqali korrupsion risklarni keltirib chiqarmoqda. Vaholanki, talab qilinayotgan hujjat o‘z vakolatiga kirmaydigan ma’muriy organga tushgan taqdirda ham, uning 46-modda talabi asosida besh kunlik muddatda vakolatli organga inson omilisiz, avtomatik ravishda yuborilishi ma’muriy apparatning funksional integratsiyalashganligini ta’minlashi lozim.

Ma’muriy nazorat strukturasining eng oliy va shaffof bosqichi — ma’muriy ishni organ majlisida ko‘rib chiqish va bayonnoma yuritish institutidir (47 va 48-moddalar). Majlis bayonnomasida adresatning, vakilning ma’lumotlari, tushuntirishlar, dalillar va protsessual qarorlarning majburiy tartibda yozilishi ma’muriy organ mansabdor shaxsining subyektiv ta’sirini jilovlovchi eng asosiy huquqiy filtrdir. Qonunning 49-moddasiga ko‘ra, manfaatdor shaxslarning xabardor qilinmaganligi yoki uzrli sabablarga ko‘ra kelmaganligi sababli ishni ko‘rib chiqishni keyinga qoldirish mexanizmi protsessual asimmetriyani muvozanatlashtiradi. Demak, qonunda belgilangan ushbu protsessual majburiyatlar shunchaki rasmiyatchilik emas, balki ijro hokimiyati apparatining har bir ommaviy-huquqiy qarori ustidan nazorat o‘rnatuvchi tirik mexanizmdir. Agar ushbu majlis bayonnomalari va arizalarni qayta ishlash tizimi to‘liq "aqlli monitoring" va elektron tizimlarga o‘tkazilmasa, ma’muriy organlarning universal boshqaruv kuchi fuqarolarni ma’muriy tobelik refleksida ushlab turuvchi byurokratik qurolga aylanib qolishi xavfi yuqori bo‘lib qolaveradi.

**1. Ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish majlislarini to‘liq raqamlashtirish va "Yagona raqamli ma’muriy bayonnoma" tizimini joriy etish.** Qonunning 47 va 48-moddalarida ma’muriy ishlarni majlisda ko‘rib chiqish va bayonnoma yuritish majburiy etib belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda bayonnomalarning qog‘oz shaklida subyektiv yuritilishi mansabdor shaxslarga dalillarni o‘z xohishicha talqin qilish imkonini bermoqda. Taklif: Ma’muriy organ

majlislarini majburiy tartibda audio-video fiksatsiya qilish va bayonnomalarni real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan shifrlangan elektron tizimga integratsiya qilish lozim. Ushbu raqamli platforma, adresat va uchinchi shaxslarning ko‘rsatuvlarini inson omilisiz qayd etib, ma’muriy ish materiallariga avtomatik biriktirishi va nusxasini real vaqtda arizachining shaxsiy kabinetiga yuborishi qonunchilikda majburiy imperativ sifatida mustahkamlanishi shart.

**2. Arizalarni ko‘rib chiqish muddatlarini va 45-moddadagi "Xatolarni bartaraf etish muddatini" raqamli proaktiv bloklash tizimiga o‘tkazish.** Qonunning 45 va 46-moddalarida belgilangan besh kunlik muddatlar hamda ishlarni taalluqliligi bo‘yicha yuborish tartibi amaliyotda ko‘pincha inson omili sababli buzilmoqda, bu esa fuqarolarni ma’muriy tobelik refleksida ushlab turadi. Taklif: Ma’muriy organlar yuritadigan elektron platformalarda muddatlarni nazorat qiluvchi avtomatlashtirilgan bloklash tizimini o‘rnatish zarur. Agar ma’muriy organ arizadagi xatolarni to‘g‘rilash uchun arizachiga qonunda belgilangan besh ish kunidan kam muddat bersa yoki muddat o‘tishini to‘xtatib turish majburiyatini bajarmasa, raqamli tizim mansabdor shaxsning keyingi harakatlarini avtomatik bloklashi va holat bo‘yicha Adliya vazirligining nazorat inspeksiyasiga tezkor kriminologik signal yo‘llashi qonunchilik darajasida reglamentatsiya qilinishi shart.

Ilgari surilgan raqamli va protsessual tashabbuslarning ommaviy-huquqiy munosabatlarga integratsiya qilinishi quyidagi natijalarni kafolatlaydi:

**Protsessual adolat:** Ma’muriy ish yuritish jarayonlari va majlis bayonnomalarining to‘liq raqamlashtirilishi o‘rta bo‘g‘in amaldorlarining subyektiv ta’sirini butunlay yo‘q qiladi va ijro apparati faoliyatida shaffoflikni ta’minlaydi.

**Byurokratiyaning kamayishi:** Arizalarni qabul qilish, xatolarni to‘g‘rilash muddatlarini elektron bloklash orqali davlat organlaridagi sun’iy to‘siqlar va idoraviy sansalorlik holatlari barvaqt jilovlanadi.

**Huquqiy ishonch:** Fuqarolarning ma’muriy organlar oldidagi subyektiv tobelik kayfiyati barham topadi, bu esa jamiyatda huquqiy nigilizmni sindirib, qonun ustuvorligiga nisbatan barqaror ijtimoiy ishonchni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ommaviy-huquqiy munosabatlarda ijro hokimiyati apparati transformatsiyasi va ma’muriy nazorat strukturasini modernizatsiya qilish — faqatgina boshqaruv organlarining vakolatlarini kengaytirish bilan emas, balki protsessual normalarning qat’iy va adolatli ishlashi bilan ta’minlanadigan deterministik jarayondir. Ijro hokimiyati apparatining universal tartibga solish kuchi qonunda mustahkamlangan ochiqlik, shaffoflik

hamda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy himoyasi prinsiplari bilan muvozanatlashgandagina kutilgan strategik samarani beradi.

Konstitutsiyaning XX bobida belgilangan Hukumatning samarali iqtisodiy, ijtimoiy va budjet siyosati uchun javobgarligi hamda ijro organlari ishini muvofiqlashtirish majburiyati faqatgina “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun normalerining protsessual aniqligi orqali o‘zining hayotiy isbotini topadi. Arizalarni ko‘rib chiqishda ko‘rsatiladigan majburiy ko'mak, kamchiliklarni bartaraf etish uchun minimal muddatlarning berilishi hamda majlis bayonnomalarini yuritish institutlari ma’muriy organ mansabdor shaxsining o‘zboshimchalik doirasini de-yure cheklovchi fundamental filtrlardir.

Ushbu tizimli maqsadlarga erishish ma’muriy tartib-taomillarning har bir bosqichida preventiv monitoring samaradorligiga tayanib, byurokratik tendensiyalarni barvaqt bartaraf etish imkonini beradi. Sotsiologik, maxsus va huquqiy tahlillarning muntazam o‘tkazilishi ommaviy boshqaruvdagi suiiste'molliklarni real vaqt rejimida prognoz qilish hamda qonunchilikdagi subyektiv to'siqlarni to‘liq jilovlash imkonini beradi. Axborot olish erkinligi va davlat idoralari faoliyatining konstitutsiyaviy shaffofligi ta’minlanishi esa, fuqarolarning huquqiy ongidagi har qanday deformatsiyalarni cheklab, ma’muriy o‘zboshimchalikka qarshi daxlsiz ijtimoiy-huquqiy to‘siq yaratadi.

Ilg‘or xalqaro andozalarning milliy huquqiy tizimga samarali singdirilishi va Vazirlar Mahkamasi darajasida hukumat qarorlarining kolliziyalardan doimiy ravishda tozalanib borilishi, O‘zbekistonda uzoq muddatli va barqaror huquqiy ekotizim poydevorini mustahkamlaydi. Protsessual adolat qoidalarining va ma’muriy sudlov nazoratining rivojlantirilishi — shunchaki davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi emas, balki kelajak avlod uchun adolatli ommaviy-huquqiy makon hamda inson kapitalining xavfsiz taraqqiyotini kafolatlovchi strategik imperativdir.

Yakuniy xulosa sifatida aytish joizki, taklif etilayotgan elektron bayonnoma tizimlari hamda protsessual muddatlarni avtomatlashtirilgan bloklash mexanizmlarining qonunchilikka implementatsiya qilinishi davlat xizmatchilarida qonuniylik va xolislik refleksini mustahkamlaydi. Universal ma’muriy buyruqbozlik (imperativ) modelidan to‘liq raqamlashgan, proaktiv va Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks nazorati ostidagi muvozanatlashgan boshqaruv ekotizimiga o‘tish — Yangi O‘zbekistonda fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashning hamda demokratik huquqiy davlat poydevorini mustahkamlashning eng oliy kafolatidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi** (yangi tahriri).2023-yil
2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi **“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi O‘RQ-457-sonli Qonuni**.
3. O‘zbekiston Respublikasining **Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi**.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.uz.

# OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI MILLIY REYTINGIDA NATIJALARNI BOSHQARUV QARORLARIGA TRANSFORMATSIYA QILISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH

Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*mukhlisamamajonova0080@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Tezisda oliy ta’lim tashkilotlari milliy reytingini yuritish tartibini belgilovchi Nizomning (ro‘yxat raqami 3783) bandma-band normativ tahlili natijalari keltirilgan. Tahlil Nizom ma’lumotlarni shakllantirish, verifikatsiya qilish, ballarni hisoblash va natijalarni e’lon qilish bosqichlarini batafsil tartibga solishini, reyting maqsadlaridan biri sifatida esa strategik qarorlar uchun asos yaratishni belgilashini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, mazkur hujjat doirasida baholash natijasini diagnostika, boshqaruv qarori, tuzatish chorasi va qayta baholashga aylantiruvchi operatsional sikl nazarda tutilmagan. Aniqlangan bo‘shliqni bartaraf etish uchun besh bosqichli mexanizm taklif etilib, u Nizomdagi mavjud kalendar muddatlariga moslashtirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *milliy reyting, oliy ta’lim tashkiloti, boshqaruv qarori, monitoring sikli, normativ tahlil, ta’lim sifati.*

***Abstract.*** *This thesis presents a clause-by-clause normative analysis of the Regulation on the National Ranking of Higher Education Institutions of Uzbekistan (registration No. 3783). The analysis shows that the Regulation sets out in detail the stages of data submission, verification, scoring, and publication of results, and names the creation of a basis for strategic decisions among the ranking's objectives. However, the Regulation does not provide an operational cycle that turns assessment results into diagnosis, management decisions, corrective action and re-measurement. To address this gap, a five-stage mechanism is proposed and aligned with the calendar deadlines already set by the Regulation.*

***Keywords:*** *national ranking, higher education institution, management decision, monitoring cycle, normative analysis, education quality.*

***Аннотация.*** *В тезисе представлены результаты постатейного нормативного анализа Положения о ведении национального рейтинга*

*организаций высшего образования Узбекистана (регистрационный № 3783). Анализ показал, что Положение детально регламентирует этапы формирования данных, верификации, расчёта баллов и публикации результатов, а в числе целей рейтинга называет создание основы для принятия стратегических решений. Вместе с тем в рамках данного документа не предусмотрен операционный цикл, преобразующий результаты оценки в диагностику, управленческое решение, корректирующие меры и повторное измерение. Для устранения выявленного пробела предложен пятиэтапный механизм, согласованный с календарными сроками, установленными Положением.*

***Ключевые слова:*** *национальный рейтинг, организация высшего образования, управленческое решение, цикл мониторинга, нормативный анализ, качество образования.*

## KIRISH

Zamonaviy oliy ta’lim boshqaruvida reyting tizimlari nafaqat axborot manbai, balki institutsional xulq-atvorni shakllantiruvchi vositaga ham aylanib bormoqda. Reytinglarning davlat siyosati va universitetlar strategiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy adabiyotlarda keng tahlil qilingan [4]. V. Espeland va M. Sauder ommaviy baholash ko‘rsatkichlari baholanayotgan tashkilotlar faoliyatini o‘lchov yo‘nalishiga qarab qayta shakllantirishini, ya’ni reaktivlik hodisasini empirik asoslab bergan [5].

Biroq o‘lchov va hisobot amaliyotining kengayishi o‘z-o‘zidan faoliyat sifatining oshishiga olib kelmaydi. M. Power “audit jamiyati” konsepsiyasida tekshiruv va hisobot tartib-taomillari ayrim hollarda faoliyatni takomillashtirish vositasidan ko‘ra rasmiy tasdiq olish marosimiga aylanib qolishini ko‘rsatgan [6]. J. Muller esa ko‘rsatkichlar boshqaruv mulohazasi o‘rnini bosa boshlaganda yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni tizimlashtirgan [7]. Leyden manifestida ham miqdoriy baholash ekspert bahosini almashtirmasligi, balki uni qo‘llab-quvvatlashi lozimligi ta’kidlangan [8].

Bundan kelib chiqib, milliy reyting tizimini tahlil qilishda ikki masalani farqlash zarur: tizim nimani va qanday o‘lchashi hamda o‘lchov natijasidan boshqaruvda qanday foydalanilishi. Muallifning oldingi ishida birinchi masala, ya’ni milliy reyting indikatorlarining xalqaro reyting tizimlari bilan muvofiqligi tahlil qilingan edi [9]. Mazkur tezis ikkinchi masalaga, ya’ni o‘lchovdan keyingi bosqichga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim tashkilotlari milliy reytingini yuritish tartibini belgilovchi normativ hujjatda o‘lchov natijalarini boshqaruv qaroriga aylantirish masalasi qay darajada tartibga solinganini aniqlash hamda aniqlangan bo‘shliqni bartaraf etuvchi mexanizmni taklif etishdan iborat.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti sifatida Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi direktorining 2026-yil 6-fevraldagi 8-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2026-yil 28-fevralda 3783-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan Oliy ta’lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda Nizom) olindi [2]. Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoniga muvofiq qabul qilingan [1].

Tadqiqotda sifat tadqiqotlarida keng qo‘llaniladigan hujjatlarni tahlil qilish usulidan foydalanildi [10]. Nizomning 35 bandi va 3 ilovasi bandma-band o‘rganildi. Tahlil ikki bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda hujjatda tartibga solingan bloklar aniqlanib, baholash jarayoni bosqichlari bo‘yicha guruhlandi; ikkinchi bosqichda natijalar e’lon qilinganidan keyingi bandlar ajratib olinib, ularning huquqiy tabiati (protsessual, sanksion yoki boshqaruv normasi) bo‘yicha tasniflandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil Nizom baholash jarayonining asosiy bosqichlarini batafsil va izchil tartibga solishini ko‘rsatdi. Hujjatda ma’lumot manbalari va ularni taqdim etish muddatlari, verifikatsiya tartibi, so‘rovnomalarni o‘tkazish shartlari, ta’lim tashkilotlarini toifalarga ajratish mezonlari, ballarni normallashtirish tartibi hamda natijalarni e’lon qilish muddatlari belgilangan (1-jadval).

1-jadval. 3783-son Nizomda tartibga solingan bloklar

| T/r | Blok | Bandlar | Mazmuni |
|---|---|---|---|
| 1 | Milliy reyting maqsadlari | 2-band | Besh maqsad belgilangan |
| 2 | Ma’lumot manbalari | 6-9-bandlar | To‘rt manba, 1-fevral muddati |
| 3 | Verifikatsiya | 10, 15, 26-bandlar | Tanlov asosida va qayta verifikatsiya |
| 4 | So‘rovnomalar | 11-17-bandlar | Umummilliy va xalqaro obro‘ so‘rovnomasi |
| 5 | Toifalarga ajratish | 18-23-bandlar | To‘rt toifa bo‘yicha guruhlash |

| T/r | Blok | Bandlar | Mazmuni |
|---|---|---|---|
| 6 | Ballarni hisoblash | 24-25-bandlar | Normallashtirish va yakuniy o‘rin |
| 7 | Natijalarni e’lon qilish | 27-28-bandlar | 1-oktabr va 1-noyabr muddatlari |
| 8 | Shikoyat tartibi | 30-34-bandlar | Muddatlar va qabul qilinadigan qarorlar |

Manba: muallif tomonidan Nizom [2] asosida tuzilgan.

Tahlil uchun alohida ahamiyatga ega holat shundaki, Nizomning 2-bandida milliy reytingni yuritish maqsadlari qatorida sohani rivojlantirish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilish uchun asos yaratish belgilangan. Shu tariqa hujjat baholash natijasining boshqaruvdagi vazifasini oshkora e’tirof etadi va bu keyingi tahlil uchun normativ tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxema olti bosqichdan iborat bo‘lib, uning yakuniy bosqichi milliy reyting natijalarini e’lon qilishdir. Natijalar e’lon qilinganidan keyingi bandlarning huquqiy tabiati 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Natijalar e’lon qilinganidan keyingi bandlarning tasnifi

| Band | Mazmuni | Norma turi |
|---|---|---|
| 29-band | Yolg‘on ma’lumot uchun natijalarni bekor qilish | Sanksion |
| 30-32-bandlar | Shikoyat berish huquqi va tartibi | Protsessual |
| 33-34-bandlar | Shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilish | Protsessual |
| 35-band | Qoidabuzarlik uchun javobgarlik | Sanksion |

Manba: muallif tahlili.

Tasnif natijalariga ko‘ra, natijalar e’lon qilinganidan keyingi barcha normalar protsessual yoki sanksion xususiyatga ega. Ularning birortasi ham ta’lim tashkilotidan yoki boshqaruv organidan baholash natijasi asosida muayyan boshqaruv harakatini amalga oshirishni talab qilmaydi.

Bandma-band tahlil natijasida Nizom doirasida quyidagilar belgilanmagani aniqlandi: past ko‘rsatkich bo‘yicha sabablarni tahlil qilish talabi; ta’lim tashkiloti tomonidan baholash natijasi asosida chora-tadbirlar rejasini qabul qilish majburiyati; ushbu reja bo‘yicha mas’ul bo‘linma va bajarish muddatlarini belgilash tartibi; keyingi hisobot siklida erishilgan o‘zgarishni qayta o‘lchash mexanizmi hamda

baholash natijasini ta’lim tashkiloti darajasidagi tuzatish chorasi bilan bog‘lash tartibi.

Shunday qilib, Nizomda o‘lchov arxitekturasi batafsil ishlab chiqilgan va qaror qabul qilish maqsadi oshkora belgilangan, biroq ushbu ikki elementni bog‘lovchi operatsional halqa mazkur hujjat doirasida ochiq qolgan.

Aniqlangan bo‘shliqni talqin qilishda muhim chegara shartini hisobga olish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmoniga muvofiq 2027-yil 1-yanvardan boshlab milliy reyting natijalariga ko‘ra moliyaviy rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi [3]. Farmonda har bir toifa guruhiga mansub ta’lim tashkilotlarining 20 foizi 1-darajaga, 40 foizdan 2- va 3-darajalarga kiritilishi hamda ular darajasiga muvofiq rag‘batlantirilishi belgilangan.

Demak, tizim darajasida milliy reyting natijasi moliyalashtirish qarori bilan bog‘langan va tadqiqotda reyting natijasi boshqaruv qarorlari bilan umuman bog‘lanmagan degan da’vo ilgari surilmaydi. Aniqlangan bo‘shliq boshqa darajaga tegishli: ta’lim tashkilotining o‘zida past ko‘rsatkich bo‘yicha diagnostika o‘tkazish, tuzatish chorasini belgilash va keyingi siklda qayta baholash tartibi Nizomda nazarda tutilmagan. Boshqacha aytganda, tashqi rag‘bat mexanizmi shakllantirilgan, ichki tuzatish sikli esa ochiq qolgan. 2027-yildan boshlab bu holat bo‘shliqning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur bo‘shliq kamida uch yo‘nalishda boshqaruv samaradorligini cheklashi mumkin. Birinchidan, baholash natijasi bir martalik hodisaga aylanishi mumkin: e’londan so‘ng ko‘rsatkich muhokama qilinsa-da, uni rasmiy hujjatda qayd etish talab qilinmagani sababli keyingi davrda tekshirish qiyinlashadi. Ikkinchidan, o‘zgarish sabablarini aniqlash imkoniyati cheklanishi mumkin, chunki keyingi yil natijasini oldingi yilda qabul qilingan chora bilan uslubiy jihatdan bog‘lash tartibi mavjud emas. Uchinchidan, javobgarlik taqsimoti noaniq qolishi mumkin, zero baholash natijasi bo‘yicha ishlash qaysi bo‘linma zimmasiga yuklatilishi ko‘rsatilmagan. Mazkur mulohazalar normativ tahlilga asoslangan bo‘lib, ta’lim tashkilotlarining amaldagi faoliyatini empirik kuzatish natijalariga tayanmaydi.

**Taklif etilayotgan mexanizm**

Aniqlangan bo‘shliqni bartaraf etish uchun besh bosqichli sikl taklif etiladi. Mexanizmning asosiy tamoyiliga ko‘ra, har bir bosqich oldingi bosqichning hujjatlashtirilgan natijasiga tayanadi va keyingi bosqich uchun boshlang‘ich ma’lumotni shakllantiradi. Nizomda belgilangan jarayon, aniqlangan bo‘shliq va taklif etilayotgan sikl o‘rtasidagi bog‘liqlik 1-rasmda aks ettirilgan.




1-rasm. Nizomda belgilangan jarayon, aniqlangan bo‘shliq va taklif etilayotgan sikl

Manba: Nizom [2] va muallif taklifi asosida tuzilgan.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, Nizomda tartibga solingan jarayon natijalarni e’lon qilish bilan yakunlanadi, taklif etilayotgan sikl esa aynan shu nuqtadan boshlanadi. Har bir bosqich uchun mas’ul subyekt va natija hujjati belgilanadi, qayta baholash bosqichining keyingi hisobot sikliga ulanishi esa siklni yopiq tizimga aylantiradi. Natijada reyting ko‘rsatkichi bir martalik bahodan uzluksiz boshqaruv siklining boshlang‘ich ma’lumotiga aylanadi va keyingi davrdagi o‘zgarishni qabul qilingan chora bilan bog‘lash imkoni paydo bo‘ladi.

3. Kohnke L., Zou D. Artificial intelligence integration in TESOL teacher education: Promoting a critical lens guided by TPACK and SAMR // TESOL Quarterly. — 2025. — Vol. 59, Issue S3. — P. S267–S278. DOI: 10.1002/tesq.3396.

4. Ekizer F. N. Exploring the impact of artificial intelligence on English language teaching: A meta-analysis // Acta Psychologica. — 2025. — Vol. 260. — 105649. DOI: 10.1016/j.actpsy.2025.105649.

5. Ebrahimi Z., Shakib Kotamjani S., Qosimov A., Xodabande I. Mapping the emerging research landscape on applications of ChatGPT in language teacher education: A systematic narrative literature review // Discover Artificial Intelligence. — 2025. — Vol. 5. — 349. DOI: 10.1007/s44163-025-00631-z.

# KLINIK LINGVISTIKA TERMINOLOGIYASINING LISONIY XUSUSIYATLARI

Mahmudjonova Xurshida Muxtorjon qizi
*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti*
muxtorjonqizixurshida@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu ilmiy tadqiqotda tilshunoslikdagi nisbatan yangi ilmiy yo‘nalish bo‘lgan klinik lingvistika terminlarining lisoniy xususiyatlari tadqiq qilndi. Unda soha terminologiyasining tuzilish va derivatsion xususiyatlari tadqiq qilinib, terminlarni milliylashtirish bo’yicha takliflar berildi.*

***Kalit so’zlar:*** *derivatsiya, klinik lingvistika, milliylashtirish, nutq buzilishlari, nutqiy nuqson.*

***Аннотация:*** *В данном научном исследовании изучены лингвистические особенности терминов клинической лингвистики — относительно нового научного направления в языкознании. Исследованы структурные и деривационные особенности терминологии данной отрасли, а также разработаны предложения по созданию национальных эквивалентов терминов.*

***Ключевые слова:*** *деривация, клиническая лингвистика, создание национальных эквивалентов терминов, нарушения речи, речевой дефект.*

***Abstract:*** *This scientific study examines the linguistic features of clinical linguistics terminology, a relatively new field of linguistics. The structural and derivational characteristics of the terminology of this field are analyzed, and proposals are put forward for creating national equivalents of existing terms.*

***Keywords:*** *derivation, clinical linguistics, creation of national equivalents of terms, speech disorders, speech defect.*

**Kirish.** Klinik lingvistika o‘zbek tilshunosligida zamonaviy soha bo‘lganligi sababli undagi terminlar tizimi o‘zlashmalikka asoslangan. Ularning o‘zbek tilidagi muqobillarini topish birmuncha qiyin. O‘zbek tilshunosligida shakllanib kelayotgan tibbiy lingvistikada tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan muammolar anchagina. Shulardan biri tibbiy terminologiya tadqiqi bo‘lib, soha leksikasi, uning tarkibi, boyib borishi, tibbiy termin va atamalarga aloqador masalalar u yoki bu darajada o‘rganilganiga

qaramay, soha lingvistikasida mazkur muammo dolzarbligicha qolmoqda[4, 130-136]. Klinik lingvistikaga oid ayrim terminlar misolida ularning tuzilish xususiyatlarini ko‘rish mumkin.

**Asosiy qism.** Ma’lumki, ma’lum bir fan doirasida atamalar tanlanar ekan yoki boshqa tillardan o‘zlashtirilar ekan, ularni tavsiflashda so‘z birikmalaridan keng foydalaniladi. Va bu samarali usul hisoblanadi. Qadimgi turkiy tilda boy bo‘lgan turkiy qatlamdagi so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanilmay qo‘ygan. Shu bois, biz ko‘p terminlarni birikmali holda qabul qilishga majburmiz. Masalan, bo‘yin suyagi ichidagi oq ilik “Devonu lug‘otit turk”da *yulun* shaklida keladi. Yoki tana ichida bo‘ladigan yog‘ni *yaqri* shaklida qo‘llanadi. Avval mavjud bo‘lgan sochdan so‘ng qo‘shilgan sochni esa *yätrum,* malham qo‘ydi – *yaqdï,* yallig‘landi – *yaldï, siqilgan,* siqiqqa tushgan odam – *tuyuq*(hozirda depressiyadagi odam deyiladi), kasallik, ruh og‘irligi – *tug‘a,* pay, tomir – *sinkir,* bo‘g‘iq ovoz – *qonur un,* g‘ilay – *qinir* kabi. Ammo hozirda zamonaviy o‘zbek tiliga bu so‘zlarni ommalashtirish anchagina mushkul. Nutq bilan ishlovchi sohalarda ham atamalarni so‘z birikmasi holida ko‘p uchratamiz:

**Nutq nuqsoni –** Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bo‘lsa ham chetga chiqish. Ma’lum nutq buzilishining nutqiy va nutqsiz alomatlari hamda ularning bog‘lanish xarakteri majmuyi.

**Nutq buzilishi –** Aloqa vositasining buzilishidir, nutq faoliyati mexanizmlarining ishlashi jarayonida buzilishi, normadan og‘ishi.

**To‘liq rivojlanmagan nutq** – U yoki bu nutq a’zolari ishi yoki umuman nutq tizimi sifat jihatidan eng past darajada rivojlangan nutq. Bunda tilning morfologik tuzilishi, gapning sintaksis qurilishi juda past darajada o‘zlashtiriladi.

**Nutq parchalanishi** – Nutq ko‘nikmalari va kommunikativ malakaning (bosh miyaning lokal yoki diffuziyali xastalanishi oqibatida) yo‘qolganligi.

**Nutq buzilishining patogenezi** – Nutqiy faoliyatda buzilishlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sabab bo‘luvchi patologik mexanizm.

**Nutq buzilishini tuzatish** – Nutq buzilishi alomatini to‘g‘rilash yoki yengillashtirish.

**Lombard effekti** – atrofdagi tovush foni hajmining oshishi ta’sirida nutq hajmining ixtiyoriy ravishda oshishi.

**Tomatis effekti** – bu akustik qayta aloqa yo‘lining chastotali xususiyatlarining ixtiyoriy o‘zgarishi (o‘z ovozini naushnik orqali qayta idrok etishda) – akustik qayta aloqa signali spektrining xususiyatlarini refleksli o‘z-o‘ziga taqlid qilish sodir bo‘ladi[7].

**Beixtiyor duduqlanish** – ma’lum bir vaqt ichida beixtiyor duduqlanishning paydo bo‘lishi, so‘zlovchining o‘z nutqidagi tovushlarni eshitish vositasi orqali o‘z nutqining tabiiy intensivligidan ustun bo‘lgan intensivlikda idrok etishning kechikishi. Yuqoridagi namunalarning aksariyati moslashuv usulida hosil qilingan. Shuningdek, periferik nutq apparati, psixik travma, somatik zaiflik, nutq terapevti, diffuz atrofiya, chap temporal zona, nutqning motor markazi, Broka markazi, Vernike markazi, otologik muammo, tanglay yorig‘i kabilar so‘z birikmasining turli usullarida hosil qilingan klinolingvistik atamalardir. Albatta, terminlarni tuzilishiga ko‘ra so‘zlarning deyarli barcha holatlarida uchratamiz. Masalan, sodda so‘zlar: dislaliya, alaliya, dizartriya, afferentatsiya, mutizm, disleksiya, natal, mielenizatsiya kabilar. Faoli qo‘shma so‘zlardir: neyropsixologiya, bronxoobstruksiya, fenotip, baroretseptorlar, proprioretseptorlar, etnopatogenetik, logonevroz.

So‘z yasalishi tilshunoslikning alohida bo‘limidir. Har qanday so‘z so‘z yasash qoliplari asosida hosil qilinadi. Hosila lisoniylashib, o‘z qolipidan uzilib ketsa ham, unda bilinar-bilinmas qolip bilan (agar qolip yashovchan bo‘lsa) bog‘lanishlar baribir saqlanib qoladi.

So‘z yasash qolipi ikki uzvdan iborat bo‘ladi:

a) qolipning shakliy tomoni;

b) qolipning mazmuniy tomoni.

Yasama so‘zda ana shu ikki jihat tajallilanadi. Yasalma shaklan va mazmunan ana shu qolipga muvofiq kelsa, uni shu qolip hosilasi sifatida qarash mumkin. Qolipning yasovchi asosi, albatta, mustaqil so‘z, yasovchi vosita qismi esa so‘z ham, qo‘shimcha ham bo‘lishi mumkin. Masalan, qo‘shma, juft so‘z yasash qoliplarida asos ham, vosita ham so‘zdir. Xuddi shu asosda klinik tilshunoslik terminlari ham hosil qilinadi. Inklyuziv lingvistik kommunikatsiya, alkogol natijasida yuzga keladigan nutqiy buzulishlar, bajaruvchi funksiya, ijtimoiy muloqot kabi. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, klinik lingvistika soha o‘zi yangi soha bo‘lgani uchun uning sodda holatdagi terminlari ko‘pi o‘zlashma xarakterga ega. Qo‘shma va birikma holatidagi terminlar esa ko‘proq uchraydi, zero, bunda oldindan ma’lum tushunchaning yangi qirrasiga e’tibor qaratilayotgani ko‘rinadi.

Terminlarni qabul qilish ikki xil usulda amalga oshiriladi:

a) umumxalq tilidagi so‘zlarning ma’nosini maxsuslashtirish orqali fanga qabul qilish;

b) chetdan so‘z olish orqali.

Klinik tilshunoslik bo‘yicha tadqiqotlarning aksariyati chet davlatlari tomonidan amalga oshirilayotgani bois atamalarni ham ulardan olishimiz ishimizni

yengillashtiradi. Ammo bu holni to‘g‘ri baholab, terminlarni shundayligicha emas, o‘z tilimizda muqobillarini joriy qilgan holda olib kirishimiz sohaning O‘zbekistondagi rivoji uchun juda ham ahamiyatli bo‘ladi. Bu yangi paydo bo‘luvchi kasb egalari: nutq terapevti, nutq maslahatchisi va bemorlar o‘rtasidagi aloqani ham birmuncha tushunarli va mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi. Dastlab soha nomini *tibbiy tilshunoslik* deb atash mumkin. Albatta, klinik so‘zi tilimiz leksikasiga qabul qilinganiga ancha yillar bo‘ldi. Shunday bo‘lsa ham, atamaning ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak: *klinik* so‘zi *“klinikaga oid, klinika bilan bog‘liq; shifokor yordami (aralashuvi) talab etiladigan, shu yo‘l bilan hal etilishi mumkin bo‘lgan”* ma’nolarini beradi. Lekin tibbiy tilshunoslikda asosan nutq terapevti ish ko‘radi. Bu garchi klinika bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ish markazida nutq terapevti turadi. Jahon minbarlarida uni klinik lingvistika deb nomlash zarar bermaydi. Endi mazkur sohadagi kasalliklardan ayrimlarining nomlarini ko‘rib chiqsak.

**Og‘zaki nutqning buzilishi** ikki turga bo‘linadi: 1) *bayon qilishning fonatsion ta’minlanishi*, ular nutqning talaffuz tomonining buzilishi. Buni *tashqi buzilish* deb nomlansa ham bo‘ladi. 2) *bayon qilishning semantik-struktura jihatdan ta’minlanishi*, u nutqning uzluksiz yoki ko‘p tovushli buzilishi deb ham ataladi. Qisqacha *nutqning ichki buzilishi* ifodasini berish mumkin.

**Disfoniya (afoniya)** – tovush aparatining patologik o‘zgarishlari oqibatida fonatsiyaning yo‘q bo‘lishi yoki zaiflashuvi. Ma’nodoshlari: tovushning buzilishi, fonatsiyaning buzilishi, fonotor buzilishlar, vokal buzilishlar. Bulardan *tovush buzilishi* terminini qabul qilsak bo‘ladi. Ammo bu holda atama ma’nosi biroz toraygandek ko‘rinadi.

**Bradilaliya –** nutqning patologik sekinlashgan sur’ati. Ma’nodoshi: bradifraziya. Artikular nutq dasturining sekinlashgan ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladi, markaziy bog‘langan va o‘z tabiatiga ko‘ra organik yoki funksional bo‘lishi mumkin. Buni *nutqning sekinlashuvi* deb nomlash ham mumkin.

**Taxilaliya** – nutqning patologik tezlashgan sur’ati. Ma’nodoshi: taxifraziya. Artikular nutq dasturining tezlashgan holda amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. Buning uchun *nutqning tezlashuvi* atamasi ham mavjud.

**Logonevroz –** nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur’at-ohangning buzilishi. Bu *duduqlanish* deyiladi.

**Dislaliya** – tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishi. Ma’nodosh sifatida ishlatiladigan variantlari: tili chuchuklik, tovush talaffuzidagi nuqsonlar, fonetik nuqsonlar, fonemalarni talaffuz qilishdagi notekisliklar. Eng yaxshi varianti – *tili chuchuklik*.

Shuningdek, dislaliyaning ichki turlarini ham ko‘rib chiqish mumkin. Talaffuzdagi kamchiliklar o‘z xarakteriga, ma’lum tovushlar gruppasiga tegishli bo‘lishiga ko‘ra dislaliya quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Sigmatizm** (grekcha “sigma” “s” harfining nomini bildiradi) – bunda sirg‘aluvchi (s,z) va shovqinli (sh, j, ch) tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. O‘zbek tilida harflarni nomlanmasligini hisobga olsak, dislaliyaning mazkur turini shartli ravishda *“s nuqsoni”* deb yuritish ham mumkin bo‘ladi.

2. **Rotatsizm** (grekcha “ro” harfi nomidan olingan) – r tovushining talaffuzidagi kamchiliklar. Buni *“r nuqsoni”* deyish mumkin.

3. **Lambdatsizm** (grekcha “lambda” harfining nomi, ya’ni “l”) – l tovushining talaffuzidagi kamchiliklar – “*l nuqsoni”*.

4. Til orqa tovushlaridagi kamchiliklar:

**Kappatsizm** – k tovushining nutqda yo‘qligi: kitob-titob, koptok-topto – *“k nuqsoni”*.

**Gammatsizm** – g tovushining nutqda yo‘qligi: gul – dul, gilam – dilam – *“g nuqsoni”*.

**Xitizm** – *“x nuqsoni”*.

**Yotatsizm –** *“y nuqsoni”*.

**Jaranglatish nuqsonlari** – jarangli tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar singari.

**Rinolaliya** – tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fizologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzilishdir. Ma’nodoshlari: dimog‘ bilan gapirish, palatolaliya. Tushunarli varianti *dimog‘ bilan gapirish*.

**Alaliya** – bosh miya qobig‘idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo‘q bo‘lishi yoki rivojlanmay qolishi. Ma’nodoshlari: disfaziya, erta yoshda paydo bo‘ladigan bolalar afaziyasi, rivojlanish afaziyasi, gunglik. O‘zbekcha variantda *gunglik* deb qo‘llash mumkin.

**Afaziya** – bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog‘liq holda nutqning to‘liq yoki qisman yo‘qolishi. Ma’nodoshi: nutqning buzilishi, yo‘qolishi[1, 52-57]. Bunda qisman yo‘qolishiga nisbatan *nutqning buzilishi*, to‘liq yo‘qolishiga nisbatan *nutqning yo‘qolishi* terminlarini ishlatish mumkin bo‘ladi.

Bu muqobillar, albatta, tavsiyaviy ko‘rinishga ega. Sohaning rivojlanishi va til qonuniyatlari klinik lingvistika terminologiyasiga ham ta’sir qilib, tartibga soladi. Bu borada terminologik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya.—T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.—560 b.
2. Cummings L. Clinical linguistics.—Great Britain: Edinburgh University Press, 2008.—XIV-2 p.
3. Mahmud Koshg‘ariy Devonu lug’otit turk.—T., 1963. 234 b.
4. Nazarova S.A. So‘z birikmasi—tibbiy atamalar “bunyodkori”// Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari.—2021.—Buxoro. 1.—№. 2.—B. 130-136.
5. Arxiv.uz. [Elektron resurs]. — URL: https://arxiv.uz
6. Clinical linguistics. Wikipedia: The Free Encyclopedia [Elektron resurs]. — URL: Clinical linguistics
7. Tibbiyot ensiklopediyasi.apk

# IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN QULAY MUHIT YARATISHDA FOYDALANILAYOTGAN INKLYUZIVLIK VA INNOVATSION VOSITALAR

Mamaniyozova Firuza Abror qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti*

***Annotatsiya.*** *Ushbu tezisda nogironligi bo‘lgan insonlar, xususan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv va universal dizayn tamoyillarining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Inson markazli dizayn, zamonaviy texnologiyalar va qulay arxitektura yechimlarining foydalanuvchilar uchun qulaylik, xavfsizlik va mustaqil harakatlanishni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Ed Roberts Campus loyihasi inklyuziv dizaynning amaliy namunasi sifatida o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *inklyuziv dizayn, universal dizayn, inson markazli dizayn, nogironligi bo‘lgan insonlar, imkoniyati cheklangan bolalar, arxitektura, qulay muhit.*

***Аннотация.*** *В тезисе рассматривается значение принципов инклюзивного и универсального дизайна для людей с инвалидностью, в частности для детей с ограниченными возможностями. Анализируется роль человекоцентричного дизайна, современных технологий и архитектурных решений в обеспечении комфорта, безопасности и самостоятельного передвижения пользователей. В качестве практического примера инклюзивного дизайна рассматривается проект Ed Roberts Campus.*

***Ключевые слова:*** *инклюзивный дизайн, универсальный дизайн, человекоцентричный дизайн, люди с инвалидностью, дети с ограниченными возможностями, архитектура, доступная среда.*

***Abstract.*** *This thesis examines the importance of inclusive and universal design principles for people with disabilities, particularly children with disabilities. It analyzes the role of human-centred design, modern technologies, and architectural solutions in providing comfort, safety, and independent movement. The Ed Roberts Campus project is also studied as a practical example of inclusive design.*

***Keywords:*** *inclusive design, universal design, human-centred design, people with disabilities, children with disabilities, architecture, accessible environment.*

Insonlarning kundalik hayoti ularni o‘rab turgan muhit ta’sirida shakllanishi hammaga ma’lum, chunki atrof-muhit bizning o‘zaro muloqot qilish uslubimizga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nogironligi bor insonlar ayniqsa imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham bu holat xuddi shunday ahamiyatga ega. Bundan tashqari, puxta o‘ylangan va ongli ravishda ishlab chiqilgan dizayn yechimlaridan foydalanish hamda ularning kengayib borishi ularning kundalik hayotida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin. Boshqacha aytganda, arxitektorlar va arxitekturaning o‘zi insonlar hayotini shakllantirish kuchiga ega bo‘lib, kundalik tajribalarni yaxshilash orqali ko‘plab insonlarning turmush sifatini oshirishi mumkin. Asosiy e’tibor **aqlli texnologiyalarni joriy etish** hamda **inklyuziv dizayn tamoyillarini rivojlantirish va ularga tayanish** orqali yaxshiroq kirish imkoniyati, qulaylik va hatto avtonomiyani ta’minlashga qaratiladi [1].

Quyidagi **adabiyotlar tahlili** inson markazli (human-centred) dizayn yondashuvlari nogironligi bor insonlar kundalik hayotida duch keladigan ko‘plab muammolarni hal etishda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Ko‘plab arxitektorlar bu yondashuv orqali jamoat va turar joy binolarida mavjud bo‘lgan muammolarga yechim topishga intilmoqda. Dastlabki bosqichlarda olib borilgan kirish imkoniyatiga oid tadqiqotlar asosan xalqaro me’yoriy hujjatlarga rioya qilishga qaratilgan bo‘lib, jumladan **Amerikalik Nogironlar to‘g‘risidagi Qonun (ADA)** yoki unga tenglashtirilgan boshqa qonunlar asos qilib olingan. Ushbu me’yorlarning joriy etilishi jamoat makonlarida minimal darajadagi kirish imkoniyatini ta’minlash uchun muhim poydevor vazifasini bajargan.

Har bir yaratilgan makon **nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun belgilangan standartlar doirasida oson kirish va foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi** lozim. **Inclusive Design (Inklyuziv dizayn)** — har bir kishini o‘z ichiga oluvchi, keng qamrovli yondashuv, mahsulot, xizmat yoki muhitni imkon qadar ko‘proq odamlar uchun foydali qilishga qaratilgan dizayn usuli [2].

2012 yilda **Steinfeld va Maisel** tomonidan olib borilgan tadqiqotda barcha imkoniyatlarga ega bo‘lgan insonlar foydalanishi mumkin bo‘lgan **inklyuziv makonlarni yaratish zarurligi** alohida ta’kidlangan. Ularning tadqiqoti va sa’y-harakatlari natijasida **universal dizayn** tushunchasining ahamiyati yanada yaqqol

namoyon bo‘ldi. Chunki universal dizayn faqatgina minimal talab va me’yorlarga rioya qilish bilan cheklanmaydi, balki **moslashuvchan, adaptiv va barcha insonlar uchun ochiq bo‘lgan muhitlarni yaratishni** nazarda tutadi [3].

Insonlarning nogironliklari bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirish maqsadida **raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali shahar yoki hududlarni moslashtirish** bo‘yicha tadqiqotlar ham olib borilgan. Bunday yondashuvlar **Hollands** [4] va **Townsend** [5] tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, ular nogiron shaxslarning hayotini yaxshilashning turli yo‘llarini ko‘rsatgan. Masalan, **harakatlanishda qiyinchilikka duch keladiganlar uchun avtomatik to‘xtash joyi tizimlari**, **ko‘rish cheklovi bo‘lganlar uchun real vaqtli audio navigatsiya tizimlari** va boshqa shunga o‘xshash.

Inklyuziv dizayn tamoyillarining amaliyotda qanday qo‘llanilishini tahlil qilish maqsadida dunyodagi muvaffaqiyatli loyihalardan biri bo‘lgan **Ed Roberts Campus** misolini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb bildim. Mazkur majmua universal dizayn prinsiplarini yuqori darajada amalga oshirgan bo‘lib, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratishning samarali namunasi hisoblanadi.

"Ed Roberts Campus loyihasining inklyuziv va universal dizayn yechimlari"

Ed Roberts 1972-yilda Center for Independent Living (CIL) tashkilotiga asos solganida, u dunyodagi nogironlar tomonidan boshqariladigan va nogironlar uchun xizmat qiladigan ilk tashkilot edi.

Roberts 1995-yilda vafot etganidan so‘ng, CIL va yana oltita mustaqil yashash hamda fuqarolik huquqlari tashkiloti birlashib, nogironligi bo‘lgan insonlar uchun yuqori darajada qulay va markazlashtirilgan maskan yaratishga qaror qildi. Bu yerda ular kasbiy tayyorgarlik, ta'lim, uy-joy va ijtimoiy yordam masalalari bo‘yicha maslahatlar, shuningdek, sog‘lomlashtirish va jismoniy faollik xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Ed Roberts “Nogironlar huquqlari harakatining xalqaro yetakchisi va ta'lim sohasidagi” faoli bo‘lgan. Ed Roberts hayoti xotirasiga bag‘ishlab AQSH ning Berkli shahrida Ed Roberts Campus ochilgan 2.30 - rasm.

Leddy Maytum Stacy Architects tomonidan loyihalashtirilgan va Ashby BART Station hududida joylashgan ushbu 85 000 kvadrat fut (taxminan 7 900 m²) maydonga ega bino Universal Dizayn tamoyillarini o‘zida mujassam etgan.

Universal dizayn — bu har qanday jismoniy imkoniyatga ega insonlar uchun birdek qulay, tushunarli va foydalanishga oson bo‘lgan muhitlarni yaratish yondashuvidir.

Loyiha AQShning Americans with Disabilities Act (ADA) tomonidan belgilangan kirish imkoniyati talablaridan ancha yuqori darajada bajarilgan.

Binoning markaziy elementi ikkinchi qavatga olib chiquvchi ulkan spiralsimon (vintsimon) rampa hisoblanadi. Ushbu rampa asosiy kirish maydoniga qaragan shisha fasad ortida joylashtirilgan bo‘lib, tashrif buyuruvchilar uchun binoning eng diqqatga sazovor me'moriy elementi sifatida namoyon bo‘ladi 2.31 - rasm.



*2.31 – rasm. Spiralsimon rampa archdaily.com*

Universal dizaynning boshqa elementlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Nogironlar aravachasida harakatlanishni osonlashtirish uchun 7 fut (taxminan 2,1 metr) kenglikdagi koridorlar;
- Avtomatik eshiklar va qo‘llardan foydalanishni talab qilmaydigan bino boshqaruv tizimlari;
- Turli jismoniy imkoniyatlarga ega foydalanuvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan sanitar-gigiyena xonalari (hojatxonalar);
- Nogironlar aravachasi foydalanuvchilari uchun maxsus boshqaruv elementlari bilan jihozlangan kengaytirilgan liftlar;
- Ovozli mo‘ljallar (akustik orientirlar), yuqori kontrastli ichki bezak materiallari hamda turli rang va teksturadagi pol qoplamalari yordamida yaratilgan

oson navigatsiya va yo‘l topish tizimi.

Bu yechimlarning barchasi binodan foydalanayotgan insonlarning jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar, mustaqil va qulay harakatlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu majmua ko‘plab barqaror (ekologik) dizayn yechimlarini ham o‘z ichiga oladi. Jumladan:



*2.32 – rasm. Ed Roberts Campus archdaily.com*

- Quyosh nurlarini nazorat qiluvchi tashqi soyabop elementlar;
- Tabiiy shamollatishni ta’minlash uchun ochiladigan derazalar;
- Energiyani tejovchi mexanik tizimlar va yoritish uskunalari;
- Qayta ishlangan, barqaror manbalardan olingan va tez tiklanadigan xomashyolardan foydalanish.

Shuningdek, binoda zaharli moddalar saqlamaydigan pardozlash materiallari qo‘llanilgan va tashqaridan keladigan havo maxsus filtrlar orqali tozalanadi. Bu ichki havo sifatini yaxshilab, kimyoviy moddalarga sezgir yoki allergik reaksiyalarga moyil bo‘lgan insonlar uchun yanada sog‘lom va qulay muhit yaratadi.



*2.33 – rasm. Ed Roberts Campusining tarkibiy qismlari.*

## Foydalanilgan adabiyotlar

**1.** Yousif Adham SalahEldeen. Interior Design Enhancing Accessibility for the Disabled: Improving Quality of Life through Smart Innovations // MSA Engineering Journal. — 2024. DOI: 10.21608/msaeng.2024.335332.1373.

**2.** Benetti A. Designing for All: Accessible and Inclusive Design. — 2023. — February 22.

**3.** Steinfeld E. Universal Design: Creating Inclusive Environments. — John Wiley & Sons, Inc., 2012.

**4.** Hollands R. G. Will the Real Smart City Please Stand Up? // City. — 2008. — Vol. 12, № 3. — P. 303–320. DOI: 10.1080/13604810802479126.

**5.** Townsend A. M. Smart Cities: Big Data, Civic Hackers, and the Quest for a New Utopia. — W. W. Norton & Company, 2013.

# UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUVCHILARNING ILMIY-TEXNIK STARTAP LOYIHALARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzakarimova Mohidil Tojimatovna

***Annotatsiya.*** *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ilmiy-texnik startap loyihalarini tashkil etish va boshqarish masalasi ta’limda menejment nuqtayi nazaridan yoritiladi. O‘quvchi loyihalarining faqat fan to‘garagi yoki tanlov doirasidagi faoliyat sifatida emas, balki aniq boshqaruv bosqichlariga ega jarayon sifatida tashkil etilishi zarurligi asoslanadi. Ilmiy-texnik startap loyihalarini boshqarishning g‘oyani aniqlash, saralash, jamoani shakllantirish, rejalashtirish, mentorlik, amalga oshirish, monitoring, baholash va amaliyotga joriy etish bosqichlaridan iborat modeli taklif etiladi. Shuningdek, loyihalarni saralash mezonlari va monitoring ko‘rsatkichlari ishlab chiqish yo‘nalishlari ko‘rsatiladi. Maqolada tajriba-sinov natijalari keltirilmagan; takliflar keyingi empirik tadqiqot uchun ilmiy-metodik asos sifatida qaraladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’limda menejment, umumiy o‘rta ta’lim, ilmiy-texnik loyiha, startap, loyiha boshqaruvi, innovatsion faoliyat, monitoring, mentorlik, STEM.*

***Аннотация.*** *В статье рассматривается вопрос организации и управления научно-техническими стартап-проектами учащихся в общеобразовательных учреждениях с позиции образовательного менеджмента. Обосновывается необходимость рассматривать проектную деятельность учащихся не только как внеклассную активность, но и как управляемый процесс с определёнными этапами. Предлагается модель управления, включающая выявление идеи, отбор, формирование команды, планирование, наставничество, реализацию, мониторинг, оценивание и внедрение результатов. Определяются основные направления разработки критериев отбора проектов и показателей мониторинга. Эмпирические результаты в статье не приводятся; предложенная модель рассматривается как основа для последующего экспериментального исследования.*

***Ключевые слова:*** *образовательный менеджмент, общее среднее образование, научно-технический проект, стартап, управление проектами, инновационная деятельность, мониторинг, наставничество.*

***Abstract.*** *The article examines the management of students’ scientific and technical startup projects in general secondary education from the perspective of educational management. The need to treat student project activity as a managed process with defined stages, rather than only as extracurricular activity, is substantiated. A management model is proposed, including idea identification, selection, team formation, planning, mentoring, implementation, monitoring, evaluation, and practical application. Directions for developing project selection criteria and monitoring indicators are outlined. No empirical experimental results are claimed; the proposed model is intended as a basis for further experimental research.*

***Keywords:*** *educational management, general secondary education, scientific and technical project, startup, project management, innovation activity, monitoring, mentoring.*

**Kirish**

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muammoni aniqlash, g‘oya ishlab chiqish, uni amaliy yechimga aylantirish va natijani baholashda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, ilmiy-texnik yo‘nalishdagi loyihalar o‘quvchilarning fanlararo bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Bunday faoliyatning natijadorligi faqat o‘quvchining individual qobiliyatiga emas, balki ta’lim muassasasida yaratilgan tashkiliy sharoit va boshqaruv tizimiga ham bog‘liq. Loyiha g‘oyalarini saralash, jamoalarni shakllantirish, vazifalarni taqsimlash, vaqt va resurslarni rejalashtirish, mentorlikni tashkil etish, oraliq natijalarni monitoring qilish hamda yakuniy natijani baholash yagona boshqaruv tizimida ko‘rilishi lozim.

2026-yilgi davlat siyosati doirasida umumiy o‘rta ta’limning 9–11-sinf o‘quvchilari uchun startap g‘oyalarini yaratishga yo‘naltirilgan tadbirlar va tanlovlarni bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan. Bu holat maktabdagi startap faoliyatini boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarbligini oshiradi.

**Tadqiqot maqsadi**

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ilmiy-texnik startap loyihalarini boshqarishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ilmiy asoslash va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari**

• ilmiy-texnik startap loyihalarini boshqarishning nazariy asoslarini tahlil qilish;

• maktab sharoitida o‘quvchi loyihalarini boshqarishning mavjud muammolarini aniqlash;

• loyihalarni tanlash va saralash mezonlarini belgilash;

• loyiha jamoalarini shakllantirish va vazifalarni taqsimlashning tashkiliy mexanizmini ishlab chiqish;

• loyiha jarayonini monitoring qilish va baholash ko‘rsatkichlarini taklif etish;

• maktab, oliy ta’lim muassasasi va innovatsion infratuzilma o‘rtasidagi hamkorlikning boshqaruv modelini asoslash.

**Tadqiqot obyekti va predmeti**

Tadqiqot obyekti — umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ilmiy-texnik loyiha va startap faoliyatini tashkil etish jarayoni.

Tadqiqot predmeti — o‘quvchilarning ilmiy-texnik startap loyihalarini boshqarish shakllari, usullari, vositalari, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va monitoring mexanizmlari.

**1. Ilmiy-texnik startap loyihalarining ta’limiy mazmuni**

Maqolada “ilmiy-texnik startap loyihasi” atamasi o‘quvchi yoki o‘quvchilar jamoasi tomonidan muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan, ilmiy-texnik g‘oya, amaliy yechim, prototip yoki xizmatni yaratish va uning amaliy qiymatini tekshirishga yo‘naltirilgan loyiha sifatida operatsional ma’noda qo‘llanadi. Ushbu ta’rif umumiy o‘rta ta’lim sharoitiga moslashtirilgan bo‘lib, startap faoliyatining biznes jihatini emas, avvalo uning ta’limiy va innovatsion boshqaruv jihatini ajratib ko‘rsatadi.

Masalan, o‘quvchilar quyosh energiyasidan foydalanadigan kichik qurilma yaratish g‘oyasini ilgari surishlari mumkin. Mazkur tadqiqotda qurilmaning elektr sxemasini yaratish asosiy predmet emas. Asosiy masala — maktab rahbariyati va loyiha rahbari bunday g‘oyani qanday tanlaydi, o‘quvchilarni qanday guruhlaydi, vazifalarni qanday taqsimlaydi, resurslarni qanday rejalashtiradi va natijani qanday monitoring qiladi.

**2. Loyiha boshqaruvining zaruriyati**

O‘quvchining yaxshi g‘oyaga ega bo‘lishi loyihaning muvaffaqiyatli yakunlanishini avtomatik ravishda ta’minlamaydi. G‘oyani amaliy natijaga aylantirish uchun maqsad, muddat, mas’ul shaxslar, resurslar, oraliq natijalar va baholash mezonlari aniqlanishi kerak. Shu sababli ta’lim muassasasida loyiha boshqaruvi alohida tashkiliy jarayon sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Boshqaruvning asosiy funksiyalari quyidagicha ifodalanadi: rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, motivatsiya, monitoring va nazorat, baholash hamda natijalarni takomillashtirish. Ushbu funksiyalar o‘quvchining mustaqil faoliyatini cheklash uchun emas, balki uni tizimli tashkil etish uchun xizmat qiladi.

**3. Ilmiy-texnik startap loyihalarini boshqarish modeli**

Taklif etilayotgan model quyidagi ketma-ketlikdan iborat: 1) muammoni aniqlash; 2) g‘oya ishlab chiqish; 3) dastlabki saralash; 4) loyiha jamoasini shakllantirish; 5) maqsad va vazifalarni belgilash; 6) reja va resurslarni aniqlash; 7) mentorlik; 8) prototip yoki dastlabki mahsulotni yaratish; 9) monitoring; 10) natijani baholash; 11) takomillashtirish; 12) amaliyotga joriy etish yoki keyingi bosqichga tavsiya qilish.

Modelning muhim xususiyati — boshqaruvni bir martalik tadbir emas, balki qayta aloqa asosidagi siklik jarayon sifatida tashkil etishdir. Monitoring davomida kamchilik aniqlansa, loyiha rejasiga o‘zgartirish kiritiladi. Shu orqali “reja — amalga oshirish — monitoring — tahlil — takomillashtirish” sikli shakllanadi.

**4. Loyihalarni saralash va baholash mezonlari**

Maktabda barcha g‘oyalarni bir xil darajada qo‘llab-quvvatlash imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Shu sababli dastlabki saralash mezonlarini ishlab chiqish boshqaruvning muhim elementi hisoblanadi. Taklif etilayotgan mezonlar: muammoning dolzarbligi; g‘oyaning yangiligi; ilmiy-texnik asoslanganligi; amaliy ahamiyati; maktab sharoitida amalga oshirish imkoniyati; mavjud resurslarga mosligi; o‘quvchilarning faol ishtiroki; natijani namoyish etish imkoniyati.

Mezonlar ballik tizimda qo‘llanishi mumkin. Bunda baholashni birgina o‘qituvchi emas, loyiha rahbari, tegishli fan o‘qituvchilari va zarur hollarda tashqi ekspertlardan tashkil topgan kichik ekspert guruhi amalga oshirishi maqsadga muvofiq.

**5. Monitoring mexanizmi**

Monitoring loyihaning faqat yakuniy natijasini emas, balki jarayonini ham kuzatishni nazarda tutadi. Monitoring ko‘rsatkichlari quyidagi guruhlarga ajratilishi mumkin: tashkiliy ko‘rsatkichlar — rejaning mavjudligi, muddatlarga rioya qilish; faoliyat ko‘rsatkichlari — jamoa a’zolarining ishtiroki va vazifalarning bajarilishi;

ilmiy-texnik ko‘rsatkichlar — yechimning asoslanganligi va prototipning holati; ta’limiy ko‘rsatkichlar — o‘quvchilarning mustaqilligi, hamkorlik va muammoni hal qilish ko‘nikmalari; amaliy ko‘rsatkichlar — natijani qo‘llash imkoniyati.

Monitoring natijalari asosida loyiha “davom ettirish”, “takomillashtirish”, “qo‘shimcha ekspertizaga yuborish” yoki “keyingi bosqichga tavsiya etish” kabi boshqaruv qarorlariga olib kelishi mumkin. Bunday yondashuv boshqaruv qarorini aniq mezonlarga bog‘lash imkonini beradi.

**6. Maktab–OTM–innovatsion infratuzilma hamkorligi**

Ilmiy-texnik loyihalarni maktabning o‘z resurslari bilan to‘liq amalga oshirish har doim ham mumkin emas. Shu sababli maktab, oliy ta’lim muassasasi, ilmiy tashkilotlar va innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni boshqarish muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Taklif etilayotgan taqsimotda maktab o‘quvchi va g‘oyani aniqlash hamda pedagogik boshqaruvni tashkil etadi; mentor o‘quvchilarga yo‘nalish beradi; oliy ta’lim muassasasi ilmiy-ekspertlik ko‘magini beradi; innovatsion infratuzilma prototiplash va loyiha rivojiga ko‘maklashishi mumkin. Bunday hamkorlik o‘quvchi loyihasining ta’limiy faoliyatdan amaliy faoliyatga o‘tishini qo‘llab-quvvatlaydi.

**7. Ilmiy yangilik yo‘nalishlari**

Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida quyidagi yo‘nalishlarni ishlab chiqish ko‘zda tutiladi: birinchidan, umumiy o‘rta ta’lim sharoitiga mos ilmiy-texnik startap loyihalarini boshqarish modeli; ikkinchidan, loyihalarni saralash va baholashning mezonlar tizimi; uchinchidan, loyiha jarayonini bosqichma-bosqich monitoring qilish mexanizmi; to‘rtinchidan, maktab–OTM–innovatsion infratuzilma hamkorligini boshqarishning tashkiliy-pedagogik shartlari.

Mazkur bandlar “dunyoda birinchi” yoki mutlaq yangilik sifatida emas, balki keyingi tizimli adabiyotlar tahlili va tajriba-sinov orqali ilmiy jihatdan tekshirilishi lozim bo‘lgan yangilik yo‘nalishlari sifatida belgilanadi.

**8. Tadqiqot metodlari va kutilayotgan natijalar**

Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish, so‘rovnoma, suhbat, ekspert baholashi, pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanish mumkin. Dastlabki bosqichda ilmiy adabiyotlar va amaliy tajriba tahlil qilinadi; keyingi bosqichda boshqaruv modeli va mezonlar ishlab chiqiladi; tajriba-sinov bosqichida modelning amaliy qo‘llanishi tekshiriladi.

Kutilayotgan natija — umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarning ilmiy-texnik startap loyihalarini tanlash, rejalashtirish, tashkil etish, monitoring

qilish va baholashni yagona tizimga birlashtiruvchi boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish.

**Xulosa**

O‘quvchilarning ilmiy-texnik startap loyihalarini rivojlantirish ta’lim muassasasida faqat ijodiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanmasligi, balki aniq boshqaruv mexanizmlariga tayanishi zarur. Bunda loyiha g‘oyasini aniqlashdan boshlab, saralash, jamoani shakllantirish, rejalashtirish, mentorlik, monitoring, baholash va natijani amaliyotga joriy etishgacha bo‘lgan bosqichlar o‘zaro bog‘liq holda tashkil etiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul bo‘yicha rasmiy axboroti. Tayanch doktoranturaga hujjat topshirish uchun ilmiy maqola va tezislar nusxalari haqidagi talablar. gov.uz, 2025.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi PQ–59-son qarori — startaplarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

3. Jo‘rayev Q. Texnik ijodkorlik va dizayn. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2015.

4. Umumiy o‘rta ta’limda ta’lim mazmunini loyihalashtirish va kompetensiyalarni shakllantirishga oid metodik materiallar.

5. Ta’limda menejment yo‘nalishidagi ilmiy-metodik adabiyotlar va umumiy loyiha boshqaruvi bo‘yicha ilmiy manbalar.

# TALABALARDA MAS’ULIYAT HISSINING SHAKLLANISHIDA TA’LIM MUHITINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Nizamova Yulduz Odamboy qizi
yulduzniyozqulova@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Ushbu tezisda talabalik davrida mas’uliyat hissining shakllanishi va rivojlanishida ta’lim muhitining psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Mas’uliyat shaxsning o‘z xatti-harakatlari, qabul qilgan qarorlari va bajarishi lozim bo‘lgan vazifalariga ongli munosabatini ifodalovchi muhim psixologik sifat sifatida yoritiladi. Talabalik davrida shaxsning mustaqilligi ortishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi, qarorlar qabul qilishi va o‘z faoliyati natijalarini baholashi mas’uliyat hissining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Ta’lim jarayonidagi psixologik muhit, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabat, mustaqil faoliyat uchun yaratilgan sharoit hamda talabaning o‘z fikrini erkin ifodalashi uning mas’uliyatli xulq-atvorini shakllantirishda muhim omillar sifatida qaraladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *talaba, mas’uliyat, ta’lim muhiti, psixologik muhit, mustaqillik, motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, o‘qituvchi-talaba munosabatlari.*

***Abstract.*** *This thesis analyzes the psychological significance of the educational environment in the formation and development of a sense of responsibility during the student period. Responsibility is considered as an important psychological quality that reflects an individual’s conscious attitude toward their actions, decisions, and duties. During the student period, the development of independence, the ability to plan one’s activities, make decisions, and evaluate the outcomes of one’s activities is closely associated with the development of a sense of responsibility. The psychological environment of the educational process, teacher–student relationships, conditions created for independent activity, and opportunities for students to freely express their opinions are considered important factors in the formation of responsible behavior.*

***Keywords:*** *student, responsibility, educational environment, psychological environment, independence, motivation, personal development, teacher–student relationships.*

Talabalik davri shaxsning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda yosh inson nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallaydi, balki o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi, mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rganadi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglay boshlaydi. Shu jihatdan mas’uliyat hissining rivojlanishi talabaning ta’lim jarayonidagi faol ishtiroki hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligining muhim psixologik jihatlaridan biridir **[2; 5]**.

Mas’uliyat hissi faqat topshiriqni o‘z vaqtida bajarish yoki belgilangan talabga rioya qilish bilan cheklanmaydi. U shaxsning o‘z faoliyati natijasini anglay olishi, qabul qilgan qarorlariga munosabat bildira olishi, yuzaga kelgan vaziyatlarda mustaqil yo‘l topishi va o‘z xatti-harakatlarini baholashi bilan bog‘liq murakkab psixologik sifatdir. Talaba o‘z faoliyatining natijasi uchun javobgarlikni anglagan sari unda tashabbuskorlik, mustaqillik va o‘z faoliyatini nazorat qilish kabi sifatlarning rivojlanishi uchun imkoniyat kengayadi **[1; 10]**.

Ta’lim muhiti esa ushbu jarayonning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir. Talabaga nisbatan qo‘yiladigan talablarning aniq bo‘lishi, uning fikri va tashabbusiga munosabat, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi, guruhdagi shaxslararo munosabatlar va mustaqil faoliyat uchun yaratilgan imkoniyatlar talabaning o‘z vazifalariga munosabatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik jihatdan qulay ta’lim muhiti talabaga o‘z imkoniyatlarini namoyon etish, xatolarini tahlil qilish va faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabat ham mas’uliyat hissining shakllanishida alohida o‘rin tutadi. Talabaga faqat nazorat obyekti sifatida emas, balki mustaqil fikrlashga qodir shaxs sifatida munosabatda bo‘lish uning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishi mumkin. Bunda talablarga rioya qilish bilan bir qatorda, ularni bajarish sabablarini tushuntirish, natijalarni tahlil qilish va konstruktiv fikr-mulohaza berish ham muhimdir. Bunday yondashuv talabaning tashqi nazoratga bo‘lgan ehtiyojini asta-sekin kamaytirib, o‘z faoliyatini ichki mezonlar asosida boshqarishiga sharoit yaratadi **[4]**.

Talabaning mas’uliyat hissi uning motivatsiyasi bilan ham chambarchas bog‘liq. O‘quv faoliyatining mazmunini anglash, egallayotgan bilimlarining kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ahamiyatini tushunish talabaning o‘z vazifalariga munosabatini o‘zgartirishi mumkin. Faqat baho olishga yo‘naltirilgan faoliyat bilan bilim va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan faoliyat o‘rtasida psixologik farq mavjud. Shuning uchun ta’lim jarayonida talabaning ichki qiziqishi va kasbiy

maqsadlarini hisobga olish mas’uliyatli munosabatning rivojlanishi uchun muhim shartlardan biri sifatida qaraladi. Shuningdek, guruhdagi psixologik muhit ham talabaning mas’uliyatli xulq-atvoriga ta’sir qilishi mumkin. O‘zaro hurmat, hamkorlik, fikr almashish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan muhitda talaba o‘z fikrini erkinroq ifodalashi va umumiy faoliyatdagi o‘z o‘rnini anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Jamoaviy topshiriqlarda o‘ziga yuklatilgan vazifani bajarish esa shaxsiy mas’uliyat bilan bir qatorda boshqalar oldidagi javobgarlik hissining ham rivojlanishiga xizmat qiladi

Mas’uliyat hissining shakllanishida talabaning xatolariga bo‘lgan munosabat ham muhimdir. Xatoni faqat salbiy natija sifatida baholash o‘rniga, undan kelib chiqadigan sabablarni tahlil qilish va keyingi faoliyat uchun xulosa chiqarishga imkon berish talabaning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘z faoliyatini tahlil qila olgan talaba o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglaydi, kelgusidagi harakatlarini rejalashtiradi va natija uchun javobgarlikni chuqurroq his etadi **[7]**.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muhitida mas’uliyat hissini rivojlantirish birgina nazorat va talablar orqali emas, balki talabaning mustaqilligi, tashabbusi, motivatsiyasi va refleksiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Talabaga muayyan vazifani bajarish bilan birga, uni qanday bajarish yo‘lini tanlash imkoniyatining berilishi mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu esa mas’uliyatning tashqi talabdan shaxsiy ehtiyoj va ichki pozitsiyaga aylanishiga zamin yaratadi **[2; 7]**.

Umuman olganda, talabalarda mas’uliyat hissining shakllanishi shaxsiy rivojlanish, ta’lim faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning o‘zaro ta’siri asosida kechadigan murakkab psixologik jarayondir. Ta’lim muhitining mazmuni va undagi munosabatlar talabaning o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun oliy ta’lim jarayonida talabaning mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilishi, o‘z faoliyatini baholashi va natijalari uchun javobgarlikni his qilishi uchun psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish muhimdir.

Nazariy tahlil natijalaridan kelib chiqib, oliy ta’lim jarayonida talabalarda mas’uliyat hissini rivojlantirishga qaratilgan amaliy yondashuvlarni takomillashtirish zarur. Buning uchun talabalarga o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish, qaror qabul qilish va o‘z faoliyati natijalarini baholash imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi tomonidan topshiriqlarning mazmuni va baholash mezonlarining aniq tushuntirilishi, bajarilgan ish yuzasidan konstruktiv fikr-mulohaza berilishi talabaning o‘z faoliyati natijasini

anglashiga yordam beradi. Shuningdek, talabalarning bajarilgan vazifalarini mustaqil tahlil qilishi, yo‘l qo‘yilgan xatolar sabablarini aniqlashi va keyingi faoliyatini rejalashtirishi uchun refleksiv topshiriqlardan foydalanish mas’uliyatli munosabatning rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Guruhda o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan psixologik muhitni shakllantirish, talabalarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularga muayyan vazifalar bo‘yicha mustaqil javobgarlik berish ham ushbu sifatning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Bunday yondashuv talabaning faqat tashqi nazorat asosida emas, balki o‘z faoliyatining mazmuni va natijasini anglagan holda mas’uliyatli harakat qilishiga imkon beradi.

**Xulosa qilib aytganda**, mas’uliyat hissi talabaning faqat o‘quv topshiriqlarini bajarishi bilan belgilanmaydi, balki uning o‘z faoliyatini anglash, qarorlarining oqibatlarini tushunish, mustaqil harakat qilish va o‘z xatti-harakatlarini baholash qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. Ta’lim muhitida ishonch, aniq talab, konstruktiv fikr-mulohaza, mustaqil faoliyat va hamkorlik uchun yetarli sharoit yaratilishi ushbu sifatning rivojlanishiga ijobiy psixologik zamin yaratadi. Shu sababli talabalarda mas’uliyatni shakllantirish jarayonini tashkil etishda ta’lim mazmuni bilan bir qatorda, uning psixologik muhiti va shaxslararo munosabatlariga ham e’tibor qaratish zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: Universitet, 2002.
2. Nishonova Z.T. *Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya*. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 600 b.
3. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009. – 335 b.
4. Do‘stmuhamedova Sh.A., Tillashayxova X.A., Baykunusova G., Ziyavitdinova G. *Umumiy psixologiya. 2-kitob: Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. – Toshkent, 2020. – 345 b
5. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh.A., Mavlonov M., To‘ychieva S. *Yosh va pedagogik psixologiya*. – Toshkent, 2007.
6. Karimova V.M. *Ijtimoiy psixologiya*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 172 b.
7. Nishonova Z.T. *Mustaqil fikrlash psixologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2005.
8. Muhamedova D.G‘., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2018. – 298 b.

9. Ismoilova N., Abdullayeva D. *Ijtimoiy psixologiya*. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013. – 168 b.

10. Mo‘ydinov T.F. *Talabalarda o‘zini o‘zi nazorat qilishni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari*. – Toshkent, 2023.

# O‘ZBEK TILINI RAQAMLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI: FILOLOGIK MUAMMOLAR VA AMALIY YECHIMLAR

Norqulova Gulhayo Avloberdiyevna
*O‘zJTU “Ikkinchi chet tili” kafedrasi, Sharq filologiyasi fakulteti*

***Annotatsiya.*** *Maqolada o‘zbek tilining raqamli muhitdagi faoliyatini kengaytirish masalasi sun’iy intellekt va zamonaviy kompyuter lingvistikasi imkoniyatlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy e’tibori elektron til resurslarini shakllantirish, o‘zbek tili korpusining ilmiy qiymati, avtomatik matn tahlili, imlo nazorati, mashina tarjimasi hamda nutq texnologiyalariga qaratilgan. O‘zbek tilining grammatik tuzilishi, so‘z shakllarining xilma-xilligi va raqamli matnlarning notekisligi AI tizimlari uchun qanday lingvistik vazifalarni yuzaga keltirishi tahlil qilinadi. Shuningdek, filolog, dasturchi va ma’lumotlar mutaxassisining hamkorligiga asoslangan amaliy model taklif etiladi. Tadqiqot natijasida o‘zbek tiliga mo‘ljallangan sun’iy intellekt vositalarining ishonchliligi faqat texnik algoritmga emas, balki sifatli va belgilangan lingvistik ma’lumotlar bazasiga ham bog‘liqligi asoslanadi.*

